


International
Journal

Intellectual and Cultural Heritage



State Museum of
History of Uzbekistan

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI**

Interscience-service MCHJ



«INTELLEKTUAL VA MADANIY MEROS XALQARO JURNALI»

**«INTERNATIONAL JOURNAL OF INTELLECTUAL AND CULTURAL
HERITAGE»**

**«МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО И
КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ»**

Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy jurnal

2026, Volume 6, Issue 1



TOSHKENT - 2026

«International Journal of Intellectual and Cultural Heritage»			
ISSN-E: 2181-2314, ISSN-P: 2181-2306			
Table of Content - Volume 6 No 1 (2026)			
№	Paper Title	Author name	Page number
1.	YOSHLAR TARBIYASIDA TEATR SAN'ATINING ZAMONAVIY FUNKSIYALARI	XATIRA JULDIKARAYEVA	1-5
2.	CHANGES IN THE SYSTEM OF CULTURAL SCIENCE AND CULTURAL ACTIVITY	SAYYORA TO'YCHIEVA	6-11
3.	ISSUES IN THE STUDY OF SACRED SITES OF THE SOKH VALLEY WITHIN THE FRAMEWORK OF LOCAL HISTORY RESEARCH	M.XUJAMOV	12-17
4.	CORPUS-BASED APPROACHES TO IDENTIFYING AND CLASSIFYING NEOLOGISMS	ERGASHOVA YASMINA	18-24
5.	INTERPRETATION OF ECONOMIC TERMS IN COMPARATIVE LINGUISTICS (BASED ON A TRILINGUAL ANALYSIS OF THE TERM "CAPITALISM")	SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH	25-30
6.	SPIRITUALITY AND PRACTICE IN AHMAD DONISH'S THOUGHT: FOUNDATIONS OF STATE-ECONOMIC DEVELOPMENT	ATAYEV ALISHER RIZOKULOVICH	31-37
7.	THE STATE OF JUVENILE DELINQUENCY IN THE SYSTEM OF INTERNAL AFFAIRS BODIES OF UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE	XASANOVA RASHIDAXON NABIJON QIZI	38-42
8.	REFORMS IN THE NATIONAL FILM INDUSTRY AND PRODUCER EXPERTISE	AVAZKHAN BAKHADIROVICH TADJIKHANOV	43-50
9.	IMPROVING DIDACTIC CONDITIONS IN HIGHER EDUCATION: SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS	OCHILOVA NILUFAR ULMASOVNA	51-57
10.	ВЛИЯНИЕ РАЗВИТИИ КОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ РЕБЁНКА В РАЗВИТИИ РЕЧИ	ДЕДАХАНОВА МУХАЙЁ МУТАЛЛИЕВНА	58-63
11.	THEORETICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING CERAMICS IN APPLIED EDUCATION	MAXMUDJON AKHMADJONOVICH UBAYDULLAYEV	64-69
12.	LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS OF VOCABULARY PRESENTATION METHODOLOGY IN TEACHING UZBEK TO FOREIGN STUDENTS	MALIKA AKHMADJANOVA MAHMUDJON KIZI	70-76
13.	FACTORS INFLUENCING THE MANIFESTATION OF	ISMAILOVA SH.K.	77-81

	GENDER STEREOTYPES IN LEADERSHIP		
14.	ASSESSMENT OF THE STATE OF BILATERAL HUMANITARIAN RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE RUSSIAN FEDERATION (1991-2016)	MANNOPOVA OYDIN	82-86
15.	DEVELOPMENT OF ANCIENT MATERIAL CULTURE IN THE COLLECTIONS OF THE SAMARKAND STATE MUSEUM-RESERVE	ESHPULOV SUXROB	87-93
16.	SOCIOLOGICAL APPROACHES TO EXPLAINING THE TRANSFORMATION OF THE FAMILY INSTITUTION AND FAMILY VALUES UNDER MIGRATION CONDITIONS	NIGINA MUXAMEDOVNA RUZIMOVA	94-101
17.	COMPOSITION, CLASSIFICATION AND SCIENTIFIC AND MUSEUM SIGNIFICANCE OF THE ETHNOGRAPHIC COLLECTIONS OF THE SAMARKAND STATE MUSEUM-RESERVE	KUCHKAROV SOBIR	102-117
18.	THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON NATIONAL VALUES	AMRIDDINOVA HIOLA SHAMSIDDIN QIZI	118-123
19.	ЎЗБЕКИСТОНДА БОШҚАРУВ ЭЛИТАСИ ДЕМОКРАТЛАШУВИНИНГ ИЖТИМОЙ АСОСЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ	АЛИЕВ ҒОФИР ҚУВАТОВИЧ	124-128
20.	REGARDING PROGRAMMATIC ISSUES IN SOLO MAQOM SINGING	KARIMOVA MAKHFUZA VAKHABOVNA	129-133
21.	ФАЛЕРИСТИЧЕСКАЯ КОЛЛЕКЦИЯ БУХАРСКОГО МУЗЕЯ: ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И ИЗУЧЕНИЕ	ХАЛИКОВА НАРГИЗА ЭРКИНОВНА	134-137
22.	ETHNOGRAPHIC AND CULTURAL-HISTORICAL FEATURES OF THE JIZAKH OASIS	BEGMATOVA OYDINA XOLMURATOVNA	138-142
23.	FORMING NATIONAL VALUES AMONG STUDENTS THROUGH APPLIED ARTS CLASSES: A THEORETICAL AND PEDAGOGICAL ANALYSIS	MAXMUDJON UBAYDULLAYEV AKHMADJONOVIC H	143-147
24.	THE RELEVANCE OF COMMUNICATIVE DISCOURSE IN THE EDUCATION SYSTEM	MAFTUNA YOQUBJONOVA ISMOILJON KIZI	148-152
25.	MUSICAL PERCEPTION IN BLIND STUDENTS: AUDIO-COGNITIVE COMPENSATORY MECHANISMS IN ALTERNATIVE MUSIC NOTATION SYSTEMS	MIRSIDIKOVA SEVARA ATXAMOVNA	153-159

Xatira Juldikarayeva

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Sahna nutqi” kafedrası professori v.b.

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 14th February 2026

YOSHLAR TARBIYASIDA TEATR SAN'ATINING ZAMONAVIY FUNKSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada teatr san'atining yoshlar tarbiyasidagi zamonaviy vazifalari, uning ma'naviy-axloqiy, estetik, ijtimoiy va psixologik rivojlanishga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy-nazariy tomonlama tahlil qilinadi. Teatr bugungi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida nafaqat badiiy madaniyat ochog'i, balki yosh avlodni komil inson qilib voyaga yetkazishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida talqin etiladi. Maqolada teatr orqali yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, tanqidiy tafakkur, muloqot madaniyati va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritiladi.

Tayanch so'zlar: *yoshlar, tafakkur, tarbiya, teatr san'ati, spektakl, funktsiya, axloq, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, milliy madaniyat, ijtimoiylashuv.*

СОВРЕМЕННЫЕ ФУНКЦИИ ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЁЖИ

Аннотация. В данной статье анализируются современные задачи театра в воспитании молодёжи, его влияние на духовное, нравственное, эстетическое, социальное и психологическое развитие с научно-теоретической точки зрения. В современных условиях глобализации и цифровизации театр рассматривается не только как источник художественной культуры, но и как эффективный педагогический инструмент, служащий воспитанию молодого поколения как целостной личности. В статье освещаются вопросы формирования патриотизма, гуманизма, уважения к национальным ценностям, критического мышления, культуры общения и навыков творческого мышления у молодёжи посредством театра.

Ключевые слова: *молодёжь, мышление, воспитание, театр, представление, функция, нравственность, национальные ценности, патриотизм, национальная культура, социализация.*

MODERN FUNCTIONS OF THEATER ART IN YOUTH EDUCATION

Abstract: This article analyzes the modern tasks of theater in the education of young people, its impact on spiritual, moral, aesthetic, social and psychological development from a scientific and theoretical perspective. In today's conditions of globalization and digitalization, theater is interpreted not only as a source of artistic culture, but also as an effective pedagogical tool that serves to bring up the younger generation as a complete person. The article highlights the issues of forming patriotism, humanity, respect for national values, critical thinking, communication culture and creative thinking skills in young people through theater.

Keywords: *youth, thinking, education, theater, performance, function, morality, national values, patriotism, national culture, socialization.*

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda ma'naviy-mafkuraviy ishlarning markazida turishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biri bu yoshlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, foydali va qiziqarli mashg'ulotlar bilan ularni mashg'ul qilishdan iborat. Chunki hayotdagi ko'pgina noxushliklar bekorchilikdan, ya'ni yoshlarning hayotga to'g'ri yo'llanma olmaganidan kelib chiqadi. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida ularni teatrlarga jalb etish, teatrlar esa, o'z navbatida, yoshlar hayoti va ular tarbiyasi xususidagi sahna asarlarini yaratishi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Yoshlarni barkamollik pag'onasiga olib chiqish hamda ularning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda teatr san'ati alohida mavqega ega. Chunki u har bir milliy madaniyatning yuksalganligi va balog'atga yetib ulg'ayganligini yaqqol ko'rsatuvchi oynadir. "Teatr o'yunbozlik emas"! Masxarabozlik ham emas! Teatr bamisoli oynavand bir uykim, kirgan har bir kimsa o'z husnu qabihini ko'ra olur. Yuziga un surtib masxarabozlik shakliga kirgan zotlar tabibi hoziqdurlar[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Zamonaviy sahna san'ati va madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda sahna nutqi, rejissura va dramaturgiya masalalari muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sahna nutqining badiiy ta'sirchanlikni ta'minlashdagi o'rni, rejissura san'atining sahnalashtirish jarayonidagi funksional vazifalari hamda madaniy tadbirlarning ma'naviy-ma'rifiy mazmunini ochib berishga qaratilgan.

S.Ahmad tomonidan yozilgan "*Behbudiyning armonlari*" asarida milliy teatr va sahna madaniyatining shakllanish jarayoni tarixiy-estetik nuqtai nazardan tahlil qilinib, sahna nutqining g'oyaviy yukni yetkazishdagi roli yoritilgan. Ushbu manba sahna nutqining milliylik va ma'naviylik bilan uyg'unligini asoslashda muhim manba hisoblanadi.

A.N.Petrovaning "*Stsenicheskaya rech*" asari sahna nutqi bo'yicha klassik nazariy manbalardan biri bo'lib, unda aktyorning nutq texnikasi, talaffuz madaniyati, intonatsiya va psixofiziologik jihatlar chuqur tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot sahna nutqini professional darajada shakllantirish metodologiyasini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

A.Nosirova va I.Jumanovning darslik va qo'llanmalari sahna nutqini o'qitishning milliy pedagogik modeli, amaliy mashqlar tizimi hamda o'quv jarayoniga moslashtirilgan metodik yondashuvlarni taklif etadi. Ushbu asarlar oliy ta'lim tizimida sahna nutqi fanining mazmuniy asoslarini belgilaydi.

So'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalarda (Kiyamovich R.V., Rustamov V., Umarov X., Nazarbaevna Q.A.) madaniy-ommaviy tadbirlarni sahnalashtirishda rejissura san'atining o'rni, ssenariy tuzishning badiiy va tashkiliy ahamiyati, shuningdek, tomoshabin ongiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari yoritilgan. Bu tadqiqotlar sahna san'ati va madaniy tadbirlar o'rtasidagi integratsiyani ilmiy asoslab beradi.

D.K.Yusupalievning ishlarida ommaviy axborot vositalari va madaniy platformalarning mafkuraviy va kommunikativ funksiyalari tahlil qilinib, sahnalashtirish san'atining ijtimoiy ongini shakllantirishdagi roli ochib berilgan. Ushbu yondashuv sahna nutqi va rejissura san'atini kengroq ijtimoiy-madaniy kontekstda ko'rib chiqish imkonini beradi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar sahna nutqi va sahnalashtirish san'atining nazariy asoslari yetarli darajada o'rganilganini ko'rsatsa-da, ularni madaniy-ma'rifiy tadbirlar kontekstida kompleks va tizimli yondashuv asosida tadqiq etish zarurati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqotda kompleks ilmiy metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodlari sahna nutqi va rejissura san'atining nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Avvalo, **analitik-tahliliy metod** yordamida sahna nutqi, rejissura va sahnalashtirishga oid ilmiy adabiyotlar o'rganildi va tizimlashtirildi. Ushbu metod orqali mavjud nazariy qarashlar, yondashuvlar va konsepsiyalar solishtirildi.

Qiyosiy tahlil metodi sahna nutqiga oid milliy va xorijiy ilmiy manbalarni taqqoslash orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qildi. Bu metod sahna nutqi va rejissura san'atining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini berdi.

Deskriptiv metod madaniy-ma'rifiy tadbirlarni sahnalashtirish jarayonida nutq, ssenariy va rejissura elementlarining funksional xususiyatlarini tavsiflash uchun qo'llanildi. Ushbu metod amaliy jarayonlarni nazariy jihatdan asoslashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, **sistemali yondashuv** asosida sahna nutqi, rejissura va ssenariy san'ati yagona badiiy-kommunikativ tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bu yondashuv sahnalashtirish jarayonida barcha elementlarning o'zaro bog'liqligini ochib berishga imkon berdi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar ilmiy xulosalar chiqarish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi hamda sahna nutqi va madaniy tadbirlarni tashkil etish sohasida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Ma'rifatparvar yozuvchi va teatr jonkuyari Mahmudxo'ja Behbudiy ushbu so'zlari orqali teatrning jamiyat ko'zgusi ekanligini ta'kidlaydi. Teatr xalq ommasining estetik didini o'stirishdek murakkab burchni o'tovchi ulkan hayot maktabi hamdir.

Ma'lumki teatr san'ati bu sinkretik – qorishma san'at, ya'ni o'zida boshqa san'at turlarini mujassam etadi, lekin shu bilan birgalikda aktyorsiz teatr jonsiz narsadir. Aktyor esa so'z va nutq orqali ijodkordir. "Agar aktyor teatr san'atining shohi bo'lsa, uning boshidagi toji so'z san'atidi, deb ta'kidlaydi rejissor Nemirovich-Danchenko. Aktyor oldida muallif tomonidan yaratilgan yozma matnni og'zaki nutqqa aylantirish vazifasi turadi. Sahnada so'zning qadri, vazifasi, yuki hayotdagidan ko'ra bir necha marotaba ortishini, uni tomoshabinga aniq va tushunarli yetkazib berish naqadar ahamiyatli ekanidan kelib chiqqan holda, pedagog "so'z-sahna san'atining qon tomiri" ekanligiga amal qilib, unga yaqindan yondoshmog'i lozim. Sahnaviy so'z o'zida chuqur mazmunli, ta'sirchan hatti-harakatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Uning ma'no, mazmun va ohangini aktyor keng qamrovli o'rganishi va turli ta'sir etish nuqtalari - ong, tasavvur, hissiyot doirasiga yo'nalishni uzluksiz ravishda mashq qilishi talab etiladi.

Qog'ozga tushirilgan so'z ijro qilinganda, chiroyli talaffuz bilan o'qilganda jonlanadi. Qog'ozdagi so'zning ta'siri ijrochining mahoratiga qarab, keskin o'zgarib ketishi ham mumkin. So'zning ijrosi (talaffuzi) ayniqsa sahnada asosiy ahamiyatga ega. Shekspirning "Otello" tragediyasini oladigan bo'lsak, Otello Dezdemonadan "Ro'molcha!" "Ro'molcha!" deb xitob qiladigan sahnasi bor. Ushbu sahnani dunyoning turli aktyorlari turlicha ijro qilishgan. Ba'zilarida zo'ravonlik, ba'zilarida iltijo, ba'zilarida fojia ohanglari aks etgan. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, har bir ijroda har bir aktyorning o'ziga xos qarashi, o'ziga xos tushunchasi gavdalanadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, nutq madaniyati targ‘ibotchilari avvalo aktyorlar sanaladilar. Aktyorlar yaratayotgan obrazlari va ifodali nutqi orqali xalqimizning orzu-umidlari, his-tuyg‘ularini kuylaydilar. Shu bilan birga ularni ezgu ishlarga undaydilar, yaxshini yomondan ajratishga o‘rgatadilar. Shuning uchun ham sahnadagi nutq, jonli so‘z masalasi eng muhim masala hisoblanadi.

Teatr sintetik bo‘lib adabiyot, musiqa, raqs, tasviriy-amaliy san‘at hamda boshqa san‘at turlari mujassamlashgan holda namoyon bo‘ladi. Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining tezkorlik bilan kundalik turmushimizga kirib kelishi bilan, teatrning ijtimoiy xususiyati tobora ortmoqda. Teatr san‘atining aynan sintetik tabiati va ko‘p komponentlilik uni boshqarishning eng murakkab obyektlaridan biriga aylantirdi. Teatr boshqaruvining murakkabligini yana bir sababi, teatr faoliyatining bugungi kungacha tarixan shakllangan tashkiliy shakllarini xilma-xilligidir.

Antik va Uyg‘onish davrida dramaturgiya va teatr san‘ati o‘zining yuksak cho‘qqisiga chiqdi, deyarli barcha janrlar, tur va yo‘nalishlar taraqqiy etdi. Shu bilan birga, teatr tashkilotining ikkita asosiy turi shakllandi. Agar biz zamonaviy terminologiyadan foydalansak, ularni repertuar teatri (bir qancha barqaror aktyor truppasi turli dramaturglar asarlari asosida spektakllarni sahnalashtirganda) va korxona (ma‘lum bir teatr loyihasi uchun turli mutaxassislar maxsus yig‘ilganda – bu an‘ana) deb ta‘riflash mumkin.

Bugungi kundagi jamiyatimizda “teatr” tushunchasi talqinlarining ko‘pligi bois teatr menejmenti uchun eng muhimi shundaki, teatr doimiy konsert maydonidan mahrum bo‘lgan va ijara bilan shug‘ullanadigan truppa, ijodiy jamoa sifatida tushunilishi mumkin. Va aksincha, doimiy truppa bo‘lmaganda, ma‘muriy va texnik xodimlarga xizmat ko‘rsatadigan bino va tashkiliy tuzilma ham nazarda tutiladi (bu turdagi teatr tashqaridan turli teatr truppalari taklif qilish orqali mavjud). Shuningdek, bu ikki jihat bir-biri bilan turli nisbatlarda birlashtirilishi mumkin: doimiy bino va nisbatan barqaror ijodiy jamoaga ega bo‘lgan teatr bir vaqtning o‘zida o‘z binolarini boshqa truppalarga ijaraga berishi, shuningdek, o‘z spektakllarini gastrollarga olib chiqishi mumkin. Har bir holatda, boshqaruv obyekti turli xil tarkibiy segmentlarni, shuningdek, turli jarayonlarni qamrab oladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations) Aktyor o‘z nutqi ustida muntazam ishlashi, uning ta‘sirchanligini oshirib borish zarur. Zero, sahnaviy obraz yaratishda voqealarni jonlantirishda aktyorning qaddi-qomati, xatti-harakati bilan birga uning nutqi hal qiluvchi ahamiyatga ega. So‘z qanchalik ta‘sirli bo‘lsa shunchalik ko‘zlangan maqsadning amalga oshishi oson bo‘ladi. Teatr avvalo muallifdan, so‘ngra ijodiy jamoadan so‘zga katta mas‘uliyat va nozik did bilan yondashishni talab etadi. “Sahnadagi nutq ikki tomonga: partnyorga va tomoshabinga yo‘naltirilgan bo‘ladi, Shuning uchun sahnada nutq nihoyatda tushunarli va ishonarli holda yetib kelishi kerak. Sahnadagi nutq hayotdagidan ko‘ra kuchliroq, jonliroq talaffuz qilinadi. Agar aktyor sahnada so‘zlashishning qoidalarga amal qilmay gapirsa, so‘zning kuchi yo‘qolib ketadi. Shu tufayli sahna nutqi aktyordan ravon va shu bilan birga mantiqli so‘zlashni talab etadi[2].

Bugungi kunda ma‘naviy-mafkuraviy ishlarning markazida turishi lozim bo‘lgan muhim masalalardan biri bu yoshlarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish, foydali va qiziqarli mashg‘ulotlar bilan band qilishdan iborat. Chunki hayotdagi ko‘pgina noxushliklar bekorchilikdan, ya‘ni yoshlarning hayotga to‘g‘ri yo‘llanma olmaganidan kelib chiqadi[3]. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadida ularni teatlarga jalb etish, teatrlar esa, o‘z navbatida yoshlar hayoti

va ular tarbiyasi xususidagi sahna asarlarini yaratishi bugungi kunning eng doza masalalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, teatr san'ati yoshlar tarbiyasida ko'p qirrali va samarali zamonaviy pedagogik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. U yoshlarda nafaqat estetik didni, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni, vatanparvarlik tuyg'usini, ijtimoiy mas'uliyatni, ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmad S. Behbudiyning armonlari. – T.: "Teatr", 2006, 1-son.
2. Petrova A.N. Stsenicheskaya rech. – M.: Iskustvo, 1981. 241 s.
3. Nosirova A. "Sahna nutqi" (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Tafakkur-Bostoni", 2013, - 244 b.
4. Jumanov I. Sahna nutqi - T., "Abu matbuot-konsalt" MCHJ nashriyoti - 2015.
5. Kiyamovich, R. V. (2025). APPLICATION OF DIRECTING ART IN THE ORGANIZATION OF CULTURAL AND MASS EVENTS. *AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 3(11), 182-186.
6. Kiyamovich, R. V. (2025). THE ROLE OF LITERATURE IN THE ART OF STAGING. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 3(11), 42-45.
7. Rustamov, V., & Umarov, X. (2023). Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va unda insonni qadrlash masalalari. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 496-502.
8. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.
9. Yusupalieva, D. K. (2020). Development of mutually beneficial cooperation of Uzbekistan within the SCO. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 5(85), 901-903.
10. Yusupalieva, D. K. (2020). Political role of television in the development of national ideology. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 6(86), 665-667.

Сайёра Тўйчиева

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси профессори,
фалсафа фанлари доктори

Received 6th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 14th February 2026

МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА МАДАНИЙ ФАОЛИЯТ ТИЗИМИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР

Аннотация. Ушбу мақолада Янги Ўзбекистонда маданиятшунослик ва маданий фаолият тизимидаги ислохотлар ва ўзгаришлар таҳлил қилинган. Кейинги йилларда маданиятшунослик илми бўйича тадқиқотлар сони кўпайгани, маданиятшунослик ва номоддий маданий мерос илмий-тадқиқот институтининг ташкил қилинганлиги ёритилган. Миллий маданиятни янада ривожлантиришнинг муҳим омилларидан бўлган асосий йўналишлар: моддий, номоддий маданий мерос, музейлар, театр, кино ва цирк, миллий мусиқа мактаби, миллий эстрада, миллий рақс, тасвирий ва амалий санъат, маданият ва истироҳат боғлари ҳамда маданият марказлари; илм-фан, таълим, кадрлар тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимидаги ўзгаришлар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: маданият, маданиятшунослик, маданий фаолият, маданият муассасаси, ислохот, қарор, таҳлил, талқин, тадқиқот, хулоса, тавсия.

ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ КУЛЬТУРОЛОГИИ И КУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье анализируются реформы и изменения в системе культурологии и культурной деятельности в Новом Узбекистане. Выделяется рост числа исследований в области культурологии в последние годы, создание Научно-исследовательского института культурологии и нематериального культурного наследия. Анализируются основные направления, являющиеся важными факторами дальнейшего развития национальной культуры: материальное и нематериальное культурное наследие, музеи; театр, кино и цирк; национальная музыкальная школа; национальная эстрада, национальный танец, изобразительное и прикладное искусство; парки культуры и отдыха и культурные центры; анализируются изменения в системе науки, образования, подготовки кадров и повышения квалификации.

Ключевые слова: культура, культурология, культурная деятельность, культурное учреждение, реформа, решение, анализ, интерпретация, исследование, заключение, рекомендация.

CHANGES IN THE SYSTEM OF CULTURAL SCIENCE AND CULTURAL ACTIVITY

Abstract. This article analyzes the reforms and changes in the system of cultural studies and cultural activities in New Uzbekistan. The increase in the number of studies in the science of cultural studies in recent years, the establishment of the Research Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage are highlighted. The main areas that are important factors in the further development of national culture are: tangible, intangible cultural heritage, museums; theater, cinema and circus; national music school; national pop, national dance, fine and applied arts; cultural and recreation parks and cultural centers; changes in the system of science, education, personnel training and advanced training are analyzed.

Keywords: culture, cultural studies, cultural activities, cultural institution, reform, decision, analysis, interpretation, research, conclusion, recommendation.

Кириш (Introduction)

Маданият илмий тадқиқот нуқтаи назаридан ниҳоятда мураккаб ва ғавқулдодда кийин соҳадир. Зеро унга ҳар бир халқ, миллатнинг чигал ва қарама-қаршиликларга бой тарихи давомида ҳар доим ҳам одилона, ҳаққоний муносабат, баҳо берилавермайди. Маданиятшунослик бошқа ижтимоий ва гуманитар фанлар тизимида ўз ўрнини топганлигига қарамай унинг илмий мақоми ҳақидаги баҳслар ҳануз давом этмоқда. Ҳатто Ғарбда ҳам “маданиятшунослик” атамаси тезда қабул қилинмасдан ижтимоий ва маданий антропология, социология, психология, лингвистика ва бошқа фанлар таркибида ўрганилиб келинди.

Мамлакатимизда ушбу атама мустақилликдан кейин мустаҳкам ўрин эгаллади ва ўқув дастурларидан олиб ташланган баъзи фанларнинг ўрнини эгаллади. Ўша вақтда маданиятшунослик ихтисосликлар номенклатурасига киритилди, олий ўқув юртларида ўқув фани сифатида ўрганила бошланди. Бироқ, шуни таъкидлаш жоизки маданиятшуносликнинг илмий ва таълимий фан сифатидаги шаклланиш жараёни ҳам тугалланмаган. Маданиятшунослик фанининг мазмуни ва таркиби бугунги кунда ҳали аниқ илмий чегарага эга эмас, бу предметни фан сифатида таърифлашга методологик ёндашувлар жуда кўп ва қарама-қаршидир. Бугунги кунда маданиятшуносликнинг ўз тадқиқот предмети йўқ, у бошқа илмий фанлар тарих, психология, социология, антропология, санъатшунослик ва бошқалар бўйича тарқоқ ҳолда мавжуд деган нуқтаи назар кенг тарқалган. Бироқ барча олимлар маданиятшуносликнинг предмети - маданият эканлигини таъкидлашмоқда.

Бизнинг асримизга келиб маданият инсон фаолиятининг ва ижтимоий тараққиётининг кўрсаткичига айланди. Файласуф ва маданиятшунос В. М. Розин ибораси билан айтганда, “Қанча йирик маданиятшунос кўп бўлса шунча назариялар, тушунчалар мавжуд”. [1]

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review) Мустақилликкача бу фанга эътибор кам эди. Асосан шўро маданияти назарияси ва амалиёти тарғиб қилинган. Байналминал маданият марказида ишлаб чиқилган концепция асосида ташвиқот қилинган. Бу вақтда ҳатто Республика маданиятшунослик илмий тадқиқот институти ҳам йўқ эди. Шу боис, миллий маданият масаласи ҳақида гап ҳам бўлиши мумкин эмас эди. 1991 йилдан сўнг барча олий таълим муассасаларининг 2-курс талабалари ўқув дастурига “Маданиятшунослик” фани киритилди ва ўқитила бошланди. Бироқ бу фаннинг назарияси ва амалиёти масаласи бўйича етарлича билим берадиган мутахассислар камчиликини ташкил қилган. Абдулла Қодирий номидаги Тошкент давлат маданият институтида бу борада катор ижобий ишлар амалга оширилди. Шундай бўлса-да, маданият ижтимоий ҳодиса сифатида фалсафа фани таркибида кўрилди ва бу фан бўйича тадқиқот олиб бориш масаласи Республикадаги фалсафа фани вакилларига олиб берилди. Шу боис, 17.00.07 – Маданият назарияси ва тарих ихтисослиги бўйича тадқиқотчиларнинг диссертациялари ҳимояга тавсия қилина бошланди. Жамиятда маданиятнинг фалсафий талқини, назарияси ҳамда тарихий жараёнлардаги ўрни масаласи бўйича бир неча тадқиқотчилар номзодлик диссертацияларини ҳимоя қилди.

Миллий маданиятни янада ривожлантиришнинг муҳим омилларидан бўлган асосий йўналишлар: моддий, номоддий маданий мерос, музейлар; театр, кино ва цирк; миллий мусиқа мактаби; миллий эстрада, миллий рақс, тасвирий ва амалий санъат; маданият ва истироҳат боғлари ҳамда маданият марказлари; илм-фан, таълим, кадрлар тайёрлаш ва малакасини ошириш, шунингдек, маданий туризмга алоҳида эътибор қаратилиши белгилаб қўйилди [2].

Ҳозирги даврга келиб, Қорақалпоғистон Республикаси Маданият вазирлиги, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маданият бошқармалари, Республика маданият муассасалари фаолиятини

ташкил этиш илмий-методик маркази, 39 та профессионал театр, 450 дан ортиқ турли йўналишдаги музейлар, 826 та маданият маркази, 70 дан ортиқ халқ театрлари, 100 дан ортиқ намунали ва халқ фольклор жамоалари, 152 та ашула ва рақс халқ ансамбли, 23 та вокал-чолғу эстрада халқ ансамбли, 3 мингдан ортиқ бадиий ҳаваскорлик тўғараклари, 312 та болалар мусиқа ва санъат мактаби, 225 та маданият ва истироҳат боғи, 200 га яқин туман (шаҳар) маданият бўлимлари ҳамда маданият ва санъат муассасалари иш фаолиятини олиб бормокда[3].

Тадқиқот методологияси (Research Methodology)

Интердисциплинар ёндашув - тадқиқот фақат ижтимоий фанлар доирасидагина эмас, балки социология, тарих, иктисодиёт ва демография фанлари билан узвий боғлиқ ҳолда олиб борилди. Бу ёндашув мавзуни кўп қиррали, чуқур ва замонавий илмий талабларга мос ҳолда таҳлил қилиш имконини берди.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results)

Кейинги йилларда миллий маданият тараққиёти борасида кўпгина ислохотлар олиб борилмокда. Айниқса Ўзбекистон Республикасининг “Маданий фаолият ва маданият ташкилотлари тўғрисида”ги қонун қабул қилиниши, 15 апрел – маданият ва санъат ходимлари куни деб белгиланиши бу соҳа ривожига муҳим аҳамиятга эга.

Шу билан бирга, 2024 йил миллий ва умуминсоний маданиятни тадқиқ қилиш ва тарғиб қилиш борасида махсус илмий марказ – Маданиятшунослик ва номоддий маданий меросни тадқиқ қилиш илмий-тадқиқот институти ташкил қилинди. Маданиятшунослик ва номоддий маданий мерос илмий тадқиқот институти Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги ҳузуридаги ваколатли орган ҳисобланади. Институт Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 29 июндаги 368-сонли Қарори асосида қайта ташкил этилди. Аввал бу институт Республика маданият муассасалари фаолиятини ташкил этиш илмий-методик маркази деб номланган[4]. Институтнинг фаолият турларига номоддий маданий меросни ҳар томонлама муҳофаза қилиш, илмий ўрганиш, сақлаш ва тарғиб қилиш масаласи алоҳида белгиланган. Шу боис “миллий анъаналаримизни асраб-авайлаш ва бойитиш мақсадида мақом, бахшичилик ва аския санъати марказлари ҳам ташкил этилди”[5].

2019 йилда Термиз шаҳрида ташкил этилган Республика бахшичилик санъати маркази ходимлари томонидан Болалар мусиқа ва санъат мактаблари ҳамда Маданият марказларида фаолият юритаётган “Бахшичилик” синфлари ва тўғаракларида фойдаланиш учун “Бахшичилик ўқитиш методикаси” (Бахшичилик мактабларининг 1–5 синф ўқувчиларига мўлжалланган), “Ўзбек бахшичилик санъати тўғрисида маълумотлар”, “Ўзбекистон бахшилари” китоб албомининг II- қисми, “Бахшичилик санъати дарғалари” номли деворий кўرғазмали суратлар жамланмаси тайёрланди[6]. Шунингдек бахшичилик синфхонасини жиҳозлаш бўйича методик тавсиялар Маданият муассасаларига тақдим этилди. Ёшларда бахшичилик санъати ҳақида илк тасаввурни уйғотиш мақсадида мактабгача таълим муассасалари ҳамда умумий ўрта таълим мактабларида бахшичилик тўғаракларини ташкил этиш юзасидан тавсиялар ишлаб чиқилди.

Аския санъатини янада такомиллаштиришда илм-фан, таълим-тарбия тизимини жорий қилишда шунингдек давлатимиз раҳбари илгари сурган бешта муҳим ташаббуснинг биринчи йўналиши бўйича ёшларни маданият марказлари ва санъат муассасаларига кенг жалб этишда ёшларга оид давлат сиёсат ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.07.2023

йилдаги ПҚ-222-сонли “Республикада миллий аския ва қизиқчилик санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори муҳим омил бўлиб хизмат қилади[7].

Ёшлар маънавиятини ривожлантиришда театр санъатининг ўрни катта. “Ҳозирги кунда мамлакатимизда 48 та театр фаолият кўрсатмоқда. Ҳар йили 40 та янги спектаклга давлат буюртмаси берилмоқда. Бунинг учун 2023 йилда 15 миллиард сўм ажратилди. Театр ва кино драматургиясини ривожлантириш мақсадида республика “Нигоҳ” ижодий семинари ўтказилди”[8]. Ҳозирги статистик маълумотларга кўра, Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси 2020 йилда театрларда жами 5 462 спектакл ташкил этилганлигини, томошабинлар сони 1 079,4 минг кишини ташкил қилганлигини билдирган[9].

Шу билан бирга, 2025 йил бошида республикада фаолият қилаётган театрлар сони 48 та экани маълум қилинган. Бундан шу хулоса чиқадики - инфратузилма мавжуд бўлса-да, мазмун ва шакл жиҳатидан салоҳияти юқори бўлган ижодий маҳсулотлар билан томошабин эҳтиёжини тўлиқ қондиришда айрим муаммолар мавжуд. Шунингдек, “театрларимизда ижодий репертуарини ғоявий-бадий жиҳатдан юқори савияли асарлар билан бойитишга кўмаклашишга эътибор қаратилади. Чунки айни пайтда саҳналаштирилаётган асарларда бугунги куннинг нафаси, одамларни ўйлантираётган жиддий ижтимоий муаммолар етарли даражада аксини топмаётганлигидан кўз юмиб бўлмайди”[10]. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 30 мартдаги “Маданият марказлари фаолиятига оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 264-сон қарори билан Маданият вазирлиги тизимидаги маданият марказлари фаолиятини тартибга солувчи ҳужжатлар қабул қилинган. Давлат муассасаси сифатида ташкил қилинган, аҳолининг маданий эҳтиёжларини тадқиқ қилиш, шу билан бирга, маданий-маърифий ва кўнгилочар хизматлар кўрсатиш бўйича фаолиятини амалга оширувчи, бадий ижод, амалий санъат ва ҳаваскорлик билан шуғулланувчи юридик шахс маданият марказидир[11].

Маданият марказлари жамиятда маданий-маърифий ва ижтимоий-ахлоқий тарбиянинг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Уларнинг фаолияти аҳоли орасида миллий қадриятларни тарғиб қилиш, халқ ижодий салоҳиятини ривожлантириш ҳамда маънавий-маърифий муҳитни яхшилашга қаратилган. Шу боис маданият марказлари сони ва уларнинг ҳудудий тақсимоли мамлакатнинг маданий инфратузилмасини баҳолашда асосий индикатор саналади.

Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations) 2016-2023 йиллар давомида Ўзбекистон Республикасида маданият марказлари сонидан умумий камайиш кузатилди. 2016 йили республика бўйича 887 та марказ фаолият юритган бўлса, 2023 йилга келиб бу кўрсаткич 836 тага тушиб, тахминан 5,7% камайган. Бундай пасайиш 2019-2021 йилларда алоҳида сезиларли бўлиб, бу даврда марказлар сони 798 тагача камайди. Бу ҳолатнинг сабаблари сифатида иқтисодий қийинчиликлар, маданият соҳасига бўлган эътиборнинг пасайиши ёки аҳоли талабининг камайиши каби омиллар кўрсатилиши мумкин. Бироқ, 2022 ва 2023 йилларда соҳа тикланишга киришиб, маданият марказлари сони қайтадан ошиб борди (824 ва 836 та). Бу давлат томонидан маданият соҳасини ривожлантиришга қаратилган сиёсатдаги ижобий ўзгаришларнинг натижаси сифатида баҳоланади. Худудлар кесимида таҳлил қилинганда, баъзи вилоятларда марказлар сони сезиларли даражада камайган (масалан, Самарқандда 95 дан 80 тага, Қашқадарёда 74 дан 60 тага). Бу камайишлар инфратузилма етишмовчилиги ёки аҳоли миграцияси билан боғлиқ бўлиши мумкин. Шу билан бирга, Қорақалпоғистон Республикаси ва Навоий, Сирдарё каби худудларда марказлар сони барқарор ёки озгина ошиб борган[12].

Ўзбекистонда маданият марказлари фаолиятининг асосий вазифаси халқнинг миллий урф-одатлар, анъанавий санъат ва ҳунармандчиликка асосланган маданий меросини асраб-

авайлаш ва кенг тарғиб қилишдан иборатдир. Шу билан бирга, улар ёшлар ва кенг жамоатчилик ўртасида маънавий-маърифий тарбияни кучайтириш, ижодий имкониятларни ривожлантириш ва маданий тадбирларни ташкил этишга ҳам масъулдир.

Хуллас, мустақилликнинг дастлабки даврида маданият муассасаларида соҳани ривожлантириш анча қийин кечганлигини кузатиш мумкин. Айниқса миллий репертуарлар танқислиги, ўзбек тилида иш юритилмагани, малакали мутахассислар етишмаслиги, тарихийлик ва этномаданий масалаларни маданият муассасалари билан уйғунлаштириш борасидаги муаммолар юзага чиққан. Натижада эски сценарий, репертуарларни янги даврга мослаштиришга уриниш ҳолатлари сезилган. Кўпроқ театр, маданият муассасаларида таржима ва маҳаллий этнофолклорга оид асарлар намоиш қилинган.

Янги Ўзбекистон шароитида маданиятшунослик ва маданият муассасалари фаолиятини илмий тарзда ўрганиш Маданиятшунослик ва номоддий маданий мерос илмий тадқиқот институтининг асосий вазифаларидан бири сифатида белгиланди. Шунингдек, маданиятшунослик соҳасида тадқиқотлар сони икки барабарга ошди. Афсуски, бу институт номоддий маданий мерос билан боғлиқ масалаларга кўпроқ эътибор қаратиш билан кифояланиб, республикада фаолият олиб бораётган мингдан ортиқ маданият муассасаларини фаолиятини илмий тарзда тадқиқ қилинмай қоляпти. Маданият муассасаларининг ташкилий тузилмаси, бошқарув тизими замонавий трансформацион жараёнлар билан бойитиб борилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

- [1] P. S. Gurevich, *Kulturologiya*. Moscow, Russia, 2000, p. 91.
- [2] S. Rixsiev, “Milliy madaniyat rivoji – tamaddun shamchirog‘i,” *Madaniyat gazetasi*, no. 2, Jan. 10, 2019.
- [3] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, *Joriy hujjatlar*. Tashkent, Uzbekistan, 2022, p. 34.
- [4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish to‘g‘risida,” Qaror № 368. [Online]. Available: <https://lex.uz/ru/pdfs/6990564>
- [5] Sh. M. Mirziyoyev, *Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston*. Tashkent, Uzbekistan: O‘zbekiston, 2024, p. 245.
- [6] “Baxshichilik dunyo bilan boylashadi,” *Yuz.uz*. [Online]. Available: <https://yuz.uz/news/baxshichilik-dunyo-bilan-boylashadi>
- [7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida,” Qaror PQ-222, Jul. 11, 2023. [Online]. Available: <https://www.lex.uz/uz/docs/6531520>
- [8] Sh. M. Mirziyoyev, *Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston*. Tashkent, Uzbekistan: O‘zbekiston, 2024, p. 245.
- [9] O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi, *Ma’lumotlar*, ilova 606, p. 6.
- [10] Sh. M. Mirziyoyev, *Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston*. Tashkent, Uzbekistan: O‘zbekiston, 2024, p. 246.

[11] “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, *Xalq so‘zi*, Jan. 21, 2021.

[12] O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi, *Ma‘lumotlar*, ilova 606, p. 16.

References :

[1] P. S. Gurevich, *Cultural Studies*. Moscow, Russia, 2000, p. 91.

[2] S. Rixsueva, “The development of national culture as a beacon of civilization,” *Madaniyat Newspaper*, no. 2, Jan. 10, 2019.

[3] Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan, *Current Official Documents*. Tashkent, Uzbekistan, 2022, p. 34.

[4] Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, “On the establishment of the Research Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage under the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan,” Resolution No. 368. [Online]. Available: <https://lex.uz/ru/pdfs/6990564>

[5] Sh. M. Mirziyoyev, *The Modern Era and New Uzbekistan*. Tashkent, Uzbekistan: Uzbekistan Publishing House, 2024, p. 245.

[6] “Bakhshi art connects with the world,” *Yuz.uz*. [Online]. Available: <https://yuz.uz/news/baxshichilik-dunyo-bilan-boylashadi>

[7] President of the Republic of Uzbekistan, “On measures to further develop the national Askiya and comic performing arts in the Republic,” Resolution PQ-222, July 11, 2023. [Online]. Available: <https://www.lex.uz/uz/docs/6531520>

[8] Sh. M. Mirziyoyev, *The Modern Era and New Uzbekistan*. Tashkent, Uzbekistan: Uzbekistan Publishing House, 2024, p. 245.

[9] Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, *Statistical Data*, Appendix 606, p. 6.

[10] Sh. M. Mirziyoyev, *The Modern Era and New Uzbekistan*. Tashkent, Uzbekistan: Uzbekistan Publishing House, 2024, p. 246.

[11] Law of the Republic of Uzbekistan “On Cultural Activities and Cultural Institutions,” *Xalq So‘zi*, Jan. 21, 2021.

[12] Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, *Statistical Data*, Appendix 606, p. 16.

M.XUJAMOV

**Fan va texnologiyalar universiteti
«Ijtimoiy fanlar» kafedrası dotsenti**

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 14th February 2026

O'LKASHUNOSLIKDA SO'X VODIYSI MUQADDAS MANZILLARINI O'RGANISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada Farg'ona viloyatining So'x tumani hududida joylashgan ziyoratgohlar va qadamjolar tarixini o'lkashunoslik fani nuqtai nazaridan o'rganish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur masalaning ijtimoiy ahamiyati ham ko'rsatib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: Farg'ona vodiysi, Markaziy Osiyo madaniyati, So'x, Buyuk Ipak yo'li, Konibodom, ziyoratgohi, Ravon, "Yozuvli tosh", qoyatosh yozuvlari.

ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ СВЯЩЕННЫХ МЕСТ ДОЛИНЫ СОХ В РАМКАХ КРАЕВЕДЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация. В статье освещаются, с точки зрения краеведения, вопросы изучения истории святилище и памятников, которые расположен в Сохском районе Ферганской области, также раскрыта социальное значение данного вопроса.

Ключевые слова: Ферганская долина, культура народов Центральной Азии, Сох, Великий шёлковый путь, Канибадам, святилище, Раван, «Письменный камень», наскальные надписи.

ISSUES IN THE STUDY OF SACRED SITES OF THE SOKH VALLEY WITHIN THE FRAMEWORK OF LOCAL HISTORY RESEARCH

Abstract. The article highlights, from the perspective of local history studies, the issues of researching the history of sacred sites and monuments located in the Sokh District of the Fergana Region. It also reveals the social significance of this issue.

Keywords: Fergana Valley, culture of the peoples of Central Asia, Sokh, the Great Silk Road, Kanibadam, sacred site, Ravon, "Inscribed Stone," rock inscriptions.

Kirish (Introduction)

Farg'ona viloyatining janubida, So'x daryosi vodiysida joylashgan So'x tumani hududidagi qadimiy arxeologik yodgorlik va undagi qadimgi topilmalar ko'p yillardan buyon tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda. Chunki miloddan avvalgi ikkinchi mingyillikka oid sig'inish bilan bog'liq "Ikki boshli ilon" tosh tumori va So'x yaqinidagi

Yangiariqsoyning qoyatosh rasmlari hamda Quvi, Xoja Orif, Hushyor manzilgohlaridan topilgan milodning II –VII asrlariga doir noyob sopol idishlar nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki Markaziy Osiyo xalqlari turmush madaniyatiningg uzoq o‘tmishidan darak beruvchi nodir moddiy ashyolar sifatida tarixiy va ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

So‘x tarixi, geografiyasi, etnografiyasi haqida qator tadqiqotlar yaratilgan. [1] So‘x tumanidagi mavjud muqaddas ziyoratgohlar Markaziy Osiyodagi islom dini tarixini o‘rganishda ham muhim tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois So‘x tumanidagi muqaddas ziyoratgohlar to‘g‘risidagi tadqiqotlar xalqimiz an‘anaviy madaniyatining tarixiy asoslari, taraqqiyot yo‘llari hamda tendensiyalarini oydinlashtirish bilan birgalikda aholining turmush tarzini yaqindan yoritishga ham ko‘mak beradi. Keyingi yillarda tarixshunoslik fanida So‘x aholisining an‘anaviy madaniyati, urf-odatlarini hamda marosimlarini o‘rganishga e‘tibor kuchayganligining sababi ham shunda. Hozirga kelib So‘x tumanida Hazrat Ali, Xo‘ja Orif Xo‘jayi Muallimi Sir, Xo‘ja Murod, Mozor Zanjirkushod, Sangi Navishta, Mahmud G‘aznaviy, Shayxi Kulala, Xo‘jayi Kalon, Xo‘jayi Nur, Xo‘jayi xor, Xo‘ja Abulqosim Mozori Surx, Sariq mozor singari muqaddas joylar aholining doimiy ziyoratgohlariga aylangan. Quyida mazkur ziyoratgohlardan ayrimlari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Asosiy tahlil va natijalar (Results and analyses)

O‘rta asrlarda So‘x G‘arbni Sharq bilan bog‘lovchi Buyuk Ipak yo‘lining Farg‘ona vodiysining janubiy yo‘lida joylashgan bo‘lib, bu yo‘l Konibodomdan keyin manzil So‘x hududiga va undan keyin Xaydarkon orqali Qadamjoy va nihoyat Marg‘ilonga olib borgan. Shu sababdan So‘x to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumotlar X asrda yashab o‘tgan arab geograflari Al-Muqaddasiy, Istaxriy, Ibn Xavqallarning asrlarida qayd etilgan. Masalan, Istaxriy “So‘xdan Rishtonga bir kunlik yo‘l, Rishtondan Zenderamshga ham bir kunlik yo‘l, Zenderamshdan Quboga ham bir kunlik yo‘l” deb yozsa, Ibn Xavqal o‘zining “Kitob masolik va mamolik” nomli asarida “Suj(x) – tog‘ tomonida joylashgan shahar, uning atroflarida 60 ta qishloq bor. Bu alohida (joylashgan), tog‘li tumandir” degan ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi. [2]

Mirzo Bobur “Boburnoma”da So‘x to‘g‘risida qiziqarli ma‘lumotlar beribgina qolmay, so‘xliklarga bo‘lgan yuksak ehtiromini ham bayon etgan: “Shanba kuni oyning oltisida to‘y bo‘ldi. Qizilbosh va o‘zbek va hindularning elchilari bu to‘yda bor edilar... Yana Andijondin va beviloyat va bevatan yurgan yerlarimiz va So‘x va Hushyordin kelganlarga chakmanlar va qumosh xalatlar va oltundin va kumushdin, raxtdin, jinsdin in‘omlar bo‘ldi”. [3]

So‘x va hushyorliklarni aynan Mirzo Boburning Farg‘onadan olis Hindistonda 1528 yili bergan ziyofatida ishtirok etib qimmatbaho sovg‘a-salomlar olishlaridan ma‘lum bo‘ladiki, buyuk sarkardaning faoliyatida So‘x aholisining muayyan o‘rni bo‘lgan. Ya‘ni Bobur askarlari ichida so‘xlik jangchilar katta mahorat egalari sifatida ajralib turgan. Mirzo Boburni So‘x atroflarida hayot kechirganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotni 1871 yil Qo‘qon xonligiga tashrif buyurgan rus olimi A.P.Fedchenko ham keltirib o‘tgan: “Men Qo‘qonda bo‘lgan vaqtim So‘xda xon tomonidan qo‘rg‘on qurilganligini aytishdi. Shu qo‘rg‘onlardan biri haqida eshitganim shu bo‘ldiki, qo‘rg‘on odam chiqib bo‘lmas, baland qoya ustida bino qilingan ekan... Shavkatli Bobur ham toju taxtdan mahrum bo‘lgan kezlar So‘x tog‘i va Hushyor hududida bir oyga yaqin yashirilib yurgan ekan”. [4] Qo‘qon xonligi davrida So‘x Asaka, Koson, Baliqchi, O‘sh, Marg‘ilon singari olti sarkorlikning biri sifatida qayd etilgan. Bobur So‘x eli va tabiati haqida juda qiziqarli fikrlarni yozib qoldirgan. “Eli tamom sart va forsigo‘ydur. Isfaraning bir shar‘isida janub sori pushtalarning orasida bir parcha tosh tushubdur, «Sangi oyina» derlar, uzunlug‘i taxminan o‘n qari bo‘lg‘ay, balandlig‘i ba‘zi yeri kishi bo‘yi, pastlig‘i ba‘zi yeri kishining belicha bo‘lg‘ay, oyinadek har nima mun‘akis bo‘lur. Isfara viloyati to‘rt bo‘luk ko‘hpoyadur:

bir Isfara, yana bir Voruhyana bir So‘h, yana bir Xushyor. Muhammad Shayboniyxon Sulton Mahmudxon bila Olachaxong‘a shikast berib, Toshkand va Shohruxiyani olg‘on mahalda, ushbu So‘x bila Hushyor ko‘hpoyalarig‘a kelib, bir yilg‘a yovuq tanqisliq bila o‘tkarib, Kobul azimati qildim.[5]

2005 yilda Yaponiyaning “Toyota” fondining homiyligida “Markaziy Osiyodagi islomiy muqaddas joylarni o‘rganish” nomidagi ilmiy loyihasi bo‘yicha So‘x tumanida olib borilgan tadqiqotlar chog‘ida So‘xdagi XIX va XX asr boshlariga doir o‘ndan ortiq me‘moriy yodgorliklar sobiq sovet davrida buzib tashlanganligi ma‘lum bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari tarix, etnografiya va dinshunoslik jihatdan bir muncha o‘rganildi. Farg‘ona viloyatida joylashgan muqaddas manzillar tarixi haqidagi tadqiqotlarda So‘x vodiysidagi joylar tarixiga tegishli ma‘lumotlar ham bor.[6] Ammo o‘lkashunoslik obyekti sifatida alohida tadqiqotlar hanuz yaratilgani yo‘q. Aksar hollarda umumiy ma‘lumotlar berish bilan cheklanilganiga guvoh bo‘lamiz.

So‘xdagi qadimiy ziyoratgohlardan biri “Sangi oyina” ziyoratgohidir. Ziyoratgoh So‘x tumanining Tul qishlog‘ida joylashgan. Bu ziyoratgoh tarixi haqida Boburiylar va Qo‘qon xonligi bilan bog‘liq ikki muhim afsona mavjud. Bu afsonalar davr tarixchilari e‘tiborini tortgan bo‘lib, unga ma‘lum ma‘noda tarixiy fakt sifatida qaralgan. Bular “Sangi oyina” va “Oltin beshik” afsonalaridir. “Sangi oyina” haqidagi afsona Bobur Mirzo hayoti bilan bog‘liq bo‘lib, bu afsona so‘xliklar orasida saqlanib qolgan. Afsonada aytilishicha, shoh Bobur Farg‘onada Shayboniyxondan yengilgach, birmuncha vaqt toju taxtdan mahrum bo‘lib, So‘x tog‘larida kun kechirgan. Bobur so‘xliklar bilan yashayotgan vaqt Sangi Oyina, ya‘ni Oyna tosh deb ataluvchi toshga duch keladi. Bu tosh kelajakdan bashorat beruvchi tosh bo‘lganligi uchun Bobur ham o‘zining kelajagidan xabar topgan. Unda yana toju taxtga umid uyg‘ongach, qo‘shin to‘plab, Qobulga yurish qilgan va u yerdan so‘ng Hindistonni zabt etadi. [7]

Mirzo Bobur bilan bog‘liq “Sangi oyina” afsonasi haqiqatga yaqin turadi. Aytishlaricha, Mirzo Bobur Shayboniyxon bilan bo‘lgan janglarning birida mag‘lubiyatga uchragach, hamma narsadan umidini uzib, toju taxt havasidan ham voz kechib, So‘x qishlog‘i atroflariga kelib yashay boshlabdi. Mirzo Bobur bu yerning ajib manzaralaridan, musaffo havosidan va jannatmonand xislatlaridan hayratga tushib, umrining qolgan qismini shu g‘aroyib maskanda o‘tkazishga ahd qilibdi. O‘sha vaqtlarda So‘x qishlog‘i atrofida Hushyor, Tul, Vorux singari qishloqlar bo‘lib, bu yerning odamlari juda ham mehmondo‘st, tog‘liklarga xos saxiy, odamshavanda bo‘lish bilan birga o‘ta jasur va do‘stu dushmani bir ko‘rishda ajrata oladigan fahm-farosatli ziyrak kishilar ekan. Qolaversa, qadimgi karvon yo‘lida joylashgan bu qishloq odamlari yovlarga ro‘yxush bermay va ahil yashab kelganliklari sababli bu joyni “Hushyor” deb atashgan, degan talqinlar ham bor. [8]

Kunlarning birida hushyorlik ovchilar tog‘da yirtqich hayvonlar yashaydigan g‘or yaqinida soch-soqoli o‘sib ketgan, darveshnamo kiyimda yurgan notanish kimsaga duch kelganliklarini hamqishloqlariga so‘zlab berishibdi. Qishloq oqsoqoli bu so‘zlarni diqqat bilan tinglab, g‘or tomon yo‘l olibdi. Biroq notanish kimsa oqsoqolni ko‘rishi bilan g‘orga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. Oqsoqoldan berkinishga uringan kishi aslida Mirzo Bobur bo‘lib, u oqsoqolni Shayboniyxon odamlaridan biri bo‘lsa kerak deb gumon qilgan ekan. Ertasi kuni hushyorlik nuroniy qo‘lida non va boshqa oziq-ovqat bilan yana g‘orga jo‘nabdi. Bu safar u notanish kimsaga ko‘zi tushishi bilan darhol qo‘lidagi nonni ko‘rsatibdi va o‘zini bu yerga yomon niyatda kelmaganini imo-ishoralar bilan tushuntirmoqchi bo‘libdi. Ammo bu gal ham haligi kishi biron-bir so‘z aytmay g‘orga kirib ketibdi.

Uchinchi kun oqsoqol qanday bo‘lmasin g‘orni o‘ziga vatan qilib olgan kishi bilan tanishishga ahd qilibdi. O‘sha kunga kelib Mirzo Bobur ham uning oldiga kelayotgan qariya

dushman tarafidan emasligiga amin bo'libdi va nuroniya peshvoz chiqibdi. Ular tez orada til topishibdi va oqsoqol mehmonni o'z qishlog'iga taklif qilibdi. Oqsoqol tog'lik emasmi, qisqagina suhbat davomida darveshnamo kiyimdagi yigit aslida podshozodalardan ekanligiga, zamona zayli bilan bu tomonlarga bosh tortib kelganligini anglab yetibdi.

Bobur Mirzo shundan so'ng Hushyorda yashay boshlabdi. Qishloq ahli uning kelishidan g'oyat xursand bo'lishibdi. Hushyorliklarning yoshu qarisi Mirzo Bobur bilan nima topsa, shu narsani birga baham ko'ribdi. O'z navbatida Bobur ham tog'liklar ehtiromiga do'stona tarzda javob beribdi. Shu zaylda kunlar va oylar o'tibdi. Garchand Mirzo Bobur tabiatning so'lim go'shasida dunyo tashvishlaridan xoli bir tarzda umr kechiryotgan bo'lsa-da, ammo uning dili siyoh, qalbi doim iztirobda ekan. Axir Sohibqiron Amir Temurning avlodi bo'la turib, bobosidan meros toju taxtdan bir umrga ajralgan bo'lsa. Nahotki, bilagida kuchi, belida quvvati bo'la turib, saltanatni idora qilishdan mahrum bo'lsa? Shu singari savollar bora-bora yana uning siniq ko'nglini o'rtay boshlabdi. Oxir-oqibat uning fikru zikri yana saltanat to'g'risida bo'lib qolibdi. Toju taxt to'g'risidagi xayollar Bobur Mirzoning o'y-fikrini band qilib turgan kunlarning birida u xayrli bir tush ko'ribdi. Uning tushiga mashhur pirlardan biri kirib: "Mirzo, siz ko'p aziyat chekmang, taqdiringizdan sira qayg'urmang. Ilkingizdan ketgan saltanat yana o'zingizga qaytgusidir. Siz boy bergan toju taxt qayta o'zingizga nasib qilgusi. Siz yana zafar tojini kiyursiz. Agar so'zlarimga ishonch hosil qilmoq istagida bo'lsangiz, erta tongda buloq tomon boring. O'sha yerda pushtalar orasida "Sangi oyina" deb atalmish tosh bordur. Bu oddiy emas, balki sirli toshdir. Agar u toshga nazar soladigan bo'lsangiz, unda kelajagingiz bashorat bo'lg'usidir", deb duoga qo'l ochib, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Mirzo Bobur bu xayrli tushni ko'rsatgan Yaratganga hamdu sanolar aytib, ilonizi so'qmoq orqali "Sangi oyina"ni izlab, Tul qishlog'i tomon ketibdi. Bunga qadar Bobur Mirzo Sangi olinanining mo'jizakor xususiyati haqida qishloqning keksalaridan eshitgan bo'lsa-da, o'zining kelgusi taqdiri ana shu toshda yashirin ekanligidan mutlaq bexabar ekan. [9]

Sangi olinanining sirlaridan biri agar bemor kishi shu toshga kelib suykalsa, darddan forig' bo'lar ekan. Hatto hayvonlarning ham biron joyi shikast yesa, shu toshga ishqalanib tuzalar ekan. Shuning uchun ham so'xliklar uni "sirli tosh" deb atashgan. Toshning yana bir sirli tomoni shunda ekanki, unda faqat pok insonlarga o'z aksini ko'ra olgan. Bobur Mirzo ham Sangi oyina oldiga kelib, unga nazar solgan damda oyna toshda toju taxtda shohona liboslar bilan o'tirgan surati namoyon bo'libdi. Shundan so'ng Mirzo Bobur Tangriga behisob shukronalar aytib, ortga qaytibdi va shu zaylda u ko'p o'tmay Qobul sari ravona bo'lib, yana hukmdorlikni qo'lga kiritibdi.

Afsuski, bu afsonalarni ba'zi birovlar quruq uydirmadek qabul qiladi. Ammo, aytganlaridek, afsona har qanday dalildan ham tarixiyroqdir. Mirzo Bobur hayoti ham shunday afsonalarga boy bo'lib, «Boburnoma»da ularga aloqador dalillar chiqib qolishi ham mumkin.

Yana bir manzilgoh Shayxi Kulolon ziyoratgohi deyiladi. Ziyoratgoh So'x tumanining Qalacha qishlog'ida joylashgan. Ikkinchi nomi Shayxi Kulla. Rivoyatga ko'ra, ul zot shu yerdagi g'orda g'oyib bo'lgan. Avvalgi vaqtlarda u yerdan tovush eshilib turgan. Odamlar ko'ziga oq kiyimda navqiron holda ko'ringan. Yana biri "Sangi navishta" bo'lib, bu ziyorat joyi So'x tumanining Ravon qishlog'ida joylashgan. Mazmuni – "Yozuv bitilgan tosh". Avvalgi davrlarda yo'l yoqasida turgan qoyada yozuvlar bo'lgan. Shu sababdan joy tojikcha "Sangi navishta" nomini olgan. O'tgan asrning 50-yillarida qoyani portlatishgach, unda ishtirok etgan odamlar turli ko'ngilsizliklarga uchragan. Shundan so'ng qoya tepasiga ramziy yodgorlik o'rnatilgan. Aytishlaricha, shu yerga Abdulloh eshon ismli avliyo dafn etilgan. Qishloqqa suv kelmay turgan vaqt Abdulloh eshon ravon oqqin, deya suvga qarab duo o'qibdi. Shundan so'ng suv ravon oqa boshlabdi. Qishloq nomi shu tarzda Ravon deb atalgan ekan. Abdulloh eshon juma kuni

namozdan so'ng hammani qovun sayliga taklif qilibdi. Odamlar kelishsa, Abdulloh eshon vafot etgan emish. Shunda ular bizni qovun sayliga taklif etishdan maqsadi janozasida ishtirok etishimizni xohlagan ekan deyishibdi.

Sariqota mozori So'x tumani Tul qishlog'ida joylashgan. Sariq ota asli sahobalardan biri bo'lgan degan naql mavjud. Maqbarasi yaxshi saqlangan. Uni andijonlik Alixon eshon XIX asrda tiklagan degan ma'lumot bor. Odatda sariq kasalga chalinganlar ziyoratga kelishadi. Shuning uchun ziyoratgoh sariq kasalini tuzatuvchi ota degan ma'noda Sariqota nomi bilan mashhur bo'lgan. Respublikamizning ko'pgina ziyoratgohlari ma'lum kasallikni davolovchi avliyolar nomi bilan ataladi. Masalan, Toshkentda So'galliota, Parpiota kabi. Bu kabi ziyoratgohlar Shohimardon, Marg'ilon, O'sh kabi joylardagi ziyoratgohlar kabi xalq orasida mashhur bo'lmasa-da, Qo'qon xonligi davrida aholi ijtimoiy hayotida ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan. [10]

Xo'jayi Orif mozori So'x tumani Qala qishlog'ida joylashgan. Ikkinchi nomi Xo'jayi orif Mohi tobon. Mozorda ikkita sada daraxti bo'lgan. Ziyoratchilar oyning o'n beshinchi kunida ziyoratga kelgan. Bahor oyida bu yerda sumalak pishirilgan. Bu Buxorodagi Xoja Orif Revgariy nomi bilan bog'lik mozor bo'lib, Xoja Orif Revgariyning So'xlik muridining qabri bo'lishi mumkin. Chunki, odatda el orasida mashhur bo'lgan insonning shogirdlari o'z pining obro'siga suyanib, unga (masalan, Xojai Orifga) mansubligini aytish bilan kifoyalangan. Keyinchalik odamlar o'sha odamning asl ismi o'rniga pining nomini zikr qilishga o'rganib qolishgan.

Xo'jayi Qulfi Zanjirkushod mozori So'x tumani Hushyor qishlog'ida joylashgan. Mozor 2002 yili qayta ta'mirlangan. Xo'jayi Qulfi zanjirkushod bir kishining emas, to'rt aka-ukaga tegishli degan qarashlar bor. Ular Samarqandning Dahbed qishlog'idan kelib, bu yerda istiqomat qilgan deyiladi. Dahbedda Maxdumi A'zam Jaloliddin Ahmad Kosoniy yashab o'tgan. Uning muridlari va avlodlari esa butun Osiyo qit'asiga tarqalib ketgan. Ularning ba'zilar So'xdek bahavo, sersuv va aziz joylarni manzil tutgan bo'lishlari kishida hech qanday shubha qoldirmaydi.

Xo'jayi Kabudpo'sh ziyoratgohi So'x tumani Edan qishlog'ida joylashgan. Ko'k yo'talga (o'pka yo'lining qattiq shamollashi bo'lib, bemorning tili tol bargidek ko'karib ketadi) chalinganlar ziyoratga keladi. Aytishlaricha, bemor yetti kulchani mozorga tashlab, orqasiga qaramay uyiga qaytishi kerak. Shunda ko'kyo'taldan shifo topadi. "Orqasiga qaramay uyiga qaytishi kerak" degan irimda bir necha sabablar bor. Go'yo ziyoratchi orqasiga qarasa, qabr egasi uni yana o'z huzuriga chaqirib qoladi, natijada kasalning tuzalishi uzoqqa cho'zilib ketadi. Xalqda "Orqasiga qaramay qochdi" degan ibora ham bejiz paydo bo'lmagan. Shu bilan birga "Xo'jayi Kabudpo'sh" iborasi o'zbekchada Xoja ko'kto'nli ota degan ma'noni bildiradi va Xoja Ahmad Yassaviy ajdodlari odatda shunday sifat bilan tilga olingan. Ziyoratgohlar tarixi joy nomlari etimologiyasini o'rganishda ham ma'lum bir vazifalarni bajarib keladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion / Recommendations).

- So'x vodiysi ziyoratgohlari tarixini o'rganish hali davom ettirilishi lozim.
- "O'lkashunoslik" fanida uchun Farg'ona vodiysi tarixiga tegishli materiallar uchun slaydlar, xaritalar tayyorlash mumkin.
- So'xda ham ziyorat turizmini rivojlantirish katta imkoniyatlarga ega. Farg'ona viloyatidan So'xga Qirg'iziston hududidan o'tib boriladi. Siyosiy jihatdan anklav hisoblanishiga qaramay, bu hududga sayohatchilarni jalb etishni to'xtatmaslik lozim.
- So'x ziyoratgohlari haqidagi tarixiy materiallardan o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

- [1] Bu haqda qarang: A.A.Anarbayev, So‘x buyuk ipak yo‘lida. –T., 2013; Ф.М.Джураев, Сох – жемчужина Ферганской долины (на рус. и англ. яз.). –Бишкек, “Олтин тамга”, 2008; M.Isomiddinov, So‘x vodiysining ibtidoiy davr tarixidan lavhalar. “Mustaqilliq yilnomalarida So‘x: o‘tmish, bugungi va kelajagi” mavzusida konferensiya materiallari. Toshkent, 2013; К.А.Крахмаль, Древний каменный век Ферганы. Автореферат, Самарканд. 2004; R.Aslonzoda, M.Sufiyev, “So‘xnoma”. – Farg‘ona, 2020.
- [2]. Bobur. Boburnoma. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2018. 57-bet.
- [3]. Eraliyev B, Ostonaqulov I., Abdulahatov N. O‘zbekiston ziyoratgog‘lari va qadamjolari. 1-kitob. Farg‘ona viloyati. «Turon Zamin ziyo» nashriyoti. T.: 2014.
- [4]. Bobur. Boburnoma. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2018. 7-bet.
- [5]. Eraliyev B, Ostonaqulov I., Abdulahatov N. O‘zbekiston ziyoratgog‘lari va qadamjolari. 1-kitob. Farg‘ona viloyati. «Turon Zamin ziyo» nashriyoti. T.: 2014.
- [6]. Eraliyev B, Ostonaqulov I., Abdulahatov N. O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. 1-kitob. Farg‘ona viloyati. «Turon Zamin ziyo» nashriyoti. T.: 2014.
- [7]. Alimuhamedov A. “Muqaddas” va “qadamjoylar”ning paydo bo‘lishi va zararlari. – T.,1966.
- [8]. H.N.Bobobekov, So‘x Qo‘qon xonligi tarkibida. –Toshkent, “Turon tarixi”. 2017.
- [9]. Eraliyev B, Ostonaqulov I., Abdulahatov N. O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. 1-kitob. Farg‘ona viloyati. «Turon Zamin ziyo» nashriyoti. T.: 2014.
- [10]. Jo‘rayev F. So‘x uchinchi Renessans ostonasida. –T., 2022. 10 b

Ergashova Yasmina

Termiz davlat universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Xolnazarov Umid Erkinovich

Termiz davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 14th February 2026

NEOLOGIZMLARNI ANIQLASH VA TASNIFLASHDA KORPUSGA ASOSLANGAN YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada neologizmlarning korpus tilshunosligida o'rganilishi, yangi so'zlarni aniqlashning raqamlashgan tizimlari, jahon va o'zbek tilshunosligida foydalanilayotgan semantik va struktur tasniflar ochiq elektron bazalar misolida tahlil qilingan. O'zbek tilida yangi joriy etilayotgan so'zlar tabiatiga mos uch muhim xususiyatiga (hosil bo'lish manbayiga, tuzilishiga, sohaviy qo'llanilishiga) ko'ra klassifikatsiyalash namunasi sxema asosida ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: leksik sath, neologizm, korpuslashtirish, dinamik korpus, ko'p tilli platforma, psixologik faktor, klassifikatsiya, yangilik bo'yog'i, lisoniy manzara.

КОРПУСНЫЕ ПОДХОДЫ К ВЫЯВЛЕНИЮ И КЛАССИФИКАЦИИ НЕОЛОГИЗМОВ

Аннотация. В данной статье анализируются исследования неологизмов в корпусной лингвистике, оцифрованные системы идентификации новых слов, а также семантические и структурные классификации, используемые в мировой и узбекской лингвистике с помощью открытых электронных баз данных. Представлена схема классификации, основанная на трёх важных характеристиках слов, входящих в узбекский язык (источник образования, структура и область применения), которые соответствуют природе новых слов.

Ключевые слова: лексический уровень, неологизм, корпусная обработка, динамический корпус, многоязычная платформа, психологический фактор, классификация, эффект новизны, языковой ландшафт.

CORPUS-BASED APPROACHES TO IDENTIFYING AND CLASSIFYING NEOLOGISMS

Annotation. This article analyzes neologism research in corpus linguistics, digitalized systems for identifying new words, and semantic and structural classifications used in global and Uzbek linguistics using open electronic databases. A classification scheme is presented based on three important characteristics of words in the Uzbek language (source of formation, structure, and domain of application), which correspond to the nature of new words.

Key words: lexical level, neologism, corpus processing, dynamic corpus, multilingual platform, psychological factor, classification, novelty effect, language landscape.

KIRISH (INTRODUCTION)

Til dinamik tizim va bu o'zgaruvchanlik leksik sathda yaqqol namoyon bo'ladi. Tildagi neologizm (fransuzcha "neo" – yangi, grekcha "logos" – so'z) hodisasi bu jarayonni amalga oshiruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar, globallashtirish hamda fan-texnika rivoji yangi so'zlar paydo bo'lish va ommalash jarayonini yaqin o'n yillikda yanada tezlashtirib yubordi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), mashina tarjimai, korpus lingvistikasi kabi zamonaviy sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlar shiddat bilan o'sib borayotgan leksik jarayonni o'z vaqtida tahlil va tasnif qilish, til foydalanuvchilari uchun standartlashtirishni talab qilmoqda. Shu sababdan bugungi kunda jahon miqyosida neologizmlar tasnifi va korpuslashtirilishi borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (MATERIALS AND METHODS)

Jumladan, Ochilbek Yulbarsov neologizmlarni avtomatik aniqlashga bo'lgan dastlabki yirik urinishlardan biri sifatida 2015-2018-yillarda "COMUE Sorbonne Paris Cité" tomonidan tashkil qilingan "Neoveille" nomli loyihasini keltirib o'tgan [1-56]. Emmanuel Kartier o'z tadqiqotlarida loyihadan ko'zlangan maqsad sifatida quyidagilarni e'tirof etadi [2-25]:


a) yetti tilda (fransuz, yunon, polyak, chex, Braziliya portugalchasi, xitoy hamda rus tillari) juda katta hajmdagi zamonaviy, dinamik korpuslar asosida neologizmlarni aniqlash va kuzatishga mo'ljallangan ko'p tilli platformani yaratish;

b) formal neologizmlarni avtomatik aniqlash uchun algoritmlar va dasturlarni ishlab chiqish;

c) ushbu platformadan semantik innovatsiya tushunchasini o'rganish va yangi qo'llanishlarni aniqlashning yangi protseduralarini taklif etish uchun foydalanish;

d) ushbu platformadan turli tillardagi o'zlashmalarni tadqiq etish uchun foydalanish.

2017-yildan loyihaga yana to'rtta til: nemis, ispan, italyan va niderland tillari qo'shildi. Platforma yarimavtomatik tizimda ishlaydi, ya'ni oldindan mavjud bo'lgan korpus bazasi ma'lumotlariga yangi matn qo'shish jarayonida nomzod neologizmlar (ilgari korpusda uchramagan) aniqlanadi va so'nggi qaror tilshunos mutaxassis tomonidan beriladi. Buni quyidagi sxematik tasvir orqali ko'rib chiqishimiz mumkin:




1-rasm. Neoveile platformasi ishlash sxemasi

Senad Arifi “Zamonaviy neologizmlarni korpus orqali o‘rganish” (A Corpus Study of Modern Neologisms) maqolasida Zamonaviy Amerika ingliz tili korpusi – The Corpus of Contemporary American English (COCA) dan foydalanib, yangi so‘zlarning qo‘llanish chastotasini taqqoslab, jadvallar ko‘rinishida taqdim etgan [3-12]. Ushbu korpus orqali neoleksemalarning nafaqat qo‘llanish miqdori, balki yangi so‘zlar ko‘proq qaysi soha va manbalarda faol ekanligi, kontekstda qaysi til birliklari bilan birga kela olishi kabi holatlarni ham aniqlash imkoni mavjud.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSION)

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 290 tildagi veb matnlar va internet yangiliklariga ulangan Leipzig korpusi ham neologizmlar tahlilini amalga oshirishda muhim platforma hisoblanib, takrorlanishi, chastotasi va konkordansi bilan bog‘liq natijalarni yil kesimida chiqaradi. Quyida mazkur korpusning o‘zbek tili bo‘limidan “onlayn” so‘zi izlandi va 2020-yildagi veb matnlarda faol uchrashi va kollakatsiyalari, ya’ni neologizmning kontekstda qaysi so‘zlar bilan birga qo‘llanishi aniqlandi:



2-rasm. Leipzig korpusi o'zbek tili bazasidan “onlayn” so‘zi qidiruvi natijalari

Neologizmni aniqlashda yakunlovchi omil psixologik faktorlardan kelib chiqilganligi va yangilik bo'yog'i eng muhim belgilaridan biri ekanligi sabab ushbu hodisaning dunyo miqyosida aniq va bir to'xtamga kelingan klassifikatsiyasi mavjud emasligiga sabab bo'lmoqda. Ammo korpuslar asosidagi tahlillar bu masalaga oydin yechimlar taklif qilmoqda. Xususan, Ochilbek Yulbarsov ta'kidlaganidek, yangi so'zlarning paydo bo'lishini kuzatish uchun katta hajmdagi matnlarni yig'ish kerak. Bu matnlar ijtimoiy media postlari, yangiliklar maqolalari, ilmiy maqolalar va boshqa manbalardan olinishi mumkin [4-106]. Olim tomonidan yaratilgan “neologizm.uz” saytida “kun.uz” saytining 2014-2024-yillar oralig'idagi matnlari asosida tahlilga olingan 300 so'z sohasiy saralanib, har bir so'zning etimologiyasi, qaysi yil matnlarida mavjud ekanligi, so'z turkumi va taxminiy o'zbekcha muqobili keltirilgan:

Bosh sahifa Neologizmlar Bog'lanish

Neologizmlar jadvali

Qidirish uchun kalitso'zni yozing...						
#	So'z	Taxminiy muqobili	Kelib chiqishi	So'z turkumi	Aloqador soha	Ko'rish
1	Dron	Dron	Ingliz tilidan - uchuvchisiz hujum vositasi. Drone.	Ot	Texnologiya, harbiy	
2	Selfi	Surat	Insonning odatda qo'li yoki selfi tayoqchasi yordamida smartfoniga olingan o'z rasmi. [Wikipediya ma'lumoti]	Ot	Texnologiya	
3	Rubrika	Belgi	Bu so'z lotin tilidan olingan: rubrica, qizil oxra yoki qizil bo'r degan ma'noni anglatadi	Ot	Kutubxona	
4	Xaker	Buzg'unchi, kiber jinoyatchi	Inglizcha: hack — ya'ni chopish, boltalash ma'nosida.	Ot	Texnologiya	
5	Blekaut	Elektr tarmog'idan uzilish, elektr o'chishi	Blackout - inglizcha so'zdan olingan	Ot	Elektr-energiya	
6	Fishing	Jinoyat, kiberjinoyat	Inglizchadan olingan. Tarjima qilinganda “Baliq ovlash” ma'nosini anglatadi	Ot	Kompyuter	
7	Kriptovalyuta	Valyuta, elektron pul, pul	Inglizcha: elektron naqd pul degan ma'noni anglatadi	ot	Kiberxavfsizlik	

3-rasm. “Neologizm.uz” saytidagi yangi soʻzlar lugʻati

Har bir tilning leksik sathidagi oʻzgarishlar shu til foydalanuvchilarining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayot tarzi, fan va texnologiyadagi yutuqlari, madaniyatlararo kommunikatsiya jarayoniga bogʻliq hisoblanadi. Oʻzbek tilida yangi paydo boʻlgan soʻzlarni tasniflashda bir necha klassifikatsiyadan foydalanish mumkin. Quyida “qalampir.uz” saytining 2021-2025-yillar oraligʻidagi veb matnlaridan yigʻilgan neologizmlar tahlilga olindi:

I. Hosil boʻlish manbasiga koʻra:

1. **Yangi joriy etilgan.** Soʻz bilan bir qatorda undan anglashiladigan tushuncha ham mutlaqo yangi, yaʼni til foydalanuvchilarining lisoniy manzarasida mavjud boʻlmagan tushunchalarni ifodalovchi neologizmlar hisoblanadi: *sunʼiy intellekt, teledebat, quyosh panellari, elektromobil.*

2. **Boshqa tildan olingan.** Diaxron xususiyatga ega boʻlgan oʻzlashma soʻzlardan farqli ravishda bu turdagi neologizmlar sinxron doirada mavjud boʻladi. Oʻzbekcha muqobili boʻlmagan yoki muqobili boʻlsa-da, uslubiy farqlanishlari mavjud boʻlgan olinma soʻzlar: *implant, radar, autizm, demensiya, neonatal, insefalopatiya, migren, idiopatik, epilepsiya, alsgeymer, translyatsiya, anolog, post, ektremal, porsiya, logistika, dividend, filtr, kolonizatsiya, audio, terakt, pedofil, tiktoker, razezd, skuter, sputnik, gastronomik, premium, resident, drift, kamping, sabotaj, platforma, intensiv, xaker, inaguratsiya, impichment, apartment, bumerang.*

3. **Yangi sema yuklangan.** Bu turdagi neologizmlar ilgaridan mavjud boʻlgan denotativ va konnotativ semalari qisman yoki toʻliq yoʻqolib, yangi semalar qoʻshilishi natijasida vujudga keladi: *savatcha, kanal, hikoya, obunachi, kuzatuvchi.*

4. **Aralash.** Neologizmni tashkil etuvchi komponentlar turli tillardan oʻzlashgan yoki komponentlaridan biri xorijiy soʻz boʻlgan, ammo hosila oʻzbek tili foydaluvchilari tomonidan integratsiya qilingan soʻzlar: *e-maktab, e-taʼlim, e-kutubxona, antibakterial, antivirus, antiradar, antirekord, geotermal, mikroelektrod, neyrochip, transmilliy, fyuzelyaj, mikroavtobus, mikroqarz, kiberhujum, telemeditsina, aviazarba, aviabaza telekonsultatsiya, ekspomarkaz, texnopark, fotoelektr, samosud.*

5. **Soʻz shakli oʻzgartirilgan.** Chetdan kirgan soʻzlar oʻzbek tili qoidalari asosida qayta shakllantiriladi: *dekodlamoq, intensivlik, kreativlik, substantivlashish.*

I. Tuzilishiga koʻra:

1. **Fonetik.** Maʼlum tushuncha, his-hayojon, ruhiy holatni ifodalash uchun tilda mavjud soʻzlardan emas, tovush yoki tovush birikmalaridan foylaniladi: *auff, zizz, ouch.*

2. **Sodda.** Bir asosdan tashkil topgan neologizmlar: *blog, akkaunt, chellenj, xayp, shou, anomal, bulduruq, versiya, bitkoin.*

3. **Qoʻshma.** Ikki va undan ortiq yetakchi morfemadan iborat boʻlgan soʻzlar: *videmurojaat, videotasvir, videomontaj.*

4. **Juft.** Maʼnosi bir-biriga yaqin, kontekstda faol birga qoʻllanadigan soʻzlar: *id-karta, grin-karta, satatus-kvo.*

5. **Murakkab.** Soʻz birikmasi, ibora va gap shaklidagi neologizmlar: *Koʻp oʻlchovli qashshoqlik global indeksi (MPI).*

II. Qoʻllanish sohasiga koʻra:

1. Texnologiya: *gadget, smartfon, skuter, bot;*

2. Tibbiyot: *implant, autizm;*


3. Iqtisodiyot: *bitkoin, blokcheyn, mayning;*

4. Siyosiy: *congressmen, inaguratsiya;*

5. Harbiy: *arsenal;*

6. Ijtimoiy: *anonim, layfhak, feyk, prank;*

7. Savdo-sotiq: *oversayz, premium*;
8. Media: *vayn, vebinar, poskast, skrinshot, pleylist*;
9. Ta'lim: *zum, elektron doska, interaktiv metodlar*;
10. Kriminalistik: *samosud, pedofil, xaker*;
11. Oziq-ovqat: *latte, lavash, kimchi*.



4-rasm. Neologizmlar klassifikatsiyasi sxemasi (Lucid chart platformasida tayyorlandi)

XULOSA (CONCLUSION)

Umuman olganda, korpusga asoslangan yondashuv neologizmlarni aniqlash va tasniflash jarayonini ilmiy, tizimli va ishonchli darajaga ko'taribgina qolmasdan, balki statistik va kontekstual dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish imkonini beradi. Zero, neologizmlarni lug'atlashtirish, til siyosatini belgilash va zamonaviy til jarayonlarini tadqiq etishda hamda tilning uzluksiz rivojlanishini chuqurroq anglashimizga yaqindan yordam beradi. Buning natijasida korpusga asoslangan yondashuvlar neologizmlarni aniqlash va tasniflashda obyektiv, ma'lumotlarga tayangan ilmiy vositalarni taqdim etadi. Ular til o'zgarishlarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini berib, yangi so'zlarning qo'llanish chastotasi, qanday paydo bo'lishi, tarqalishi va kundalik til tarkibiga kirib borishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Yulbarsov O. O'zbek tili veb korpusi yordamida sohaviy neologizmlar bazasini yaratish. PhD diss. Toshkent – 2025. – 125 b.
2. Cartier, E Neoveille, plateforme de détection, de repérage et de suivi des néologismes en onze langues. Université Paris 13 Sorbonne Paris Cité 2019. 25 b.

3. Arifi, Senad A Corpus Study of Modern Neologisms (with an emphasis of extra-linguistic sources)UBT International Conference. 2024. – 18 p.
4. <https://tal.lipn.univ-paris13.fr/neoveille/html/login.php?action=login>
- 5.
6. [PDF] [Privacy-Aware Information Security for E-Learning Platforms in History Using Attribute-Based Encryption Algorithm.](#)
7. <https://izoh.uz>
8. <https://tal.lipn.univ-paris13.fr/neoveille/html/login.php?action=login>
9. https://corpora.uni-leipzig.de/en/res?corpusId=uzb_news_2020&word=onlayn
10. https://esiconf.org/index.php/TOSROF/article/view/6137?utm_source=chatgpt.com

Sabirov Asror Abdullayevich

Ma'mun universiteti, G'arb tillari va adabiyoti kafedrası nemis tili fani o'qituvchisi

E-mail: sabirov_asror@mail.ru

ORCID: 0009-0001-4506-4898

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 14th February 2026

QIYOSIY TILSHUNOSLIKDA IQTISODIY TERMINLAR TALQINI (“KAPITALIZM” TERMINING UCH TILLI TAHLILI ASOSIDA)

Annotatsiya: mazkur maqolada “kapitalizm” terminining uch o'zbek, rus hamda nemis tillaridagi semantik va etimologik tahlili olib borildi. Tadqiqod jarayonida izohga tortilgan terminning tarixiy ildizlari, bobo tildan o'zbek tiliga o'zlashish jarayonidagi strukturaviy va fonetik o'xshashlik va tafovutlar ko'rsatib berildi. Odatda, har qanday termin monosemiyaga amal qilishi kerak deb hisoblanadi, biroq mazkur maqolada “kapitalizm” terminining vaziyatdan kelib chiqqan holda, birlamchi, ikkilamchi ma'nolarini ham ko'rishimiz mumkin. Maqola tarjima va leksikografiya amaliyoti uchun tavsiyalar beradi hamda kelgusida korpus tahlili asosida chuqurroq tadqiqot o'tkazishni tavsiya etadi.

Kalit so'zlar: kapitalizm, etimologiya, leksikografiya, qiyosiy tilshunoslik, semantik o'zgarish, tarjima, terminologiya, millat ko'zgusi, filologiya sohasi, jamoatchilik, xususiy mulk, element, ruscha ta'rif, ommaviy auditoriya, iqtisodiy termin, tarixiy matn.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В СРАВНИТЕЛЬНОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ (НА МАТЕРИАЛЕ ТРЁХЪЯЗЫЧНОГО АНАЛИЗА ТЕРМИНА «КАПИТАЛИЗМ»)

Аннотация: в данной статье проводится семантический и этимологический анализ термина «капитализм» на материале узбекского, русского и немецкого языков. В ходе исследования рассматриваются исторические корни анализируемого термина, а также выявляются структурные и фонетические сходства и различия в процессе его заимствования из праязыка в узбекский язык. Обычно считается, что любой термин должен быть моносемантическим, однако в данной статье показано, что термин «капитализм» в зависимости от контекста может обладать также первичными и вторичными значениями. Статья содержит рекомендации для переводческой и лексикографической практики и предлагает в дальнейшем проведение более углублённого исследования на основе корпусного анализа.

Ключевые слова: капитализм, этимология, лексикография, сопоставительное языкознание, семантические изменения, перевод, терминология, зеркало нации, область филологии, общественность, частная собственность, элемент, русское определение, массовая аудитория, экономический термин, исторический текст.

**INTERPRETATION OF ECONOMIC TERMS IN COMPARATIVE LINGUISTICS
(BASED ON A TRILINGUAL ANALYSIS OF THE TERM “CAPITALISM”)**

Abstract: this article conducts a semantic and etymological analysis of the term “capitalism” in three languages: Uzbek, Russian, and German. In the course of the study, the historical roots of the term are examined, and structural and phonetic similarities and differences in the process of its borrowing from the proto-language into Uzbek are identified. It is generally assumed that any term should adhere to monosemy; however, this article demonstrates that the term “capitalism” may also exhibit primary and secondary meanings depending on the context. The article offers recommendations for translation and lexicographic practice and suggests conducting more in-depth research based on corpus analysis in the future.

Keywords: capitalism, etymology, lexicography, comparative linguistics, semantic change, translation, terminology, mirror of the nation, field of philology, public sphere, private property, element, Russian definition, mass audience, economic term, historical text.

Kirish (Introduction). Til millat ko‘zgusi bo‘lib, barcha faoliyatni qamrab oluvchi vosita hisoblanadi. Shu sababli til lug‘at tarkibidagi xoh milliy, xoh chet tilidan o‘zlashgan so‘zlarning semantik va etimologik jihatlarini aniqlashtirish darkor. Aynan, shuning uchun ham bugungi maqolamizda nemis tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan “kapitalizm” terminini yoritishga qaror qildik. Zero, mazkur termin nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy, balki siyosiy maydonda ham muhim ahamiyatga ega. Har qanday so‘z bir tildan boshqasiga o‘zlashar eka, ma’lum ma’noda strukturaviy, fonetik yoki semantik o‘zgarishga uchrashi mumkin. Ushbu tadqiqotning markazi – izohga tortilgan terminning turli tizimli lug‘atlar asosida o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash, etimologik kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlarini oydinlashtirish hamda ona tilimizdagi bugungi kundagi qo‘llanilayotgan ma’nolarini ko‘rsatib berishdan iborat. O‘ylaymizki, maqola ma’lumotlari nafaqat filologiya mutaxassislariga, balki ijtimoiy soha vakillariga ham foydali bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature Review). Til leksik qatlamining boyishida o‘zining salmoqli o‘rniga ega bo‘lgan chet tillaridan o‘zlashgan terminlarni o‘rganish barcha davrlarda ham tilshunoslik va leksikografiya sohalarining diqqat markazida turadi.

Maqolada tahlil qilinayotgan “kapitalizm” terminini yoritishda quyidagi manbalardan foydalanildi:

- O‘zbek lug‘atlari: Madvaliyev, 2020; Madvaliyev va boshq., 2021; Boymatov va boshq., 2016;
- Rus izohli va etimologik lug‘atlari: Kuznetsov, Ojegov, Shaposhnikov, va boshq.;

- Nemis manbalari: Duden, Langenscheidt, Pons.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, lisoniy traditsiyalarning har biri terminga o'zining ilmiy va madaniy urg'usini beradi: rus lug'atlarida marksistik-tarixiy interpretatsiyalar ko'proq, nemis lug'atlarida esa etimologik-analitik yondashuv yetakchi. O'zbek lug'atlari esa keng jamoatchilik uchun mos va oson tushunarli ta'riflarni taklif qiladi, ammo ba'zan etimologik ma'lumotlar yetarli darajada keng emas.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolada "kapitalizm" terminini o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish maqsadida **qiyosiy-lingvistik, qiyosiy leksikografik, etimologik** va **semantik-tahliliy** metodlardan foydalanildi.

Izohga tortilgan terminning semantik evolyutsiyasini, ya'ni ma'no kengayish yoki torayish bosqichlarini aniqlash maqsadida bosh metod sifatida lingvistik va leksikografik qiyoslash usuli qo'llanildi. Buning natijasi o'laroq "kapitalizm" terminining uch o'zbek, rus va nemis tillaridagi nafaqat ma'noviy, balki etimologik o'zgarishlari aniqlandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results). Tahlillar ko'rsatdiki, barcha lug'atlarda "kapitalizm" terminining umumiy semantik yadro elementlari, ya'ni "ishlab chiqarish vositalarining xususiy mulki" va "bozor mexanizmlari orqali iqtisodiy faoliyatni tartibga solish" kabi ma'nolari mavjud. Bu ikkita element lug'at yozuvlarida asosiy ta'rif sifatida qat'iy takrorlanadi [4; 972 S.; 9; 598 S.; 10; 316 b.].

Nemis manbalari etimologiyaga alohida urg'u beradi - so'zning lotin *capitalis* ildizi va fransuzcha ta'sirini ko'rsatadi, nazariy belgilarni iqtisodiy mexanizmlar bilan bog'lab beradi [3; 416 S.; 9; 598 S.; 13; 1107 S.].

Rus lug'atlari terminni ko'pincha tarixiy kontekstda joylashtirib, feodalizmdan kapitalizmga o'tish va sinfiy munosabatlar (egalar va yollanma ishchilar)ni ta'kidlaydi. Shu sababli ruscha ta'riflarda marksistik kategoriya va tarixiy periodizatsiya kuchliroq namoyon bo'ladi [8; 1536 c.; 12; 14; 376 c.].

O'zbek lug'atlarida esa, ta'riflar qisqa, didaktik va talaba, ommaviy auditoriyaga mo'ljallangan tarzda, ya'ni "yuqori ishlab chiqarish darajasi, fuqarolik jamiyati va xususiy mulkchilik asosiy element" sifatida beriladi [1; 209 b.; 10; 316 b; 11; 119 b.].

Tadqiqotning asosiy obyekti bo'lmish "kapitalizm" terminini yoritishda foyalanilgan manbalar asosan quyidagi etimologik yo'lni tasdiqlaydi: lotin *caput* (bosh) → *capitalis* (asosan,

boshga tegishli, asosiy) → fransuzcha *capital/capitalisme* (boylik, iqtisodiy termin) → nemischa *Kapitalismus* → ruscha *капитализм* → o'zbekcha *kapitalizm*. Shu yo'l o'tishida har bir til ingliz, fransuz va nemis terminologiyasidan ma'lum darajada ta'sir olgan.

Leksikologik yozuvlarida kapitalizmning bir nechta yon, qo'shimcha "iqtisodiy tizim, ijtimoiy formasiya, tarixiy era, hamda sifatdosh (kapitalistik)" ma'nolari qayd etilgan. Rus lug'atlarida qo'shimcha ravishda marksistik, analitik tasniflar (iqtisodiy formasiya) beriladi. Nemis lug'atlarida esa terminning etimologik tarixi va funksional ta'rifi birgalikda taqdim etiladi.

Tahlil natijasida quyidagi muammolar aniqlangan:

- **etimologik izohlarning notekisligi:** ayrim o'zbek lug'atlarida etimologik izoh qisqaroq yoki yetarli darajada keng emas;
- **tarjima va register farqlari:** akademik matnlarni tarjima qilganda ruscha manbalardagi tarixiy, ideologik komponentni o'zbek tilida to'liq aks ettirishga ehtiyot bo'lish lozim;
- **terminologik noaniqliklar:** tarjimonlar manbaga qarab kapitalizm terminini faqat iqtisodiy tizim sifatida yoki tarixiy formasiya sifatida turlicha yondashishlari mumkin, bu esa terminning noto'g'ri tushunilishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, "kapitalizm" termini uch til lug'atlarida umumiy definitson yadrog'a ega - ishlab chiqarish vositalarining xususiy mulki va bozor mexanizmi orqali iqtisodiy boshqaruv. Biroq lug'at an'analari (rus, nemis, o'zbek) terminga turlicha urg'u beradi: rus lug'atlari ko'proq tarixiy va marksistik tafsillarni o'z ichiga oladi; nemis lug'atlari etimologiya va funksional ta'rifni tarannum etadi; o'zbek lug'atlari esa qisqacha, didaktik ta'riflarni taklif qiladi. Mazkur farqlar tarjima, darslik yozish va leksikografik ishlarda hisobga olinsa, maqsadgamuvofiq bo'lar edi.

Takliflar:

1. **Lug'atshunoslar (o'zbek):** Kapitalizm uchun lug'at yozuvida ikki qismli yondashuvni joriy etish taklif etiladi: (a) neytral, funksional ta'rif; (b) qisqacha tarixiy/ideologik eslatma (yorliq bilan ajratilgan). Shuningdek, etimologik izoh (lat. *capitalis* → fr. *capitalisme* → ger. *Kapitalismus*) keltirilishi lozim.
2. **Tarjimonlar:** Akademik yoki tarixiy matnlarni tarjima qilganda matn kontekstini aniqlab, kerak bo'lsa tarjima qismida izoh yoki nota (parentetik) qo'shish lozim, ayniqsa rus manbalari marksistik nuqtai nazarli bo'lsa.

3. **O'qituvchilar va darslik mualliflari:** Talabalarga kapitalizmni o'rgatar ekan, uning definitiyalaridagi farq va tarixi haqida qisqacha solishtirma eslatma berish tavsiya etiladi.
4. **Tadqiqodchilar:** Ushbu ishni kengaytirish maqsadida korpus asosida kollokatsion tahlil (o'zbek, rus, nemis korpuslari) o'tkazish tavsiya etiladi; shuningdek ommaviy axborot vositalari va akademik diskursdagi farqlarni aniqlash foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] Boymatov, A. E., Inomov, U. A., Umrzoqova, G. J., Qarshiyeva, R. M., Boymatov, A. A. (2016). „Deutsch – usbekisches Wörterbuch – nemischa – o'zbekcha lug'at“. Toshkent, 209 b.
- [2] Butayev, Z., Ismoilov, Y., Karimov, Sh. (2020), - Nemischa-o'zbekcha, o'zbekcha-nemischa. Toshkent: Yangi nashr nashriyoti, 98 b.
- [3] Duden Band 7. (2020), Das Herkunftswörterbuch: Etymologie der deutschen Sprache. Berlin: Dudenverlag, 416 S.
- [4] Duden. (2015), Deutsches Universal-wörterbuch (Das umfassende Bedeutungswörterbuch der deutschen Gegenwartssprache). Berlin: Dudenverlag, 972 S.
- [5] Duden ekeltron lug'atida (10.01.2026: <https://www.duden.de/rechtschreibung/Kapitalismus>
- [6] Егорова Т.В. (2014), “Словарь иностранных слов современного русского языка”. Москва: Аделант, 801 с.
- [7] Ismoilov, Y., Karimov, Sh. (2019), - Nemischa-o'zbekcha, o'zbekcha-nemischa; 2-nashr; Toshkent: Akademiknashr, 734 b.
- [8] Кузнецов С. А. (2000), “Большой толковый словарь русского языка”. Санкт –Петербург: “Норинт”,. 1536 с.
- [9] Langenscheidt. (2008), Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Berlin-München: Langenscheidt KG, 598 S.
- [10] Madvaliyev A. (2020), O'zbek tilining 5 jildli izohli lug'ati. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 316 b.
- [11] Madvaliyev A., Mahkamov, N., Ko'chimov, Sh., Mirahmedova, Z., Saidno'monov, A. (2021), Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati. Tashkent: SAHHOF, 119 b.
- [12] Ожегов С. Толковый словарь русского языка - royallib.com.rtf - 82-69 (10.01.2026): https://royallib.com/read/ogegov_sergey/tolkoviy_slovar_russkogo_yazika.html#0
- [13] Pons. (2008), Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Stuttgart: Ernst Klett Sprachen, 1107 S.
- [14] Шапошников А.К. (2010), этимологический словарь современного русского языка. Москва: Издательство «Флинта», «Наука», 376 с.

References.

- [1] Boymatov, A. E., Inomov, U. A., Umrzoqova, G. J., Qarshiyeva, R. M., & Boymatov, A. A. (2016), German-Uzbek Dictionary. Tashkent, p. 209.
- [2] Butayev, Z., Ismoilov, Y., & Karimov, Sh. (2020), *German-Uzbek and Uzbek-German Dictionary*. Tashkent: Akademiknashr, p. 98.

- [3] Duden, Vol. 7 (2020), *The Etymological Dictionary: Etymology of the German Language*. Berlin: Dudenverlag, p. 416.
- [4] Duden. (2015), *German Universal Dictionary (The Comprehensive Explanatory Dictionary of Contemporary German)*. Berlin: Dudenverlag, p. 972.
- [5] Duden Online Dictionary (10.01.2026): <https://www.duden.de/rechtschreibung/Kapitalismus>
- [6] Egorova, T. V. (2014), *Dictionary of Foreign Words of the Modern Russian Language*. Adelant Publishing House, Moscow, p. 801.
- [7] Ismoilov, Y., & Karimov, Sh. (2019), *German-Uzbek and Uzbek-German Dictionary* (2nd ed.). Tashkent: Akademiknashr, p. 734.
- [8] Kuznetsov, S.A. (2000), *The Large Explanatory Dictionary of the Russian Language*. Saint Petersburg: NORINT, p. 1536.
- [9] Langenscheidt. (2008), *Comprehensive Dictionary of German as a Foreign Language*. Berlin–Munich: Langenscheidt KG, p. 598.
- [10] Madvaliyev A. (2020), *Explanatory Dictionary of the Uzbek Language, 5 Volumes*. Tashkent: Uzbekistan Publishing House, p. 316.
- [11] Madvaliyev A., Mahkamov, N., Ko‘chimov, Sh., Mirahmedova, Z., & Saidno‘monov, A. (2021), *Concise Dictionary of Socio-Political Terms*. Tashkent: SAHHOF, p. 119.
- [12] Ojegov, S. *Explanatory Dictionary of the Russian Language*. (10.01.2026) Retrieved from: https://royallib.com/read/ogegov_serгей/tolkoviy_slovar_russkogo_yazika.html#0
- [13] Pons. (2008), *Comprehensive Dictionary of German as a Foreign Language*. Stuttgart: Ernst Klett Sprachen, p. 1107.
- [14] Shaposhnikov, A.K. (2010), *Etymological Dictionary of the Modern Russian Language*. Moscow: Flinta – Nauka, p. 376.

Atayev Alisher Rizokulovich

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 14th February 2026

**AHMAD DONISH TAFAKKURIDA MA'NAVIYAT VA AMAL UYG'UNLIGI:
DAVLAT-IQTISODIY TARAQQIYOT ASOSLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ahmad Donish tafakkurida “ma'naviyat–amal” uyg'unligi jamiyat barqarorligi va davlat-iqtisodiy taraqqiyotning muhim sharti sifatida tahlil qilinadi. Donish qarashlarida adolat, aql va axloqiy mas'uliyat boshqaruv mezon bo'lib, “davlat xizmati - qonuniy soliq” tamoyili asoslanadi. “Suv adolati” g'oyasi doirasida irrigatsiya qishloq xo'jaligi, sanitariya va ijtimoiy barqarorlikka ta'sir etuvchi tayanch infratuzilma sifatida yoritiladi. Shuningdek, savdo fondlari, hunar va konchilik kabi iqtisodiy takliflar axloqiy asos - ishonch va javobgarlik bilan uzviy bog'langanligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar. Ahmad Donish; ma'naviyat; amal; adolat; axloq; mehnat; davlat xizmati; qonuniy soliq; legitimlik; javobgarlik; irrigatsiya; suv adolati; bozor ishonchi; ijtimoiy himoya; iqtisodiy taraqqiyot.

**ГАРМОНИЯ ДУХОВНОСТИ И ПРАКТИКИ В МЫШЛЕНИИ АХМАДА
ДОНИША: ОСНОВЫ ГОСУДАРСТВЕННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ**

Аннотация. В данной статье анализируется гармония «духовности и практики» в мышлении Ахмада Дониша как важнейшее условие общественной стабильности и государственно-экономического развития. В его взглядах справедливость, разум и нравственная ответственность выступают основными критериями управления, а принцип «государственная служба - законный налог» получает теоретическое обоснование. В рамках концепции «водной справедливости» ирригация рассматривается как ключевая инфраструктура, влияющая на сельское хозяйство, санитарное состояние и социальную стабильность. Кроме того, показано, что экономические предложения, такие как торговые фонды, ремесленное производство и горнодобывающая деятельность, тесно связаны с нравственной основой - доверием и ответственностью.

Ключевые слова: Ахмад Дониш; духовность; практика; справедливость; нравственность; труд; государственная служба; законный налог; легитимность; ответственность; ирригация; водная справедливость; рыночное доверие; социальная защита; экономическое развитие.

**THE HARMONY OF SPIRITUALITY AND PRACTICE IN THE THOUGHT
OF AHMAD DONISH: FOUNDATIONS OF STATE AND ECONOMIC
DEVELOPMENT**

Abstract. This article analyzes the harmony of “spirituality and practice” in the thought of Ahmad Donish as a crucial condition for social stability and state-economic development. In his views, justice, reason, and moral responsibility serve as the key principles of governance, while the concept of “public service as a legitimate tax” is theoretically substantiated. Within the framework of the idea of “water justice,” irrigation is highlighted as a fundamental infrastructure influencing agriculture, sanitation, and social stability. Furthermore, economic proposals such as trade funds, crafts, and mining are shown to be closely linked with ethical foundations—namely trust and accountability.

Keywords: Ahmad Donish; spirituality; practice; justice; ethics; labor; public service; legitimate taxation; legitimacy; accountability; irrigation; water justice; market trust; social protection; economic development.

Kirish (Introduction). Ahmad Donish o‘z asarlarida jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining asosiy shartlarini faqat ma‘muriy hukm yoki tashqi tartibda emas, balki insonning ichki odobi, axloqiy mas‘uliyati va amaliy faoliyatida ko‘radi. U voqelikni axloq, urf-odat va diniy tasavvurlar bilan bog‘liq holda kuzatuvchi-tanqidchi uslubda yoritarkan, ma‘naviy muhitning mustahkamligi xalq tirikchiligi va iqtisodiy harakat bilan uzviy bog‘liq ekanini uqtiradi. Muallif uchun haqiqiy qudrat - ko‘r-ko‘rona hukm emas, balki adolatli tartib, xalq tirikchiligi va ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlay olishdir.

Unga ko‘ra, aqlli va ishbilarmon podshoh va vazir mamlakatni yuksaltirsa, nodon va beqobiliyat podshoh va vazir yurti tanazzulga yetaklaydi. Shu bois Donish XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoroda kuzatilgan iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy va harbiy pasayish sabablarini, avvalo, hukmdor shaxsiga bog‘laydi va quyidagicha xulosa qiladi: «Agar masalaga chuqurroq nazar solsangiz, bu davlatdagi tanazzul va vayrona padishoh va vazirning nodonligi hamda ojizligi sabab yuz berganini anglaysiz. Agar padishohda yetarli aql bo‘lganida, bunday ahmoqni vazir etib tayinlamas edi». [1:95]

Ilmiy adabiyotlarda bu yondashuv ko‘p bor subyektiv-idealistik talqin sifatida baholanganini qayd etiladi: Buxoro amirligida asrlar davom etgan monarxik-absolyutist tartib, ishlab chiqarish kuchlarining sustligi va ijtimoiy munosabatlarning kamol topmagani hukmdor shaxsiga ortiqcha umid bog‘lashni kuchaytirgan; shu bilan birga, asriy diniy ustuvor muhit (Donish umri oxirigacha dindor edi) ham bu tasavvurni saqlab quvvatlagani tilga olinadi. Ya‘ni bu bahoga ko‘ra, Donishning tarixiy idealizmi - u yashagan davr va ijtimoiy-ma‘naviy muhit mahsuli sifatida izohlanadi. Biroq musulmon aqidasi ham, dunyoviy ilmda ham adolat va aql mezonlari eng ustun qoida hisoblanadi; Donishning talablari aynan shu uyg‘unlikka qaratilgan. Shu nuqtada u xushomat va bema‘ni maqto‘v bilan davlat ishi rivojlanmasligini keskin qorlaydi va Turkiston sultonlari uchun qo‘llanma (dasturulamal) bo‘lsin, deb Eron, Rum, Rus va Farang kabi xorijiy davlatlar nizomlari, shuningdek, ular hokimlarining tutumi va raftorini ushbu kitobda maxsus bayon etganini ta‘kidlaydi.[2:52] Shu bilan birga, Donishni faqat «shaxsga tayanadi» deb cheklash to‘g‘ri emas: u adolat va aql mezonlarini diniy qadriyatlar va dunyoviy tajriba bilan uyg‘un holda qo‘yadi, ijtimoiy

barqarorlikni qonun ustuvorligi va axloq bilan bog'laydi. Shu ma'noda "shaxs" omil sifatida tilga olinsa-da, uning mohiyatida "tizim" - adolatli tartib va mas'uliyat mexanizmi turadi.

Albatta, mana shu munosabatlar muvozanati Donish falsafasida realizmga yaqinlashuvni ko'rsatadi: u omma ongidagi havasiy xayollarni rad etadi - odamlar ba'zan shunday adashdilarki, go'yo Zarafshon doimo suvga to'la, yoki osmondan yomg'ir o'rniga don yog'ar, deb o'ylaydilar.[1:62] Donish bu misol bilan farovonlik tabiiy ravishda emas, balki sug'orish, dehqonchilik, qat'iy mehnat va oqilona boshqaruv orqali yaratilishini uqtiradi.

Ma'naviy mezon ham shuni tasdiqlaydi: duo - faqat axloq va amaliyot bilan quvvatlansagina samara beradi. Ahmad Donish ogohlantiradi: «Albatta, duo samara beradi, lekin inson uni o'zining ichki va tashqi odobi bilan qo'shib borsa. Boshqalarga "mening nomimdan duo qil" deb buyurib, o'zi razolat va yomon ishlardan tiyilmasa, bunday duo natija bermaydi».[1:62] Demak, Donish uchun ma'naviyat - "so'z" emas, "amal" bilan isbotlanadigan ijtimoiy qoidadidir. Bu ma'no Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy taraqqiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan naqshbandiya ta'limotida ham yorqin ifoda etilgan: «Dil ba yor - dast ba kor» (ya'ni dil Alloh bilan, qo'l esa mehnat bilan band bo'lsin). Demak, qalb ilohiy qimmatlarga ulanmog'i, kundalik hayot esa mehnat, mas'uliyat va foydali amal bilan to'lmog'i lozim.

Shu ruhdan kelib chiqib, Donish amaliy xulosaga keladi: podshoh (amir) xalqni himoya qilish va farovonligini ta'minlash uchun adolatni qaror toptirishi, tartibni mustahkamlashi va qonun ustuvorligini ta'minlashi shart. Demak, farovonlik tasodif emas - balki axloqiy tarbiya, qonun va adolatga suyangan tuzum, hamda ezgu mehnatning mustahkam natijasidir.

Shu yerda Donish nazar - amalni bog'laydi: irrigatsiyani tuzatishni ustuvor vazifa deb biladi. Bu - «suv adolati»ning amaldagi ko'rinishi: suv teng taqsimlanishi, isrof oldi olinishi va muhofaza qoidalari ishlashi kerak. Bu yerda "suv" oddiy resurs emas, balki jamoat salomatligi, iqtisod va siyosiy barqarorlikni birlashtiruvchi tayanch omil sifatida qaraladi.

U amirga xonlik yerlarini sug'orish uchun Amudaryodan kanal chiqarishni taklif qiladi, chunki bu faqat hosilga emas, salomatlikka ham daxldor: hovuz suvlari ko'pincha kasallikka, jumladan rishtaga sabab bo'lardi. Demak, irrigatsiya - faqat xo'jalik emas, jamoat salomatligining asosiy infratuzilmasidir. Ammo maslahat eshitilmaydi; 1868 yilda Samarqand Rossiyaga qo'shilgandan keyin esa suv muammosi yanada og'irlashadi: podshoh hukumati amirlikka Zarafshon suvining faqat 1/3 qismini ajratadi. Bu qaror suvdan foydalanishda notenglikni kuchaytirib, qishloq xo'jaligiga, sanitariyaga va aholi salomatligiga salbiy ta'sir qiladi. Shunday qilib, "suv adolati" buzilishi Donish nazariyasida tanazzul zanjirining birinchi bo'g'iniga aylanadi. Bu manzarani V.Bartold quyidagicha qayd etadi: «Buxoroda ocharchilik boshlanayotganining isboti ravshan bo'ldi. Agar ruslar Zarafshon suvini o'zlari uchun ishlatsalar, ehtimol suv Buxoroga yetmas. Hozir Samarqandda kanallar soni o'n ikkidan yigirma sakkiztaga yetdi. Ko'plab sahro va vodiylarni ekin ekish va aholi joylashtirishga buyurildi»[3:145] Bartoldning bu qaydi Donish aytgan xavfning amaliy tasdig'idir.

Donishning ogohlantirishi - faqat boshqaruvga emas, tabiat qonuniga ham ishora: davlatda yetarli suv zaxirasi bo'lmasa, «yaqin vaqtda vayrona boshlanadi, zero dehqonchilik qilib bo'lmaydi, inson yashay olmaydi va chorva boqib bo'lmaydi..., tog' va qishloq aholisi faqat suv va o'simlik bor joydagina dehqonchilik qila oladi; agar amir suvga g'amxo'rlik qilmasa va tartib o'rnatmasa, albatta qisqa muddatda xalq boshqa yerlarga ko'chib ketadi, kamida bir oz suv va o'simlik bor tog'larga ketadi»[4:60] Bu yerda asosiy ma'no shundan iboratki, suv adolati buzilsa, aholi ko'chishi va iqtisodiy tanazzul muqarrar.

Irrigatsiya yo'liga qo'yilgani bilan, agar xo'jalik harakati susaysa, yurtning kuchi siyraklashadi, ya'ni ishlab chiqarish, bozor aylanmasi va aholi daromadi kamayadi. Shu bois Donish siyosiy-axloqiy qoidalarni iqtisodiy tadbirlar bilan bog'laydi va hunar hamda savdoni rivojlantirish uchun maqsadli davlat jamg'armasi tuzishni taklif qiladi. Mazkur yo'nalish «Navodir ul-voqoe'»ni dastlab tadqiq qilgan rus sharqshunosi E.Ye.Bertelsning maqolasida ham qayd etilgan: «Bu bob yigirma qoidadan iborat bo'lib, Ahmad. Kalla Buxoro jamoat hayoti idealining butun manzarasini chizadi. Umumiy tartibdagi takliflar qatorida savdogarlarning bir-birga yordam beruvchi fondlarni tashkil etish ham bor» [4:21]. Donish uchun fond g'oyasi - iqtisodiy hamjihatlik orqali bozor intizomini barqarorlashtirish vositasidir.

Iqtisodiy asosni mustahkamlash uchun Donish yer osti boyliklarini izlash va o'zlashtirishni strategik yo'nalish sifatida ko'rsatadi. U bu fikrini quyidagi dalil bilan isbotlaydi: «Movarounnahr shaharlari atrofida ko'plab tog'lar bor va ularda turli xil foydali qazilmalar hisobsiz miqdorda mavjud. Minerallar ilmini biladigan olimlardan biri kelib, shu qazilmalarni ochsa edi. Qancha yollanma ishchi kerak bo'lsa, ular har doim vodiy va tog' tiqinlarida tayyor turibdi. Bu ish har ikki davlat uchun katta foyda keltirgan bo'lar edi. Kambag'allar va fuqarolar uchun esa bu yordam bo'lib, farovonlik olib kelar edi» [1:160]. Bu qoida Donish tasavvuridagi adolatli davlatning ajralmas qismini - ijtimoiy himoyaning barqaror mexanizmlarini - belgilab beradi, ya'ni kafolatli nafaqa va to'g'ridan-to'g'ri yordam to'lovlari tizimi nazarda tutiladi.

Yuqoridagi iqtibosdan anglashiladiki, Donish tabiiy zaxiralarning oqilona o'zlashtirilishi xazinani to'ldirishi, dehqon va hunarmandlar zimmasidagi soliq yukini yengillatishi va shu orqali investitsiya hamda yangilanishga yo'l ochishini kutadi. Shu bilan birga u amaliy bilim va kadrlar tanqisligini inobatga olib, amir Abdulaxadga foydali qazilmalarni o'zlashtirishda Rossiya hukumatidan amaliy yordam so'rashni tavsiya qiladi. Ammo bu taklif inobatga olinmaydi; natijada mavjud konchilik salohiyati ishga tushmaydi, xazina uchun barqaror daromad manbai shakllanmaydi va soliq yukini yengillatish imkoniyati ham boy beriladi. Demak, islohot faqat g'oya emas: uni amalga oshiruvchi siyosiy iroda va institutsional qadamlar bo'lmasa, resurs ham samara bermaydi.

Nihoyat, Donish dasturida inson qadr-qimmatiga bag'ishlangan alohida band mavjud: u mehnatga layoqatsizlar uchun davlat kafolatidagi nafaqa jamg'armasini joriy etishni taklif qiladi. Bu g'oya manba jihatdan yangi emas: islom davlati an'anasida baytul-mol, zakot, sadaqa va vaqf tizimlari orqali ijtimoiy himoyaning asosiy shakllari amalda bo'lgan. Donishning o'ziga xosligi shundaki, u shu an'anaviy ma'no-mazmunni XIX asr Buxoro sharoitida davlat kafolati, hisobdorlik va adolat mezonlari bilan uyg'unlashtirib, bir turdagi amaliy dastur sifatida tizimlashtirdi. Muallif davlatning ma'naviy mas'uliyatini quyidagicha bayon qiladi: «Xazinadan beriladigan mablag'larning bir qismi mamlakatdagi faqir va miskinlarga ketadi. Bular ojizlik, qarilik, kasallik yoki boshqa biror sabab bilan kundalik ovqatlarini ham topib yeyishga kuchlari yetmay qolgan zaif odamlardir. Bunday odamlarning bekorga zoye bo'lib ketmasliklari uchun, ularning kundalik nafaqalari xazinadan beriladi» [2:160].

Bu qoida Donish tasavvuridagi adolatli davlatning ajralmas qismini - ijtimoiy himoyaning barqaror mexanizmlarini - belgilab beradi, ya'ni kafolatli nafaqa va to'g'ridan-to'g'ri yordam to'lovlari tizimi nazarda tutiladi. Afsuski, amirlik davrida bu takliflar amalga oshmadi, sababi - siyosiy iroda va moliyaviy resurslar yetishmasligi. Shuning o'ziga qaramay, Donishning niyati ravshan edi: davlat adolati faqat qonun bilan emas, balki mehr-shafqat va ijtimoiy g'amxo'rlik bilan to'laqonli bo'ladi.

Ahmad Donish hukmdor bilan xalq, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabat masalasini ham insonparvarlik tamoyili asosida talqin qiladi. Unga ko'ra, podshoh va davlatning asosiy vazifasi - jamiyatda osoyishtalikni ta'minlash, xalqni ichki va tashqi xatarlardan, shuningdek amaldorlarning zulm va zo'ravonligidan asrash, hamda aholining xo'jalik yuritishi uchun zarur sharoit va vositalarni yaratishdan iborat, qisqacha aytganda: xavfsizlik, huquq va tirikchilik sharoiti kafolatlanishi shart.

Donish soliq masalasiga "soliq - davlat xizmati evaziga" tamoyili asosida yondashadi: xizmatlar (suv, yo'l-xavfsizlik, himoya, tirikchilik sharoitlari) kafolatlanca - soliq qonuniy, aks holda - emas. Mana shu shartlar ta'minlangan taqdirdagina hukmdorning fuqarolardan soliq undirishga huquqi bor; bu holda fuqarolar ham soliqni xazinaga topshirishga majbur. Aks holda, ya'ni davlat o'z majburiyatlarini bajarmasa, hukmdorning soliq qo'yishga haqqi yo'q, fuqarolar esa noqonuniy yuklatilgan soliqlarni to'lamaslikka haqli. Donish bu fikrni aniqlashtirib, quyidagicha yozadi: «Agar kerakli paytda dehqonga suv yetkazib berilmasa yoki karvon yo'llari qaroqchi va o'g'rilardan tozalanmasa, podshohning xalqdan ushur va xiroj olishi durust emas. Podshoh boshchiligidagi sipoh fuqarolarni yetarlicha himoya qila olmasa, ularga zarur tirikchilik vositalarini yetkazib berolmasa, xalqdan olingan va sarf etilgan mol-dunyo halol hisoblanmaydi».[2:50] Shu tariqa Donish davlat-fuqaro munosabatini "o'zaro mas'uliyat" shaklida qo'yadi: davlat - xizmat, tartib va adolat; fuqaro - qonuniy soliq va mehnat.

Shu tariqa Donish davlat-fuqaro munosabatini "o'zaro mas'uliyat" shaklida qo'yadi: davlat - xizmat, tartib va adolat; fuqaro - qonuniy soliq va mehnat. Ahmad Donishning fikricha, davlatning borligidan maqsad - xalq manfaatini asrash va yurti obod qilish. Shunga ko'ra, amirlikdagi mutlaq hokimiyat shakli islohg muhtoj: hokimiyat aql, adolat va jamoat maslahatiga tayana olsun. Donish buni amalga oshirish uchun aniq va sodda yo'l-yo'riq beradi. Amaliyotda bu - irrigatsiyani tuzatish, karvon yo'llarini xavfsiz qilish va ijtimoiy himoyani yo'lga qo'yish kabi aniq vazifalarga aylanadi; shundagina soliq tinimli va qonuniy bo'ladi.

Shu va boshqa qoidalari Donishning hukmdorlar va davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlari, shuningdek fuqarolarning davlat oldidagi majburiyat va huquqlarini to'g'ri anglashga yaqin kelganini ko'rsatadi. Ya'ni u "davlat xizmati - qonuniy soliq" mutanosibligini asos tamoyil sifatida qo'yadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqot metodologiyasi Ahmad Donish tafakkuridagi "ma'naviyat va amal uyg'unligi" g'oyasini siyosiy-falsafiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy nazariya asosida tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot uch asosiy metodik yo'nalishga tayanadi:

kontekstual-matnshunoslik tahlili (Donish matnidagi "davlat xizmati-soliq", "suv adolati", "ijtimoiy himoya", "haq so'z", "mas'uliyat" kabi tushunchalarning ichki mantiqini aniqlash);

institutsional yondashuv (norma va qarorlarning amalda qanday ishlashini baholash);

ijtimoiy aloqalar tahlili (iqtisodiy va siyosiy qarorlar jamiyatdagi real bog'lanishlar doirasida shakllanishini ko'rsatish).

Donish irrigatsiya, savdo fondlari, konchilik va ijtimoiy himoya masalalarini shunchaki nazariy taklif sifatida emas, balki amaliy ishlaydigan mexanizm sifatida ko'radi. Shu nuqtada zamonaviy davlat nazariyasida ilgari surilgan quyidagi fikr metodik asos bo'lib xizmat qiladi: "Ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning biror shakli faqat formulalar asosida ishlamaydi; buning uchun mahalliy amaliy bilim ham zarur."[5:350] Mazkur g'oya Donish konsepsiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi. Chunki Donishda qoidaning yozilishi yetarli emas - u axloqiy mas'uliyat, mahalliy tajriba va javobgarlik bilan birikkanida ishlaydi. Masalan, "suv adolati" masalasi faqat texnik loyiha emas; u dehqonchilik, sog'liq, soliqqa

asos va migratsiya jarayonlari bilan bog'langan kompleks tizimdir. Iqtisodiy xatti-harakatni ijtimoiy aloqalardan ajratib bo'lmashligi haqidagi zamonaviy qarash ham metodologiyaning muhim qismi hisoblanadi: "Iqtisodiy xatti-harakatni chuqur tushuntirish uning ijtimoiy tuzilmalarga singib ketganligini hisobga olishi zarur." [6:481]

Bu fikr Donishdagi "ma'naviyat va amal" birligini ilmiy asoslaydi. Soliq, savdo, irrigatsiya yoki hunar masalasi axloqiy muhitdan ajralgan holda barqaror ishlamaydi. Shunday qilib, metodologiya Donish konsepsiyasini uch qatlamda o'qiydi:

- me'yoriy qatlam (adolat va mas'uliyat talabi),
- institutsional qatlam (xizmat–soliq, resurs taqsimoti),
- amaliy qatlam (mahalliy bilim va ijtimoiy aloqalar).

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Donish modelida barqarorlik uch asosiy mexanizm orqali shakllanadi:

javobgarlik va qayta aloqa (haq so'z, tanqidni eshitish);

infratuzilmaviy asos (suv, yo'l, xavfsizlik, savdo);

legitimlik (davlat xizmat ko'rsatgani uchun soliqning qonuniyligi).

Donish barqarorlikni jimlik bilan emas, balki tizimning o'z xatolarini tuzatish qobiliyati bilan bog'laydi. Bu nuqtada zamonaviy siyosiy nazariyadagi quyidagi fikr muhim: "Kim chiqib ketishni tanlamasa, u e'tiroz va talab bildirish imkoniga ega." [7:46] Mazkur g'oya Donishning "haq so'z" talabi bilan bevosita uyg'unlashadi. Hushomad va sukut tizimni himoya qilmaydi; aksincha, u o'zini tuzatish imkonidan mahrum qiladi. Demak, tanqid va ochiq muloqot barqarorlikning zarur omilidir.

Ikkinchi muhim natija - suv va irrigatsiya masalasining markaziy o'rni. Donish suv adolatsiz taqsimlansa, iqtisodiy tanazzul, sog'liq muammolari va aholi ko'chishi kuchayishini ta'kidlaydi. Bu holat barqarorlikka zanjirli ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi natija - iqtisodiy takliflar (savdo fondlari, hunar, konchilik) axloqiy muhitdan ajralmagan. Bozor ishonchga tayanadi; ishonch bo'lmasa, iqtisodiy aloqalar ham yemiriladi. Shunday qilib, Donish modeli axloqiy legitimlik va iqtisodiy infratuzilma uyg'unligiga asoslangan kompleks tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Resommendations). Xulosa qilib aytganda, Ahmad Donish tafakkurida ma'naviyat va amal uyg'unligi davlat barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida talqin qilinadi. Davlatning kuchi zo'ravonlikda emas, balki adolatli xizmat, javobgarlik va infratuzilmaviy ta'minotda namoyon bo'ladi.

Donishning asosiy tamoyili shuki:

- davlat xizmat qilsa, soliq qonuniy;
- davlat adolatni ta'minlasa, legitimlik mustahkamlanadi;
- haq so'z mavjud bo'lsa, tizim o'zini tuzata oladi.

Zamonaviy nazariyada ijtimoiy institutlar adolat mezoni bilan baholanadi: "Adolat ijtimoiy institutlarning birinchi fazilatidir." [8:3]

Bu fikr Donish konsepsiyasini mustahkamlaydi: irrigatsiya, soliq, ijtimoiy himoya kabi institutlar adolatsiz ishlasa, ularning mavjudligi barqarorlikni ta'minlay olmaydi.

Takliflar: Soliq siyosatini xizmat sifati bilan bog'lash. Suv va resurs taqsimotini adolat mezoni asosida boshqarish. Ijtimoiy himoya tizimini davlat legitimligining ko'rsatkichi sifatida qarash. "Haq so'z" va javobgarlik madaniyatini boshqaruv etikasi darajasida mustahkamlash.

Shu tariqa, Donish merosi tarixiy fikrlar majmui emas, balki zamonaviy boshqaruv va barqarorlik nazariyasi bilan uyg'unlashuvchi konseptual model sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] A. Donish, *Istoriya mangitskoy dinastii*. Dushanbe: Donish, 1967.
- [2] A. Donish, *Navodir ul-vaqoe' (Nodir voqealar)*, A. Hamroev and A. Shoqirov, Trans. Tashkent: UzSSR FA nashriyoti, 1964.
- [3] V. V. Bartold, *Istoriya kulturnoy zhizni Turkestana*. Leningrad: Izd-vo Akademii nauk SSSR, 1927.
- [4] E. E. Bertels, "Rukopisi proizvedeniy Akhmada Kalle," in *Trudy Tadzhikskoy bazy AN SSSR*, vol. III, Lingvistika, Moscow–Leningrad: Izd-vo AN SSSR, 1936, p. 21.
- [5] J. Rawls, *A Theory of Justice*. Cambridge, MA: Belknap Press of Harvard University Press, 1999.
- [6] J. C. Scott, *Seeing Like a State: How Certain Schemes to Improve the Human Condition Have Failed*. New Haven, CT, USA; London, U.K.: Yale University Press, 1998.
- [7] M. Granovetter, "Economic Action and Social Structure: The Problem of Embeddedness," *American Journal of Sociology*, vol. 91, no. 3, pp. 481–510, 1985.
- [8] A. O. Hirschman, *Exit, Voice, and Loyalty: Responses to Decline in Firms, Organizations, and States*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1970.

Xasanova Rashidaxon Nabijon qizi

Farg‘ona shahar Ichki Ishlar Boshqarmasi Tezkor qidiruv xizmati,
Jinoyat qidiruv bo‘limi tezkor vakili katta leytenant
Xasanovarashida1798@gmail.com

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 14th February 2026

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIDA VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING HOLATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ichki ishlar organlari tizimida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining holati, kelib chiqish sabablari to‘g‘risida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish hamda, bartaraf etish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, profilaktika, ichki ishlar, qonun, huquq.

THE STATE OF JUVENILE DELINQUENCY IN THE SYSTEM OF INTERNAL AFFAIRS BODIES OF UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Abstract. This article examines the state of juvenile delinquency within the system of internal affairs bodies of Uzbekistan during the years of independence, as well as the causes of its emergence. In addition, the article proposes measures aimed at preventing and eliminating juvenile delinquency.

Keywords: juveniles, crime, offense, prevention, internal affairs, law, legal system.

СОСТОЯНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ В СИСТЕМЕ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. В данной статье рассматривается состояние преступности среди несовершеннолетних в системе органов внутренних дел Узбекистана в годы независимости, а также причины её возникновения. Кроме того, в статье представлены предложения по профилактике и устранению преступности среди несовершеннолетних.

Ключевые слова: несовершеннолетние, преступность, правонарушение, профилактика, органы внутренних дел, закон, право.

Kirish. Bugungi kunda jahonda jinoyatchilik darajasi yil sayin ortib bormoqda va sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning salmoqli qismi voyaga yetmaganlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Xususan, ushbu ko'rsatkich Amerika Qo'shma Shtatlarida qariyb 32 foizni, Buyuk Britaniyada 40 foizni, Germaniyada esa 38 foizni tashkil etadi. Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda Markaziy Osiyo hududlarida esa har yili o'rtacha 5 ming nafar voyaga yetmagan shaxs jazoni ijro etish muassasalariga joylashtirilmoqda.

1989-yilda qabul qilingan BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasida bolani qonunga xilof yoki asossiz ravishda ozodlikdan mahrum etishga yo'l qo'yilmasligi, uni hibsga olish yoki qamoqqa olish faqat qonuniy asoslarda, favqulodda holat sifatida va imkon qadar qisqa muddatga qo'llanilishi belgilab qo'yilgan. Mazkur normalar voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, shuningdek ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan tizimni yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish, ularning oldini olish hamda bu turdagi huquqbuzarliklar darajasini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mazkur sohada amalga oshirilayotgan profilaktik chora-tadbirlarning ilmiy asoslarini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, voyaga yetmaganlarning mulkka qarshi jinoyatlari, ayol jinsidagi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o'ziga xos jihatlari, ularni jinoiy javobgarlikka tortish uchun belgilangan eng kam yosh masalasi, jinoiy xulq-atvorni tuzatish jarayonining psixologik va fiziologik jihatlari, shuningdek voyaga yetmaganlar huquqlarini qo'shimcha himoya qilishning zamonaviy usullari va samarali tizimlarini ishlab chiqish bilan bog'liq muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olishning ayrim jihatlari Q.R. Abdurasulova, B.A. Arifdjanov, A.G.Zakirova, Z.S. Zaripov, M.Z. Ziyodullayev, I. Ismailov, Y. Karaketov, B.A. Mirenskiy, J.S.Muxtorov, S.S. Niyozova, V.G. Fayzullayeva, S.B. Xo'jaqulov, R. Jabbarbergenovlarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o'rganilgan. D.R. Karimovanning "O'zbekiston hududida bola huquqlari genezisi, evolyusiyasi va uning istiqbollari" mavzusida doktorlik, N.T. Ismoilovning "Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini individual oldini olish muammolari", B.M. Umarovning "O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari", Sh.R. G'ofurovning "Uyushmagan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish (Ichki ishlar organlari faoliyati misolida)", N.A. Ramazonovning "Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti" mavzusida nomzodlik hamda falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari himoya qilingan. Mazkur tadqiqotlarda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga daxldor ayrim masalalar o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, xronologik kabi usullaridan foydalanildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari mavzusini tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adabiyotlar, gazeta va jurnal materiallari hamda arxiv materiallari nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili mavzuga xolisona, tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi. Yuqorida ta'kidlangan usullardan foydalanish natijasida quyidagi ilmiy yangilik sifatida o'rganildi: ichki ishlar organlarining faoliyatini yanada takomillashtirish uchun respublikada amalga oshirilgan islohatlar natijasida respublikadagi ichki ishlar profilaktikasi sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Xususan, huquqbuzarlik va jinoyatchilik ko'rsatkichlari yil sayin kamayib borganligi, ayniqsa 1990 yillarning boshlarida kuzatilgan rekvizit (o'ta og'ir) jinoyatchilik holatlari bartaraf etildi. Shuningdek sohaning

moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, bu esa soha hodimlarinig ish unumdorligini ortishiga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Har qanday mamlakat o'z kelajagini yoshlar timsolida, aniqrog'i ularning jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishida ko'rishi tabiiy holdir. Huquqiy demokratik davlat taraqqiyotining rivoji ham aynan o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Bunga erishish uchun esa avvalo, jamiyat a'zolarining, shu jumladan, yoshlarning siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy saviyasi yuqori darajada bo'lishi talab etiladi. Bu borada, mamlakatimizda yoshlarning barkamol inson bo'lib, ulg'ayishiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" – deb ta'kidladi. Mazkur usutvor vazifadan kelib chiqib, yosh avlodning sog'lom bo'lishini ta'minlash bilan bir qatorda ularni yetuk ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol inson bo'lib voyaga yetishishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Hozirgi davr talabidan kelib chiqib, voyaga yetmaganlarni to'g'ri tarbiyalash ustuvor masalalardan biriga aylangan. Bugun mamlakatimiz yoshlari barcha sohalarida dunyoda hech kimdan kam bo'lmasdan, taraqqiy topgan mamlakat yoshlari qatoridan o'rin olmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida yoshlarni ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shunga qaramasdan, yoshlar hayotidagi eng dolzarb masalalar, ayniqsa, voyaga yetmaganlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun sharoit va imkoniyat yaratish, ularni kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish bo'yicha olib borilgan ishlar talab darajasida emasligi, joylarda, avvalambor chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko'p sonli yoshlarning o'z iqtidori va iste'dodini ruyobga chiqarishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun keng sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illat va yot g'oyalar ta'siridan ximoya qilish, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchiliklarning barvaqt oldini olish muhimdir.

Hozirgi murakkab va tahlikali zamonda jadal o'zgarib borayotgan davr bilan hamnafas yashash, "qo'lga kiritgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, xotirjamlik va havolanish kayfiyatiga berilmasligimiz, yangi marralar sari intilishimiz, doimo izlanib yashashimiz, taraqqiyot va yangilanish yo'lidan izchillik bilan yanada ilgarilab borishimiz zarur" [1]. Shu ma'noda aytish mumkinki, erishilgan yutuqlar bilan birga hali voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish borasida o'z yechimini kutayotgan muhim masalalar ham mavjud. Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishni tashkiliy-huquqiy tartibga solish sohasida yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, uning ilmiy-nazariy asoslarini yanada boyitishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish zarurati shular jumlasidandir.

Tarbiya koloniyalarida: o'n olti yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan mahkumlar kattaroq yoshdagi mahkumlardan birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumlar ilgari ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni o'tagan mahkumlardan alohida saqlanadilar. Ijobiy tavsifga ega mahkumlar Jinoyat-ijroiya kodeksining 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkaziladi [2]. Tarbiya koloniyalarida mahkumlar umumiy turar joylarda yashaydilar. Mahkumlar belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 87,9 foizigacha bo'lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin. Tarbiya koloniyalarida mahkumlar yil mobaynida yigirma to'rt marta qisqa muddatli va sakkiz marta uzoq muddatli uchrashuv yigirma to'rt marta telefon orqali so'zlashuv o'n ikkita posilka yoki yo'qlov o'n ikkita banderol olish huquqiga ega [3].

Voyaga yetmagan mahkumlarga ota-onasi va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan uchrashuvlar cheklanmagan miqdorda beriladi.

O'n sakkiz yoshga to'lgan va tarbiya koloniyalarida qoldirilgan mahkumlarga voyaga yetmagan mahkumlar uchun belgilangan normalarda ovqat, ust-bosh, moddiy-maishiy ta'minot va boshqa jazo o'tash sharoitlari tatbiq etiladi. Bu shaxslarning mehnat sharoitlari mehnat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi [4].

Tarbiya koloniyalarida mahkumlar Jinoyat-ijroiya kodeksining 102-moddasida nazarda tutilgan rag'batlantirish choralaridan tashqari:

–muassasa hududidan tashqarida o'tkaziladigan madaniy-tomosha va sport tadbirlarini ko'rishga yuborish;

–qisqa muddatli uchrashuv o'rniga ota-onasi, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoki yaqin qarindoshlari kuzatuvida sakkiz soatgacha bo'lgan muddatga erkinlikka chiqarish;

–hibsxonada bo'lish muddatini qisqartirish va undan muddatidan ilgari ozod qilish tariqasida rag'batlantirilishlari mumkin.

Jazoni o'tash tartibini buzganligi uchun tarbiya koloniyalarida mahkumlarga Jinoyat-ijroiya kodeksining 105-moddasida nazarda tutilgan intizomiy jazo choralaridan tashqari tomoshaga borishdan bir marta mahrum etish tariqasidagi jazo qo'llanilishi mumkin [5].

Dunyo hamjamiyati jinoyatchilikka qarshi kurashning o'ziga xos bo'lgan samarali siyosatini tatbiq etish haqida qayg'urmoqda. Bu borada shaxs, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlik hamda insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan himoyalash [6], tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, kriminologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, oldini olish choralarini yaxshilash bilan har o'nta jinoyatning yettitasini oldini olishga erishish mumkin [7].

Amaliyot natijalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari talablarining bajarilish holati havas qilarli darajada emas [8]. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 6 sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika inspektorlarining hisobotini fuqarolar yig'inlarida eshitish tartibi to'g'risidagi nizom"ni tasdiqlash haqidagi tegishli buyrug'iga ko'ra, profilaktika inspektorining mahalla fuqarolar yig'inida beradigan hisoboti beshta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshirilib, ularning 3 tasini, ya'ni 60 % ni voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida amalga oshiriladigan profilaktik ishlar natijalari tashkil etadi [9].

Hududiy profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va qarovsizligiga, huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar sodir etishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi [10].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ichki ishlar organlari tizimida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Ushbu davrda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga qaratilgan huquqiy va institutsional mexanizmlar takomillashtirildi. Profilaktika inspektorlari faoliyatining kuchaytirilishi, ta'lim muassasalari va jamoatchilik bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi natijasida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bilan bog'liq salbiy holatlarni kamaytirishga erishildi. Shu bilan birga, oilaviy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va axborot texnologiyalarining ta'siri ushbu sohada doimiy e'tibor talab etuvchi omillar bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijasida quydagi takliflarni berish mumkin:

1. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda erta profilaktika tizimini yanada kuchaytirish, ayniqsa xavf guruhiga mansub bolalar bilan individual ishlash mexanizmlarini rivojlantirish.
2. Ichki ishlar organlari, ta'lim muassasalari va mahalla institutlari o'rtasidagi hamkorlikni tizimli asosda mustahkamlash.
3. Voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi ichki ishlar xodimlarining psixologik va pedagogik tayyorgarligini oshirish.
4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyat va huquqiy ongni oshirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish.
5. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarni jazolashdan ko'ra, ularni ijtimoiy moslashtirish va qayta tarbiyalashga yo'naltirilgan muqobil choralarni keng qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов. И.А. Эришган марралар билан чегараланмасдан, бошлаган ислохотларимизни янги босқичга кўтариш – бугунги кундаги энг долзарб вазифамиздир. Ж. 23. – Т., 2015. – Б. 110.
2. Кузнецова Н.Ф. Проблемы криминологической детерминации. – М., 1984. – С.145.
3. Теоретические основы предупреждения преступности. – М., 1977. – С. 30–31.
4. Temirova M.M. "Current Results of Activities of Internal Affairs Preventive Inspectors in Uzbekistan". Bosma Eurasian Journal of Research, Development and Innovation www.geniusjournals.org. Volume 15 December, 2022 ISSN: 2795-7616. 23-26 Betlar.
5. Temirova M.M. "Reforms In The Field Of Crime Prevention And Combating Crime In Uzbekistan" Bosma Problems And Solutions Journal of Positive School Psychology <http://journalppw.com> 2022, Vol. 6, No. 11.
6. Temirova M.M. "Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari" Fardu. ilmiy xabarlar- 2023 /№6 . (mahalliyOAK)
7. Temirova M.M. "Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy merosining shaxsni kamol toptirish va ta'lim -tarbiyani shakllantirishdagi ahamiyati." Best journal of innovation in science, research and development ISSN: 2835-3579 "Yearly Scientific Collection of Novels in Innovation and Education" www.bjisrd.com. 2023.
8. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 04.08.2021 й., 09/21/490/0753-сон. [http: lex.uz](http://lex.uz).
9. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 й., 3-сон.[http: lex.uz](http://lex.uz).
10. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.07.2020 й., 03/20/629/1087-сон.[http: lex.uz](http://lex.uz).

Avazkhan Bakhadirovich Tadjikhanov

First Deputy Minister of Culture of the Republic of Uzbekistan,
Associate Professor of the “Cinematography (Camera Operation)” Department
of the Tashkent Branch of the S. A. Gerasimov All-Russian State
University of Cinematography (VGIK),
Film Producer

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 14th February 2026

REFORMS IN THE NATIONAL FILM INDUSTRY AND PRODUCER EXPERTISE

Abstract. This article is dedicated to studying the recent reforms in the national film industry and the development of producer skills. The research analyzes the historical process of film production in Uzbekistan, political and economic reforms implemented by the state, as well as the creative and organizational abilities of producers. The article highlights the producer's role in film creation, the importance of financial responsibility, and the coordination of creative decisions. Furthermore, it examines the significance of producer expertise in enhancing the international competitiveness of national cinema. The research findings indicate that an effective producer system is directly related to the quality of the film product and audience reception. From this perspective, the article has both scientific and practical significance in shaping the development strategy of the national film industry.

Keywords: National cinema, producing, reforms, film industry, creativity, financial responsibility, creative decisions, international arena.

РЕФОРМЫ В СФЕРЕ НАЦИОНАЛЬНОГО КИНЕМАТОГРАФА И МАСТЕРСТВО ПРОДЮСЕРА

Аннотация. Данная статья посвящена изучению последних реформ в национальной киноиндустрии и развитию профессиональных навыков продюсеров. В ходе исследования анализируются исторический процесс производства кино в Узбекистане, политические и экономические реформы, проводимые государством, а также творческие и организационные способности продюсеров. В статье раскрыта роль продюсера в создании фильма, значение финансовой ответственности и координации творческих решений. Кроме того, рассматривается важность профессионализма продюсера для повышения международной конкурентоспособности национального кино. Результаты исследования показывают, что эффективная система продюсирования напрямую связана с качеством кинопродукта и восприятием его зрителями. С этой точки зрения статья имеет как научное, так и практическое значение для формирования стратегии развития национальной киноиндустрии.

Ключевые слова: национальное кино, продюсирование, реформы, киноиндустрия, креативность, финансовая ответственность, творческие решения, международная арена.

MILLIY KINO SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA PRODUYSSEK MAHORATI

Annotatsiya. Ushbu maqola milliy kino sanoatidagi so'nggi islohotlar va produysseklik mahoratining rivojlanishini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda kino ishlab chiqarishning tarixiy jarayoni, davlat tomonidan amalga oshirilgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar, shuningdek produyssekliklarning kreativ va tashkiliy qobiliyatlari tahlil qilindi. Maqolada produysseklik kino yaratishdagi roli, moliyaviy mas'uliyat va ijodiy qarorlarni uyg'unlashtirishdagi ahamiyati ko'rsatildi. Shu bilan birga, milliy kinoning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishda produysseklik malakasining o'rni va ahamiyati ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali produysseklik tizimi kino mahsulotining sifati va tomoshabinlar qabul qilishi bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, maqola milliy kino sanoatining rivojlanish strategiyasini shakllantirishda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Milliy kino, produysseklik, islohotlar, kino sanoati, kreativlik, moliyaviy mas'uliyat, ijodiy qarorlar, xalqaro maydon.

Kirish (Introduction)

Milliy kino sanoati XX asrning oxirlaridan boshlab jadal o'sish va rivojlanish jarayoniga kirib keldi. Bu jarayon nafaqat madaniy va estetik qiymatlar shakllanishiga, balki iqtisodiy, siyosiy va kommunikativ tizim sifatida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Kino mahsulotlari jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlari, estetik didi va madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, milliy kino rivojlanishi davlat siyosati, ijodiy muhit va professional kadrlar tayyorlash tizimi bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekistonda milliy kino sanoatining rivojlanish tarixi murakkab va bosqichma-bosqich amalga oshgan. XX asrning o'rtalarida respublika kinostudiyalari faoliyati, kino ta'limi tizimi va ijodiy muhit rivojlanishi bilan birga kino mahsulotlarining sifati va mavzulari kengaygan. Shu bilan birga, XXI asr boshlarida global raqobat, raqamli texnologiyalar va tomoshabinlarning o'zgaruvchan talablariga javob berish zarurati milliy kinoning sifati va samaradorligini oshirishga undadi.

Davlat tomonidan qabul qilingan kino sohasidagi islohotlar kino mahsulotining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, zamonaviy studiya infratuzilmasini yaratish va kino ta'limini rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, produysseklik faoliyati milliy kino sifatini oshirishdagi muhim omil sifatida ajralib turadi. Produysseklik kino yaratish jarayonida moliyaviy, tashkiliy va kreativ qarorlarni uyg'unlashtirib, filmning muvaffaqiyati va tomoshabinlar qabul qilinishini belgilaydi [1-3].

Milliy kino sanoatining rivojlanishining tarixiy va zamonaviy jarayonlarini tahlil qilish, produysseklik faoliyatining rolini ko'rsatish va kino mahsulotining sifatini oshirishdagi integratsiyalashgan yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola milliy kino rivojlanish strategiyasini shakllantirish, produysseklik tizimini takomillashtirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh kino mahsulotlarini yaratish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishga hissa qo'shadi.



Toshkent kinostudiyasida ishlayotgan ijodkorlar, 1930-yillar.

1-rasm. Toshkent kinostudiyasida ishlayotgan ijodkorlar (1930-yillar)

Adabiyotlar tahlili (Literature review)

Milliy kino sohasidagi tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kino san'ati rivojlanishi va produysserlik faoliyati turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bekniyazova va Karamatdinova (2022) milliy kino tarixini batafsil tahlil qilib, uning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonidagi asosiy bosqichlarni ko'rsatadi. Ushbu manba kino san'atining dastlabki davrlarini, kinostudiyalar tashkil etilishi va ilk kino ijodkorlari faoliyatini yoritishda muhimdir.

Ochilova (2025) mustaqillikdan keyingi davrda teatr va kino san'ati rivojini tahlil qiladi. Maqolada milliy kino sohasida davlat siyosati va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati, shuningdek, kino mahsulotining sifat ko'rsatkichlari va xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi masalalari ko'tarilgan. Shu nuqtai nazardan, davlat islohotlari va strategik qo'llab-quvvatlash kino sanoatining barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida ajralib turadi.

Khaitmatova (2024) esa zamonaviy kino tadqiqotlarida yuzaga kelayotgan muammolar va milliy kino mahsulotlarini xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli qilish strategiyalarini o'rganadi. Bu manba produysserlarning ijodiy qaror qabul qilish qobiliyati va loyihalarni samarali boshqarishdagi rolini ilmiy asosda ko'rsatadi.

Chaqqonov (2025) milliy qadriyatlar va ularning kinoda aks etishini tahlil qiladi. Maqolada zamonaviy o'zbek kinofilmlarida madaniy meros, xalq urf-odatlar va milliy identifikatsiya elementlari qanday ifodalanganligi batafsil ko'rsatilgan. Bu tahlil milliy kino mahsulotining mazmuniy va estetik sifatini oshirishda produysserning roli bilan uzviy bog'liq ekanligini namoyon qiladi.

Abduqayumova (2022) kino publitsistikasining til xususiyatlarini o'rganib, kino mahsulotining kommunikativ va estetik jihatlarini ilmiy tahlil qiladi. Bu manba kino tili, ssenariy uslubi va produysserning ijodiy qarorlari bilan bevosita bog'liq.

Karimova (2020, 2021) va Nazarova (2020) esa milliy kino sanoatining iqtisodiy, ijtimoiy va tarixiy jihatlarini o'rganadi. UNESCO nashri (Karimova, 2020) kino sanoatining ijtimoiy-iqtisodiy rolini tahlil qilsa, Karimova (2021) milliy kino tarixini fotosurat va hujjatlar bilan boyitib, kino ijodining tarixiy evolyutsiyasini ko'rsatadi. Nazarova (2020) esa hujjatli kinoning rivojlanishi va xalqaro maydondagi o'rni haqida ilmiy xulosalar beradi.

Akbarov (1965) milliy kino tarixining dastlabki 30 yilligini tahlil qilgan klassik manba bo'lib, kino san'atining rivojlanish bosqichlarini batafsil yoritadi. Sulaymonov (2024) esa kinooperatorlik san'ati va tarixiy filmlarda texnik va vizual yondashuvlarni tahlil qiladi, milliy kino ijodiy tizimining muhim jihatlarini ko'rsatadi.

Shu tarzda, barcha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy kino sanoati rivojlanishi uchun tarixiy tajriba, davlat siyosati, produysserlik mahorati va kino ta'limi o'rtasida uzviy bog'liqlik zarur. Tadqiqotlar milliy kino mahsulotining sifatini oshirish, xalqaro maydonda raqobatbardoshligini kuchaytirish va innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

Metodologiya (Methodology)

Ushbu tadqiqot milliy kino sanoatidagi islohotlar va produysserlik mahoratini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy metodologiya asosida amalga oshirildi. Tadqiqot metodlari sifatida tarixiy-tahliliy, solishtirma, statistik va amaliy yondashuvlar qo'llanildi. Tarixiy-tahliliy metod milliy kino rivojlanishining bosqichma-bosqich jarayonini, davlat siyosati va kino sohasidagi islohotlarning samaradorligini aniqlashda ishlatiladi. Shu bilan birga, solishtirma metod yordamida O'zbekiston kino sanoati va xalqaro kinoning rivojlanish tajribalari taqqoslandi, milliy kino mahsulotining sifat va samaradorligini oshirishdagi produysserlik malakasining o'rni aniqlab olindi.

Tadqiqot jarayonida statistik metodlar kino mahsulotlarining tomoshabinlar soni, moliyaviy natijalar, xalqaro tan olinishi va kinostudiyalarning ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini tahlil qilishga imkon berdi. Bu metod milliy kino sanoatidagi islohotlar samaradorligini ob'ektiv baholash va produysserlik faoliyatining natijalarga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, amaliy metodlar kino ishlab chiqarish jarayonidagi produysserlarning faoliyati, qaror qabul qilish jarayonlari, ijodiy va moliyaviy mas'uliyatlarini kuzatish va tahlil qilishda qo'llanildi. Tadqiqot davomida intervyular, so'rovnomalar va kino studiyalari bilan amalga oshirilgan amaliy uchrashuvlar asosida ma'lumotlar to'plandi. Bu yondashuv produysserlik faoliyatining real sharoitda qanday amalga oshirilishini aniqlash va kino mahsulotining sifatini oshirishda samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi [4-6].

Tadqiqot metodologiyasining integratsiyalashgan yondashuvi tarixiy, solishtirma, statistik va amaliy metodlarni birlashtirish orqali milliy kino sohasidagi islohotlarning samaradorligini va produysserlik malakasining ahamiyatini aniq ko'rsatishga imkon berdi. Shu bilan birga, metodlar bir-birini to'ldirib, tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini ta'minladi va milliy kino sanoatining rivojlanish istiqbollarini aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar va Muhokama (Results and Discussions)

Tadqiqot natijalari milliy kino sanoatidagi islohotlar va produysserlik mahoratining o'zaro bog'liqligini aniq ko'rsatdi. Milliy kino sohasida amalga oshirilgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar, jumladan, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, kinostudiyalar

infratuzilmasini rivojlantirish va kino ta'limini kengaytirish, kino mahsulotining sifatini oshirish va xalqaro maydonda raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, produysserlarning malakasi, kreativ qaror qabul qilish qobiliyati va moliyaviy mas'uliyati filmning muvaffaqiyati va tomoshabinlar qabulini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, produysserning faoliyati va kino mahsulotining sifat ko'rsatkichlari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Masalan, malakali produysser boshchiligidagi loyihalar tomoshabinlar tomonidan yuqori baholanadi va xalqaro kinofestivallarda tan olinadi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi va ijodiy jarayonning uyg'unlashtirilishi filmning muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy kino sohasida amalga oshirilgan islohotlar va produysserlik faoliyati bir-birini to'ldiruvchi elementlar sifatida qaraladi. Davlat tomonidan yaratilgan qo'llab-quvvatlash tizimi produysserlarga ijodiy va tashkiliy imkoniyatlarni kengaytiradi, shu bilan birga xalqaro miqyosda raqobatbardosh kino mahsulotlarini yaratishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, milliy kino rivojlanishida strategik rejalashtirish va resurslarni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi [7,8].



2-rasm. Toshkent kinostudiyasining dastlabki yillari (1920–1940-yillar). Milliy kino sanoatining shakllanish bosqichi.

Rasmda Toshkent kinostudiyasining dastlabki yillaridagi film ishlab chiqarish jarayoni ko'rsatilgan. Kameraman eski kino kamerasi bilan ishlayotganda, produysser (yoki rejissor) esa sahnani nazorat qilmoqda. Aktyorlar milliy liboslarda film sahnasini ijro etmoqda. Rasm milliy kino sanoatining ilk shakllanish bosqichini vizual tarzda yoritadi va maqola matnida tarixiy kontekstni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, milliy kinoning xalqaro maydondagi muvaffaqiyati faqat texnologik infratuzilma yoki moliyaviy qo'llab-quvvatlashga bog'liq emas, balki produysserlarning ijodiy qaror qabul qilish va loyihalarni samarali boshqarish qobiliyati bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, kino ta'limi tizimi va professional treninglar produysserlik malakasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, milliy kino rivojlanishini ta'minlash uchun kompleks yondashuv, ya'ni islohotlar, produysserlik malakasi va ta'lim tizimi birgalikda takomillashtirilishi lozim.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, milliy kino sanoatida samarali produysserlik tizimi mavjud bo'lganda, kino mahsulotining sifat ko'rsatkichlari oshadi, tomoshabinlar qoniqishi kuchayadi va xalqaro maydonda tan olinishi osonlashadi. Shu bilan birga, davlat siyosati va moliyaviy qo'llab-quvvatlash produysserlarning ijodiy va tashkiliy imkoniyatlarini kengaytirib, milliy kinoning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi [9,10].



3-rasm. Zamonaviy O'zbek kino setida film jamoasi va ekipajning ishlashi: prodyusserlik jarayonining amaliy jihatlari.

Rasmda zamonaviy o'zbek kino setidagi ishlab chiqarish jarayoni aks ettirilgan. Aktyorlar sahnani ijro etayotganda, kamera operatori va texnik ekipaj ularni suratga oladi, prodyusser esa sahna va jamoaning ishlashini muvofiqlashtiradi. Ushbu vizual material kino prodyusserlik jarayonidagi amaliy ishlarni, jumladan ijodiy va tashkiliy koordinatsiyani ko'rsatadi. Shuningdek, rasm film ishlab chiqarishning real jarayonini va zamonaviy milliy kino sanoatidagi prodyusserning roli hamda mas'uliyatini ilmiy jihatdan yoritishda yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, milliy kino sanoati rivojlanishining kelajak strategiyasi prodyusserlik malakasi, islohotlar va ta'lim tizimi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu yondashuv milliy kino mahsulotini sifat jihatidan takomillashtirish va xalqaro maydonda muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa (Conclusion)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy kino sanoatining barqaror rivojlanishi davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va prodyusserlik mahoratining uyg'unlashgan ta'siriga bog'liqdir. Milliy kino sohasidagi siyosiy va iqtisodiy islohotlar, jumladan, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kinostudiyalar infratuzilmasini rivojlantirish, kino ta'limini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kino mahsulotining sifatini oshirish va xalqaro maydonda tan olinishi uchun muhim asos yaratadi. Shu bilan birga, prodyusserlarning kreativ qaror qabul qilish qobiliyati, moliyaviy va tashkiliy mas'uliyati filmning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, malakali prodyusser boshchiligidagi loyihalar tomoshabinlar qoniqishi va xalqaro kinofestivallarda tan olinishi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishadi. Shu nuqtai nazardan, milliy kino rivojlanishining samarali strategiyasi prodyusserlik malakasini oshirish, davlat islohotlarini mustahkamlash va kino ta'limini rivojlantirishdan iborat kompleks yondashuvni talab qiladi.

Shu bilan birga, milliy kino mahsulotining sifatini oshirish va raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun prodyusserlarning ijodiy va tashkiliy qobiliyatlarini mustahkamlash zarur. Davlat siyosati va moliyaviy qo'llab-quvvatlash prodyusserlarga ijodiy va strategik qarorlarni amalga oshirish imkonini beradi, bu esa kino sanoatining barqaror va sifatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Natijada, milliy kino sanoatining kelajakdagi rivojlanish strategiyasi prodyusserlik malakasi, islohotlar va ta'lim tizimi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu yondashuv nafaqat milliy kino mahsulotining sifatini oshiradi, balki xalqaro maydonda muvaffaqiyatga erishish imkonini ham beradi. Shu tarzda, milliy kino sanoati innovatsion, raqobatbardosh va barqaror tizim sifatida shakllanadi.

Adabiyotlar

1. Bekniyazova, G., & Karamatdinova, U. (2022). *O'zbekistonda kino san'atining paydo bo'lishi hamda rivojlanishi*. International Scientific- Online Conference Proceedings.
2. Ochilova, K. I. (2025). *Development of theater and film arts in Uzbekistan in the post-independence years*. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 41.
3. Khaitmatova, S. A. (2024). *Actual tasks of modern film studies in Uzbekistan*. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(6), 28-33.
4. Chaqonov, J. S. (2025). *Interpretation of national values in modern Uzbek cinema*. *International Journal of Artificial Intelligence*, 647- 650.
5. Abduqayumova, S. A. (2022). *O'zbek kino publitsistikasining til xususiyatlari*. *CyberLeninka*.
6. Karimova, N. (2020). *Film industry in Uzbekistan and its contribution to social and economic development*. UNESCO.
7. Nazarova, G. R. (2020). *Contemporary Uzbek documentary films: Past, present and future*. *JournalNX: A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11).
8. Akbarov, H. (1965). *Yetuklik, o'zbek kinosining 30 yillik yo'li* (1-45). Toshkent: Kino san'ati nashriyoti.
9. Sulaymonov, E. A. (2024). *O'zbek tarixiy filmlarida kinooperatorlik san'atining rivojlanish bosqichlari* (pp. 160- 163). *Modern Science and Research*, 3(12).
10. Karimova, N. (2021). *O'zbekiston kino san'ati* (pp. 1-500). Toshkent: Kinochilar uyi.

Ochilova Nilufar Ulmasovna

Doctoral student of Bukhara State Pedagogical Institute

onilufar471@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2975-8136>

UDK 37.013.46

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 14th February 2026

IMPROVING DIDACTIC CONDITIONS IN HIGHER EDUCATION: SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS

В Статье 16 речь идёт о поддержке обменов в области культуры, искусства, образования, туризма и спорта, содействию свободным информационным обменам. Особо подчёркивается вопрос поощрения изучению узбекского языка в РФ и языков народов России в Узбекистане.

В Статье 17 стороны обязались придерживаться принципа открытости границ и принимать необходимые меры для обеспечения свободного въезда, выезда и передвижения граждан своих стран по территории Узбекистана и России. В Статье 18 закрепляется согласие сторон сотрудничать в области культурного наследия.[1]

В том же 1993 году было заключено «Соглашение между Правительством Российской Федерации и Правительством Республики Узбекистан о сотрудничестве в области культуры, науки и техники, образования, здравоохранения, информации, спорта и туризма». В преамбуле этого документа были зафиксированы важнейшие для «культурной независимости» Узбекистана моменты. В частности, стороны, «учитывая новый характер взаимоотношений, возникший в силу суверенного равенства Республики Узбекистан и Российской Федерации, подтверждая право каждого государства и народа самостоятельно разрабатывать и проводить свою социальную и культурную политику, устанавливать культурные и иные связи».[2]

Дополнило этот документ «Соглашение между Правительством Российской Федерации и Правительством Республики Узбекистан о сотрудничестве в области высшего образования (1995г.)»[3]

В 1999 году было заключено ещё одно системообразующее соглашение – «Соглашение между правительствами Республики Узбекистан и Российской Федерации о сотрудничестве в области информации». Данный документ нормативно закрепил двустороннее информационное сотрудничество. В Статье 9 стороны обязались в соответствии с требованиями национального законодательства «создавать благоприятные условия для деятельности на территории своих государств редакций средств массовой информации на языках народов государства другой Стороны, в том числе представляющих их национально-культурные организации и объединения».[4]

Значительный импульс двустороннему сотрудничеству в гуманитарной сфере дало заключённое в 2006 году «Соглашение между Правительством Республикой Узбекистан и Правительством Российской Федерации об учреждении и условиях деятельности информационно-культурных центров».[5]

Вместе с тем, для сбалансирования российского культурно-гуманитарного влияния Узбекистан в период 1991-2016гг. активно развивал связи в этой области с ведущими западными и азиатскими странами. Среди них, Великобритания, США, Германия, Франция, Китай, Турция, Япония, Республика Корея, Индия. Были открыты культурные, образовательные и языковые центры этих стран в Узбекистане, запущены образовательные грантовые программы, которые позволили узбекским студентам и специалистам проходить стажировку в зарубежных университетах.

Заключение

В целом, подводя предварительный итог оценке месту и роли фактора России во внешней политике независимого Узбекистана до 2016 года, можно отметить, что Республика Узбекистан после распада СССР удалось успешно выстроить новую модель

отношений с Москвой в области безопасности, экономики и гуманитарной сфере. В результате были достигнуты три цели стратегической значимости:

1. Узбекистан смог утвердить себя в статусе равного и независимого государства в диалоге с РФ. Это была сложная задача по причине исторической инерции, поскольку территория современного Узбекистана вошла в орбиту влияния России ещё во второй половине XIX века и в силу этого воспринималась элитой РФ как неотъемлемая часть естественной сферы российского политического, экономического и культурного влияния.

2. Узбекистан отстаивал своё право выступать как полноценный актор международных отношений и принимать суверенные решения в отношении диверсификации своих политических, экономических и гуманитарных связей на внешней арене.

3. Узбекистану удалось сохранить и укрепить дружественный характер отношений с Россией, которая стала воспринимать республику как естественного и конструктивного партнёра и союзника, а также выгодного экономического партнёра в Центральной Азии.

Литература/Literature

1. Матякубов, Х.Х. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи—Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.
2. Ниязов, У. И. Узбекистан и Россия: гуманитарное сотрудничество после 1991 года. — Ташкент: Академия, 2021.
3. Алимов, Р. М. Узбекская диаспора в России: идентичность и интеграция. — Санкт-Петербург: Центр этнополитических исследований, 2020.
4. Гаджиева, А. А. Цифровизация как инструмент культурной дипломатии. — Москва: МГИМО-Университет, 2023.
5. Жураева, М., & Исаева, З. (2025). Исторические связи России и Узбекистана: от древности до наших дней. В *theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences* (т. 4, выпуск 12, сс. 80–84). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15478609>
6. Официальные сайты филиалов МГУ, МГИМО, РАНХиГС в Узбекистане.
7. Сидоренко, Н. В. Международное гуманитарное сотрудничество в Центральной Азии: неправительственные организации в регионе и их роль / Н. В. Сидоренко, С. А. Сейидли // История. Культурология. Политология. — 2022. — № 3. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnoe-gumanitarnoe-sotrudnichestvo-v-tsentralnoy-azii-nepravitelstvennye-organizatsii-v-regione-i-ih-rol> (дата обращения: 20.05.2025).
8. Королев, А. С. Особенности гуманитарного сотрудничества РФ со странами Центральной Азии на современном этапе / А. С. Королев // Ойкумена. Регионоведческие исследования. — 2024. — № 2 (69). — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-gumanitarnogo-sotrudnichestva-rf-sostranami-tsentralnoy-azii-na-sovremennom-etape> (дата обращения: 20.05.2025).

9. Рахимов С. Торгово-экономическое сотрудничество Узбекистана в рамках СНГ // Демократизация и права человека. 2018, №1 (77).
10. Бобоёров М. О., Очилов М. М. "Ўзбекистон ва Россия стратегик алоқалари: ҳамкорлик динамикаси ва янги ёндашувлар" // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. 2022.
11. Ступаков Н. В. "Состояние и перспективы сотрудничества Российской Федерации и Республики Узбекистан" // Международное сотрудничество. 2023.

Сноски/Iqtiboslar/References:

1. <https://lex.uz/docs/2589559>
2. <https://lex.uz/uz/docs/2737559>
3. <https://lex.uz/docs/2470234>
4. <https://lex.uz/docs/2896036>
5. <https://lex.uz/docs/2176590?otherlang=3>

Eshpulotov Suxrob
O'zR FA O'zbekiston tarixi muzeyi
mustaqil tadqiqotchisi

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 24th February 2026

**SAMARQAND DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASI KOLLEKSIYALARI
ASHYOLARIDA QADIMGI DAVR MODDIY MADANIYATINING RIVOJLANISHI**

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston hududidan topilgan qadimgi davr arxeologik kolleksiyalarining sivilizatsion jarayonlarni yoritishdagi ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm va Farg'ona vodiysi hududlaridan aniqlangan ilk temir va antik davrga oid arxeologik majmualar hududiy-madaniy va xronologik jihatdan solishtirma o'rganiladi. Talibarzu, Afrosiyob, Ayritom, Qadimgi Termiz, Jonbosqal'a, Tuproqqal'a kabi shaharlardan topilgan kolleksiyalar asosida shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo-iqtisodiy aloqalar va diniy qarashlar evolyutsiyasi aniqlashtiriladi. Natijalar O'zbekiston hududida miloddan avvalgi I ming yillikdan boshlab shahar madaniyati va davlatchilik elementlari shakllanganini, Kushonlar davrida esa xalqaro savdo va diniy markazlar rivojlanganini ko'rsatadi. Tadqiqot qadimgi davr arxeologik kolleksiyalari tarixiy jarayonlarni rekonstruksiya qilish va muzey ekspozitsiyalarini ilmiy asosda talqin etishda muhim manba ekanini asoslaydi.

Kalit so'zlar: qadimgi davr, arxeologik kolleksiya, ilk temir davri, antik davr, shaharsozlik, Kushonlar, Afrosiyob, Tuproqqal'a, moddiy madaniyat, muzey ekspozitsiyasi

**DEVELOPMENT OF ANCIENT MATERIAL CULTURE IN THE COLLECTIONS OF
THE SAMARKAND STATE MUSEUM-RESERVE**

Annotation. The article analyzes the scientific significance of archaeological collections of the ancient period found in the territory of Uzbekistan in shedding light on civilizational processes. The study provides a comparative territorial-cultural and chronological study of archaeological complexes of the Early Iron Age and Antiquity discovered in the territories of Samarkand, Surkhandarya, Kashkadarya, Khorezm and the Fergana Valley. Based on the collections found in cities such as Talibarzu, Afrosiyob, Ayritom, Ancient Termez, Jonboskala, Tuproqkala, the evolution of urban planning, crafts, trade and economic relations and religious views is clarified. The results show that elements of urban culture and statehood were formed in the territory of Uzbekistan from the 1st millennium BC, and during the Kushan period, international trade and religious centers developed. The study substantiates that archaeological collections of the ancient period are an important source for reconstructing historical processes and interpreting museum expositions on a scientific basis.

Keywords: ancient period, archaeological collection, early Iron Age, antiquity, urban planning, Kushans, Afrosiyob, Tuproqqala, material culture, museum exposition

РАЗВИТИЕ ДРЕВНЕЙ МАТЕРИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В КОЛЛЕКЦИЯХ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА

Аннотация. В статье анализируется научное значение археологических коллекций древнего периода, найденных на территории Узбекистана, для понимания цивилизационных процессов. В исследовании представлено сравнительное территориально-культурное и хронологическое исследование археологических комплексов раннего железного века и античности, обнаруженных на территориях Самарканда, Сурхандарьи, Кашкадарьи, Хорезма и Ферганской долины. На основе коллекций, найденных в таких городах, как Талибарзу, Афросиёб, Айритом, Древний Термез, Джонбоскала, Тупроккала, уточняется эволюция градостроительства, ремесел, торгово-экономических связей и религиозных взглядов. Результаты показывают, что элементы городской культуры и государственности формировались на территории Узбекистана начиная с 1-го тысячелетия до н.э., а в кушанский период развивались центры международной торговли и религии. Исследование подтверждает, что археологические коллекции античного периода являются важным источником для реконструкции исторических процессов и научной интерпретации музейных экспозиций.

Ключевые слова: античный период, археологическая коллекция, ранний железный век, античность, градостроительство, кушаны, Афросиёб, Тупроккала, материальная культура, музейная экспозиция

Kirish

Qadimgi davr arxeologik ashyolari insoniyat jamiyatining ilk sivilizatsion bosqichlarini o'rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida O'zbekiston hududida temirchilikning paydo bo'lishi va temirning keng qo'llanilishi ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, harbiy ishning rivojlanishi hamda shaharsozlik jarayonlarining jadallashuviga olib kelgan. Ushbu davrga oid arxeologik kolleksiyalar ilk shaharlar, mudofaa inshootlariga ega manzilgohlar va davlatchilik elementlarining shakllanish jarayonlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston hududidan topilgan qadimgi davr kolleksiyalari O'rta Osiyoda antik sivilizatsiyalar shakllanishi, shahar madaniyatining rivoji, hunarmandchilik va savdo-iqtisodiy aloqalar, diniy-mafkuraviy qarashlar evolyutsiyasini o'rganish hamda muzey ekspozitsiyalarida talqin qilish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Metodlar

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston hududining turli mintaqalaridan topilgan va muzey fondlarida saqlanayotgan arxeologik kolleksiyalar tahlil qilindi. Asosiy topilmalar Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm va Farg'ona vodiysi hududlaridan aniqlangan majmualar hisoblanadi.

Kolleksiyalar hududiy-madaniy mansubligi, xronologiyasi va funksional xususiyatlari bo'yicha solishtirma tahlil qilindi. Shuningdek, yodgorliklar va manzilgohlar kontekstida ularning shaharsozlik, hunarmandchilik, diniy va harbiy madaniyatga oid ko'rsatkichlari aniqlashtirildi.

Natijalar

Samarqandda mavjud bo'lgan 13 ta muzey ekspozitsiyalarida namoyish etilmoqda. Ushbu muzeylar 1982-yilda yagona Samarqand davlat muzey-qo'riqxonaga birlashtirilgan. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasiga birlashgan muzeylar: O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi, Viloyat o'lkashunoslik muzeyi, Samarqand shahri tarixi-Afrosiyob muzeyi, Mirzo Ulug'bek muzey-majmuasi, Sadridin Ayniy uy-muzeyi, Xo'ja Abdulaziz Abdurasulov uy-muzeyi, Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi, Buyuk ipak yo'li tarixi: O'zbekiston-Xitoy munosabatlari tarixi muzeyi, Xalqlar do'stligi tarixi muzeyi, Ergash Jumanbulbul o'g'li yodgorlik muzeyi, Ishtixon tumani tarixi muzeyi, Kattaqo'rg'on shahar o'lkashunoslik muzeyi, Paxtachi tumani tarixi muzeylari hisoblanadi. Shundan, jami 8 ta muzeyda: O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi, Viloyat o'lkashunoslik muzeyi, Samarqand shahri tarixi-Afrosiyob muzeyi, Mirzo Ulug'bek muzey-majmuasi, Buyuk ipak yo'li tarixi: O'zbekiston-Xitoy munosabatlari tarixi muzeyi, Ishtixon tumani tarixi muzeyi, Kattaqo'rg'on shahar o'lkashunoslik muzeyi, Paxtachi tumani tarixi muzeylarida arxeologik eksponatlar namoyish qilinadi.

Lekin ko'rsatilgan 8 ta muzeyning hammasi ham arxeologiya fondiga ega emas. Hozirda muzey-qo'riqxonadagi 6 ta muzeyda (O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi, Samarqand viloyat o'lkashunoslik muzeyi, Afrosiyob muzeyi, Kattaqo'rg'on shahar o'lkashunoslik muzeyi, Paxtachi tumani tarixi muzeyi, Ishtixon tumani tarixi muzeyi) arxeologik kolleksiyalar fondi mavjud bo'lib, ulardagi ashyolarning umumiy soni 75 mingdan oshadi.

Muzey-qo'riqxonasi arxeologik kolleksiyalari xronologik jihatdan o'rta paleolit davridan to XIX asrgacha bo'lgan katta davrni o'z ichiga oladi. O'zbekiston tarixini davrlashtirishning umumqabul qilingan prinsiplariga muvofiq muzey-qo'riqxonaning mavjud arxeologik kolleksiyalaridan kelib chiqib quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

- o'rta paleolit (miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklar)
- yuqori paleolit (miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklar)
- neolit (miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklar)
- eneolit (miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklar)
- bronza (miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklar)
- qadimgi davr (miloddan avvalgi I ming yillik boshlari-milodiy V asrlar)
- ilk o'rta asrlar (V-IX asrlar)
- rivojlangan o'rta asrlar (IX-XIII asrlar)
- temuriylar davri (XIV-XV asrlar)
- xonliklar davri (XVI-XIX asrlar)

Ushbu maqolada muzey-qo'riqxonaning qadimgi davrga oid kolleksiyalari tahlil qilindi.

Qadimgi davr ashyolari qadimgi jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini ko'rsatib beruvchi manbalar hisoblanadi. Bu davrda temirchilikning paydo bo'lishi va temirning qo'llanilishi ishlab chiqarish kuchlarining o'sishiga, harbiy ishning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Miloddan avvalgi I ming yillik boshlariga oid ashyolar ilk shaharlar, mudofaa devoriga ega manzilgohlar va davlatchilik elementlarilarining shakllanish jarayonlarini yoritishda qo'l keladi.

Rossiya moddiy madaniyat instituti xodimi V. Grigoryev tomonidan Samarqand viloyatida joylashgan Talibarzu shaharchasidan aniqlangan ilk temir davriga oid yirik arxeologik majmualar hududning siyosiy va iqtisodiy markazlardan biri bo'lganini ko'rsatadi. Miloddan avvalgi VIII asrga oid 2363 dona arxeologik ashyolar¹ (A-180) hamda 1431 dona

¹ O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 7 sonli inventar kitob 1-155 betlar

buyumdan iborat ikkinchi kolleksiya² (A-181) hududda hunarmandchilik, savdo va xo'jalik faoliyatining yuqori darajada rivojlanganini tasdiqlaydi. Ushbu kolleksiyalar Talibarzuning ilk temir davrida yirik markaz sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Bu davrning harbiy-madaniy jihatlarini yorituvchi noyob topilmalardan biri Samarqand shahri hududidan aniqlangan sak jangchisining bronza dubulg'asidir³ (A-402, KK-1784). Miloddan avvalgi VI asrga oid mazkur buyum ko'chmanchi va o'troq madaniyatlar o'rtasidagi harbiy-siyosiy aloqalarni yorituvchi muhim manba hisoblanadi. Ushbu ashyo aniq bir madaniy qatlarga ega bo'lmagan, yo'ldosh ashyolarsiz 1951-yilda shaharning janubida yer qazish ishlari vaqtida tasodifan aniqlangan bo'lsada, ko'plab tadqiqotlarga sabab bo'lgan⁴.

Samarqand viloyatidagi Lolazor manzilgohidan topilgan miloddan avvalgi VI asrga oid 331 dona arxeologik ashyolar majmuasi⁵ (A-483, KK-4052), akademik A. Asaqarov tomonidan Surxondaryo viloyatidagi Pishaktepa yodgorligidan aniqlangan miloddan avvalgi VII–VI asrlarga mansub 17 dona arxeologik ashyolar esa mintaqada temir davri madaniyatining taraqqiyotini yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi⁶ (A-497, KK-4169).

Afrosiyob shaharchasidagi arxeologik qazishmalarda aniqlangan sopol buyumlar qadimgi dunyoda Samarqand hududining yirik madaniy va siyosiy markazga aylanganini ko'rsatadi. R-25/6 qazishma hududidan topilgan miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid 53 dona sopol buyumlar majmuasi⁷ (OA-1, KK-4795/1), tashqi devor ostida o'tkazilgan qazishmalar natijasida aniqlangan 25 dona sopol buyum bo'kalari⁸ (OA-75, KK-4875/13) hamda R-6 qazishma hududidan topilgan 6 dona sopol buyumlar⁹ (OA-99, KK-4991/3) vositasida Afrosiyob muzeyida hunarmandchilik ishlab chiqarishi va shahar infratuzilmasining qay tarzda rivojlanganini ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, Samarqand shahridagi H. Olimjon nomidagi drama teatri hududidan aniqlangan miloddan avvalgi VII-VI asrlarga oid 296 dona bronza va suyakdan ishlangan buyumlar majmuasi ilk temir davrida ham bronzaning to'liq siqib chiqirilmaganligini tasdiqlaydi (OA-98, KK-4991/2). Shu bilan birga mazkur kolleksiya Afrosiyobdan tashqarida ham bu davrda o'z davri uchun yirik aholi manzilgohlari bo'lganligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga qadimgi davrga oid arxeologik kolleksiyalar O'rta Osiyoda antik davr sivilizatsiyalarining shakllanishi, shahar madaniyatining rivoji, hunarmandchilik, savdo-iqtisodiy aloqalar va diniy-mafkuraviy qarashlarni muzeylar ekspozitsiyasida ko'rsatib beruvchi muhim manbadir. Bu davr ashyolari hududda yunon, kushon sulolalari va ilk o'rta asrlarga o'tish jarayonlari ham ekspozitsiyalarda yoritib berishi mumkin.

Surxondaryo viloyatida joylashgan Ayritom va Qadimgi Termiz hududlarida vizual kuzatuvlar natijasida yig'ilgan kolleksiyalar kushonlar sulolasi davrida O'zbekiston hududida moddiy madaniyatning yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Ayritomdan aniqlangan 49 dona ashyolar (A-110) hamda Qadimgi Termizdan topilgan 220 dona buyumlar¹⁰ (A-111) hududda shaharsozlik, hunarmandchilik va diniy markazlar faol bo'lganini tasdiqlaydi.

² O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 66 sonli inventar kitob 36-139 betlar

³ O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 45 sonli inventar kitob 68-69 betlar

⁴ Кузьмина Е.Е. Бронзовый шлем из Самарканда. Советская археология, № 4, 1958. С. 120-121.

⁵ O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 59 sonli inventar kitob 27-57 betlar

⁶ Аскаров А. Раскопки Пшактепа на юге Узбекистане. ИМКУ, вып.17. Ташкент-1987. 198 с. С.30-41

⁷ Afrosiyob muzeyi arxeologik kolleksiyalar 1-inventar kitobi 1-9 betlar.

⁸ Afrosiyob muzeyi arxeologik kolleksiyalari 2-inventar kitobi 117-bet

⁹ Afrosiyob muzeyi arxeologik kolleksiyalari 2-inventar kitobi 181-bet

¹⁰ O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 5 sonli inventar kitob 71-122 betlar

Qadimgi Termiz shaharchasiga oid IV-V asrlarga mansub ipak mato namunalari¹¹ (A-509, KK-4574) hamda Qoratepadan topilgan stupa asosi¹² (A-518, KK-4719) hududda buddaviylik madaniyati va ipak yo'lidagi savdo aloqalari tarixini yoritishda muhimdir.

Samarqand vohasiga oid kolleksiyalar qadimgi davr tadqiqotlarida alohida o'rin tutadi. C-65 raqamli tepa¹³ (A-142), Mamatqultepa (A-154), Qo'rg'ontog'tepa (A-156) kabi yodgorliklardan topilgan ashyolar¹⁴ antik davr da vohada uzluksiz aholi yashaganini ko'rsatadi. Afrosiyob yodgorligidan aniqlangan ko'plab sopol, bronza va diniy yo'nalishdagi buyumlar shahar madaniyatining yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Jumladan, Anaxita xudosiga oid haykalcha qolipi¹⁵ (A-401, KK-2829), sopol haykalchalar bosh qismlari¹⁶ (A-409, KK-3512), turli bu davrda oid xumlar (A-392, A-568, A-569), shuningdek, ko'plab qazishma hududlaridan topilgan sopol buyumlar majmualari¹⁷ (OA-1, OA-25, OA-55, OA-63, OA-67, OA-69, OA-78) Afrosiyobning antik davrdagi yirik siyosiy va madaniy markaz bo'lganini tasdiqlaydi.

Qashqadaryo viloyatidagi Xovuztepa, Kitob tumanidagi yodgorliklar, Qarshi vohasidagi Qozontepa, Chimqo'rg'on va Pirmatbobo yodgorliklaridan topilgan ashyolar¹⁸ (A-423-427, A-466, A-473, A-614) hududda milodiy III-V asrlarda shahar va qishloq madaniyati barqaror rivojlanganini ko'rsatadi.

Xorazm hududiga oid yirik kolleksiyalar qadimgi davr arxeologiyasida alohida ahamiyatga ega. Dingilja (A-461), Burgutqal'a (A-463) va ayniqsa Jonbosqal'a hamda Tuproqqal'adan topilgan 500 dona arxeologik ashyolar (A-462) Xorazm vohasida antik davr shaharsozlik va davlatchilik an'analari rivojlanganini ko'rsatadi. Tuproqqal'aga oid II-III asrlar kolleksiyasi¹⁹ (A-475) bu hududda markazlashgan boshqaruv va saroy madaniyati mavjud bo'lganini tasdiqlaydi.

Farg'ona, Namangan, Andijon va Qirg'iziston hududlariga oid qabriston va turli manzilgohlar ashyolari²⁰ (A-277, A-630-632) qadimgi davrda hududlararo madaniy aloqalar keng bo'lganini ko'rsatadi. Qovunchi, Go'rmiron, Sur va Obishir yodgorliklaridan topilgan ashyolar dafn marosimlari, etnik jarayonlar va xo'jalik faoliyatini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Shuningdek, harbiy va marosim buyumlari orasida nayza uchi (A-648), bronza qozon (A-652), qo'chqor shoxi shaklidagi tagdon (A-641) kabi topilmalar qadimgi davrda diniy-ramziy tasavvurlar va ijtimoiy tabaqalanish mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Poyonqo'rg'on shaharchasidan aniqlangan sopol haykalchalar va arxeologik ashyolar majmuasi (A-639, A-640) esa antik davr san'ati va tasviriy san'atga oid bilimlarni yoritadi²¹. Qadimgi davrga oid mazkur arxeologik kolleksiyalarda jami 5599 donani tashkil etib, O'zbekistonning deyarli

¹¹ O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 60 sonli inventar kitob 147-149 betlar

¹² O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 71 sonli inventar kitob 13-19 betlar

¹³ XX asrning 30-yillarida Samarqandning bir qancha tumanlarida arxeologik tepaliklarni ro'yxatga olgan I. Suxarev nomsiz tepalarni "C" harfi bilan shifrlaydi. Kirim kitoblarida ham shunday keltirilgan.

¹⁴ O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 6 sonli inventar kitob 92-97, 139-142, 146-148 betlar

¹⁵ O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 45 sonli inventar kitob, 66-67 bet

¹⁶ O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 47 sonli inventar kitob, 10-12 bet

¹⁷ Afrosiyob muzeyi arxeologik kolleksiyalari 1,2 inventar kitoblari

¹⁸ O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 48, 57, 59, 60 sonli inventar kitoblar

¹⁹ O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 50,53 sonli inventar kitoblar

²⁰ O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 9, 72 sonli inventar kitoblar

²¹ O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 72 sonli inventar kitoblar

barcha hududlaridan yig'ilgan. Ular antik sivilizatsiyaning shakllanishi, shahar madaniyatining yuksalishi, diniy qarashlar va xo'jalik tizimlarini yoritib beruvchi manbalardir.

Muhokamlar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hududida miloddan avvalgi I ming yillikdan boshlab sivilizatsion jarayonlar hududiy markazlar atrofida shakllangan. Samarqand, Termiz va Xorazm kabi markazlarda shaharsozlik, hunarmandchilik va diniy madaniyatning rivojlanishi kuzatiladi.

Temir davrida bronza buyumlarning saqlanib qolishi texnologik o'tish jarayoni bosqichma-bosqich kechganini ko'rsatadi. Bu davr ko'chmanchi va o'troq madaniyatlar o'rtasidagi harbiy va madaniy aloqalarni sak dubulg'asi kabi topilmalar orqali namoyish etish mumkin.

Kushonlar davri kolleksiyalari O'rta Osiyoda xalqaro savdo yo'llari va buddaviylik madaniyati tarqalganini ko'rsatadi. Xorazm viloyatiga oid majmualar esa markazlashgan davlat va saroy madaniyati shakllanganini ko'rsatadi.

Shu jihatdan, qadimgi davr arxeologik kolleksiyalari O'zbekiston hududida antik sivilizatsiya shakllanishi, shahar madaniyatining yuksalishi, diniy qarashlar evolyutsiyasi va xo'jalik tizimlari rivojini yorituvchi muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.

Xulosa

O'zbekiston hududidan topilgan qadimgi davr arxeologik kolleksiyalarining tahlili miloddan avvalgi I ming yillikdan boshlab mintaqada sivilizatsion jarayonlar jadal kechganini ko'rsatadi. Samarqand vohasidagi Talibarzu va Afrosiyob majmualari ilk temir davrida shahar markazlari va hunarmandchilik ishlab chiqarishi shakllanganini tasdiqlaydi. Surxondaryo hududidagi Ayritom va Qadimgi Termiz kolleksiyalari Kushonlar davrida shaharsozlik, diniy markazlar va xalqaro savdo aloqalari rivojlanganini ko'rsatadi. Xorazm vohasidagi Jonbosqal'a va Tuproqqal'a majmualari esa antik davrda markazlashgan boshqaruv va saroy madaniyati mavjud bo'lganini dalillaydi.

Shuningdek, bronza va temir buyumlarning bir davrda qo'llanishi texnologik o'tish jarayonining bosqichma-bosqich kechganini, harbiy va marosim buyumlari esa ijtimoiy tabaqalanish va diniy tasavvurlar shakllanganini ko'rsatadi. Farg'ona vodiysi va unga tutash mintaqalardan topilgan ashyolar qadimgi davrda keng madaniy aloqalar mavjud bo'lganini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda 5599 donadan iborat qadimgi davr arxeologik kolleksiyalari O'zbekiston hududida antik sivilizatsiya shakllanishi, shahar madaniyatining yuksalishi, diniy qarashlar evolyutsiyasi va xo'jalik tizimlari rivojini yorituvchi ishonchli tarixiy manba hisoblanadi. Ular ilmiy rekonstruksiya va muzey ekspozitsiyalarini mazmunan boyitishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 7 sonli inventar kitob 1-155 betlar
2. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 66 sonli inventar kitob 36-139 betlar
3. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 45 sonli inventar kitob 68-69 betlar
4. Кузьмина Е.Е. Бронзовый шлем из Самарканда. Советская археология, № 4, 1958. С. 120-121.
5. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 59 sonli inventar kitob 27-57 betlar
6. Аскарлов А. Раскопки Пшактепа на юге Узбекистане. ИМКУ, вып.17. Ташкент-1987. 198 с. С.30-41
7. Afrosiyob muzeyi arxeologik kolleksiyalar 1-inventar kitobi 1-9 betlar.
8. Afrosiyob muzeyi arxeologik kolleksiyalari 2-inventar kitobi 117-bet
9. Afrosiyob muzeyi arxeologik kolleksiyalari 2-inventar kitobi 181-bet
10. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 5 sonli inventar kitob 71-122 betlar
11. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 60 sonli inventar kitob 147-149 betlar
12. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 71 sonli inventar kitob 13-19 betlar
13. XX asrning 30-yillarida Samarqandning bir qancha tumanlarida arxeologik tepaliklarni ro'yxatga olgan I. Suxarev nomsiz tepalarni "C" harfi bilan shifrlaydi. Kirim kitoblarida ham shunday keltirilgan.
14. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 6 sonli inventar kitob 92-97, 139-142, 146-148 betlar
15. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 45 sonli inventar kitob, 66-67 bet
16. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 47 sonli inventar kitob, 10-12 bet
17. Afrosiyob muzeyi arxeologik kolleksiyalari 1,2 inventar kitoblari
18. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 48, 57, 59, 60 sonli inventar kitoblar
19. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 50,53 sonli inventar kitoblar
20. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 9, 72 sonli inventar kitoblar
21. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 72 sonli inventar kitoblar

Ruzimova Nigina Muxamedovna

**O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Yoshlar bilan ishlash
bo'yicha dekan o'rinbosari
niginaruzimova@35gmail.com**

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 24th February 2026

MIGRATSIYA SHAROITIDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLAR INSTITUTI TRANSFORMATSIYASINI IZOHLOVCHI SOTSIOLOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada migratsiya jarayonlari sharoitida oila va oilaviy qadriyatlar institutida yuz berayotgan transformatsiyalar sotsiologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Zamonaviy migratsiya oqimlari natijasida oilaning funksional tuzilishi, ichki rollar taqsimoti, gender munosabatlari va qadriyatlar tizimida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar nazariy jihatdan yoritiladi. Tadqiqotda struktur-funksionalizm, konflikt nazariyasi, simbolik interaksionizm hamda transmilliylik konsepsiyasi doirasida oila institutining o'zgarish mexanizmlari izohlanadi. Migratsiya natijasida shakllanayotgan masofaviy oila modeli, transmilliy oilaviy aloqalar va madaniy moslashuv jarayonlarining ijtimoiy oqibatlari ochib beriladi. Maqola migratsiya va oila o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks tushuntirishga hamda keyingi empirik tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, oila instituti, oilaviy qadriyatlar, sotsiologik yondashuvlar, transformatsiya, transmilliy oila, struktur-funksionalizm, ijtimoiy o'zgarish, gender rollari, ijtimoiylashuv.

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБЪЯСНЕНИЮ ТРАНСФОРМАЦИИ ИНСТИТУТА СЕМЬИ И СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ МИГРАЦИИ

Аннотация. В данной статье процессы трансформации института семьи и семейных ценностей в условиях миграции анализируются на основе социологических подходов. В результате современных миграционных потоков теоретически освещаются изменения в функциональной структуре семьи, распределении внутрисемейных ролей, гендерных отношениях и системе ценностей. В исследовании механизмы трансформации института семьи рассматриваются в рамках структурно-функционализма, конфликтной теории, символического интеракционизма, а также концепции транснационализма. Раскрываются социальные последствия формирования модели дистанционной семьи, транснациональных семейных связей и процессов культурной адаптации, возникающих вследствие миграции. Статья направлена на комплексное объяснение взаимосвязи между миграцией и семьёй, а также на формирование теоретической базы для последующих эмпирических исследований.

Ключевые слова: миграция, институт семьи, семейные ценности, социологические подходы, трансформация, транснациональная семья, структурно-функционализм, социальные изменения, гендерные роли, социализация.

**SOCIOLOGICAL APPROACHES TO EXPLAINING THE
TRANSFORMATION OF THE FAMILY INSTITUTION AND FAMILY VALUES
UNDER MIGRATION CONDITIONS**

Abstract. This article analyzes the transformations occurring within the institution of the family and family values under conditions of migration through the lens of sociological approaches. As a result of contemporary migration flows, theoretical insights are provided into changes in the functional structure of the family, the distribution of internal roles, gender relations, and the system of values. The study explains the mechanisms of transformation of the family institution within the frameworks of structural functionalism, conflict theory, symbolic interactionism, and the concept of transnationalism. It reveals the social consequences of emerging models of distant families, transnational family ties, and processes of cultural adaptation shaped by migration. The article aims to provide a comprehensive understanding of the interrelationship between migration and family, as well as to establish a theoretical foundation for further empirical research.

Keywords: migration, family institution, family values, sociological approaches, transformation, transnational family, structural functionalism, social change, gender roles, socialization.

Kirish. Migratsiya jarayonlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylanib, demografik tuzilma, mehnat bozori, madaniy muhit va ijtimoiy institutlar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, migratsiya oila institutining shakli, vazifalari va ichki munosabatlar tizimini qayta ko'rib chiqishga majbur qilayotgan muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Oila tarixan ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi, qadriyatlar uzatilishini amalga oshiruvchi va shaxs ijtimoiylashuvining asosiy muhitini tashkil etuvchi institut hisoblanadi.[1] Biroq mehnat migratsiyasi, ta'lim migratsiyasi hamda majburiy ko'chish jarayonlari natijasida oilaning an'anaviy modeli, rollar taqsimoti va qadriyatlar tizimida sezilarli transformatsiyalar kuzatilmoqda.

Globalizatsiya va transmilliy aloqalarning kuchayishi migratsiyani nafaqat iqtisodiy hodisa, balki murakkab ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida talqin qilishni talab etmoqda. Migratsiya sharoitida oilalar ko'pincha fazoviy jihatdan ajralgan holda yashaydi, masofaviy oila modeli shakllanadi, natijada ota-ona va farzandlar o'rtasidagi kundalik muloqot, nazorat va ijtimoiylashuv mexanizmlari o'zgaradi. Bu esa oila ichidagi rollar qayta taqsimlanishiga, gender munosabatlari transformatsiyasiga hamda qadriyatlar iyerarxiyasining yangilanishiga olib keladi. Shuningdek, qabul qiluvchi jamiyat madaniyati bilan to'qnashuv yoki moslashuv jarayonlari oilaviy me'yor va an'analarni qayta shakllantiradi.[2]

Sotsiologiya fanida migratsiya va oila o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiruvchi bir qator nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, ular mazkur jarayonni turli konseptual doiralarda izohlaydi. Struktur-funksional yondashuv oiladagi funksiyalar o'zgarishiga urg'u bersa, konflikt nazariyalari migratsiya natijasida resurslar, hokimiyat va rollar uchun kurash kuchayishini ko'rsatadi. Simvolik interaksionizm esa migratsiya sharoitida kundalik o'zaro ta'sir va ma'no berish jarayonlari orqali oilaviy identitet qanday qayta qurilishini tushuntiradi. Transmilliylik konsepsiyasi esa chegaralararo oilaviy aloqalar va "transmilliy oila" modelini alohida tadqiqot ob'ekti sifatida ko'rib chiqadi.

Mazkur maqolaning maqsadi migratsiya sharoitida oila va oilaviy qadriyatlar institutining transformatsiyasini izohlovchi asosiy sotsiologik yondashuvlarni tizimli ravishda

tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida turli nazariy maktablarning qarashlari solishtiriladi, migratsiya ta'sirida yuzaga kelayotgan oilaviy o'zgarishlarning mexanizmlari ochib beriladi hamda zamonaviy migratsion jarayonlar sharoitida oila institutining rivojlanish tendensiyalari konseptual jihatdan yoritiladi. Bu yondashuv mavzuni kompleks tushunish va keyingi empirik tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot migratsiya sharoitida oila va oilaviy qadriyatlar institutining transformatsiyasini izohlovchi sotsiologik yondashuvlarni nazariy-tahliliy asosda o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda sifat yo'nalishdagi metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot dizayni konseptual va komparativ tahlil modeliga tayandi, bunda migratsiya va oila institutiga oid klassik hamda zamonaviy sotsiologik nazariyalar tizimli ravishda ko'rib chiqildi. Metodologik asos sifatida struktur-funksionalizm, konflikt nazariyasi, simvolik interaksionizm va transmilliylik konsepsiyalari doirasidagi ilmiy manbalar mazmuniy jihatdan tahlil qilindi hamda o'zaro solishtirildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tanlashda mavzuga bevosita aloqadorlik, nazariy asoslanganlik va konseptual izchillik mezonlari qo'llanildi. Migratsiya, oila sotsiologiyasi va ijtimoiy transformatsiya yo'nalishidagi monografiyalar, ilmiy maqolalar va konseptual tadqiqotlar kontent-tahlil usuli orqali o'rganildi. Manbalardagi asosiy tushunchalar, kategoriyalar va izoh modellari ajratib olinib, ularning oila institutidagi o'zgarishlarni tushuntirish imkoniyati tahlil qilindi.[3] Shuningdek, turli yondashuvlarning migratsiya ta'sirini izohlashdagi o'xshash va farqli jihatlari komparativ usul orqali ochib berildi.

Metodologik yondashuv doirasida tizimli tahlil usuli ham qo'llanilib, oila instituti ijtimoiy tizimning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi va migratsiya omili bilan o'zaro ta'siri ko'p darajali model asosida sharhlandi. Interpretativ tahlil yordamida nazariy qarashlarning mazmuni chuqurlashtirildi hamda ularning amaliy ijtimoiy jarayonlarga tatbiq etilish imkoniyatlari baholandi. Shu tarzda tanlangan metodologiya migratsiya sharoitida oilaviy qadriyatlar transformatsiyasini turli sotsiologik nuqtai nazarlar orqali kompleks va izchil yoritish imkonini berdi (1-jadval).

1-jadval. Migratsiya sharoitida oila va oilaviy qadriyatlar transformatsiyasini izohlovchi asosiy sotsiologik yondashuvlar

Sotsiologik yondashuv	Asosiy vakillar	Oila institutiga qarashi	Migratsiya ta'sirini izohlash modeli	Transformatsiya talqini
Struktur-funksionalizm	T. Parsons, R. Merton	Oila — jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy institut	Migratsiya oila funksiyalarining qayta taqsimlanishiga olib keladi	Rollar va vazifalar moslashadi, ayrim funksiyalar zaiflashadi yoki yangi shaklga o'tadi
Konflikt nazariyasi	K. Marx, R. Collins	Oila — resurs va hokimiyat taqsimoti maydoni	Migratsiya iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi	Oilada qaror qabul qilish va resurs nazorati o'zgaradi, ziddiyat ehtimoli ortadi
Simvolik	J. Mead, H.	Oila — kundalik o'zaro ta'sir va	Migratsiya sharoitida	Oilaviy qadriyatlar muloqot va tajriba

interaksionizm	Blumer	ma'no almashinuvi muhiti	identitet va rollar qayta talqin qilinadi	orqali yangidan shakllanadi
Transmilliylik yondashuvi	N. Glick Schiller va boshqalar	Oila — chegaralardan tashqarida ham mavjud ijtimoiy tarmoq	Migratsiya transmilliy oilaviy aloqalarni yuzaga keltiradi	Masofaviy oila modeli va ko'p makonli qadriyat tizimi shakllanadi
Modernizatsiya yondashuvi	U. Beck, A. Giddens	Oila — o'zgaruvchan va individuallashtiruvchi institut	Migratsiya modern ijtimoiy jarayonlarni tezlashtiradi	An'anaviy modeldan moslashuvchan va individual modelga o'tish kuchayadi.[4]

Natijalar. Migratsiya sharoitida oila va oilaviy qadriyatlar instituti transformatsiyasini izohlovchi sotsiologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatdiki, turli nazariy maktablar ushbu jarayonni har xil daraja va nuqtai nazardan tushuntiradi, biroq ularning barchasi migratsiya oilaning tuzilmasi, funksiyalari va ichki munosabatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tan oladi. Nazariy manbalar kontent-tahlili natijasida migratsiya ta'siri uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'lishi aniqlandi: oilaviy rollar qayta taqsimlanishi, qadriyatlar iyerarxiyasining yangilanishi va oilaning fazoviy-tashkiliy modeli o'zgarishi. Bu holat deyarli barcha yondashuvlarda turli termin va tushuntirish modellari orqali ifodalangan.[5]


Struktur-funksional yondashuv doirasidagi qarashlar migratsiya natijasida oilaning an'anaviy funksiyalari — iqtisodiy ta'minot, tarbiya, nazorat va ijtimoiylashuv — qisman differensiallashishini ko'rsatadi. Natijalar shuni anglatadiki, mehnat migratsiyasi sharoitida iqtisodiy funktsiya kuchayadi, tarbiyaviy va nazorat funksiyalari esa masofaviy shaklga o'tadi yoki boshqa oila a'zolari zimmasiga yuklanadi. Bu esa oila ichidagi rollar balansining o'zgarishiga olib keladi. Konflikt nazariyasi nuqtai nazaridan esa migratsiya oilada resurslar va qaror qabul qilish ustidan nazoratni qayta taqsimlaydi, natijada gender rollari va hokimiyat munosabatlarida siljish kuzatiladi.

Simvolik interaksionizm asosidagi tahlillar migratsiya sharoitida oilaviy identitet va qadriyatlarning kundalik muloqot, masofaviy aloqa va yangi ijtimoiy tajribalar orqali qayta qurilishini ko'rsatdi. Natijalarga ko'ra, migratsiyada bo'lgan oila a'zolari va vatanda qolgan a'zolar o'rtasidagi munosabatlar yangi ramziy shakllar — raqamli muloqot, pul jo'natmalari, masofaviy ishtirok — orqali mustahkamlanadi. Bu jarayon oilaviy birdamlikni yo'qotmaydi, balki uning ifodalanish shaklini o'zgartiradi. Transmilliylik yondashuvi natijalari esa oilaning bitta hudud bilan cheklanib qolmasdan, ko'p makonli ijtimoiy tizimga aylanishini va "transmilliy oila" modeli barqaror ijtimoiy hodisaga aylanayotganini ko'rsatadi.

Komparativ nazariy tahlil natijalariga ko'ra, zamonaviy migratsiya jarayonlari oila institutini zaiflashtiruvchi emas, balki moslashuvchan shaklga keltiruvchi omil sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Ko'plab yondashuvlarda transformatsiya parchalanish emas, balki qayta tashkil topish sifatida izohlanadi. Shu bois natijalar migratsiya sharoitida oilaviy qadriyatlar yo'qolib ketmasdan, yangi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlarga mos

ravishda yangilanayotganini ko'rsatadi. Bu holat oila institutining dinamik va adaptiv tabiatga ega ekanini nazariy jihatdan tasdiqlaydi.

1-diagramma. Xalqaro migratsiya va oila institutidagi o'zgarishlar



Muhokama. Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, migratsiya sharoitida oila va oilaviy qadriyatlar institutida yuz berayotgan o'zgarishlarni birgina nazariy yondashuv orqali to'liq tushuntirish yetarli emas. Struktur-funksional, konflikt, interaksionistik va transmilliy yondashuvlarning har biri jarayonning muayyan jihatini chuqur ochib beradi, biroq ular birgalikda qo'llangandagina kompleks manzara yuzaga chiqadi. Olingan nazariy-tahliliy natijalar migratsiya oilani faqat zaiflashtiruvchi omil emas, balki uni yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishga majbur qiluvchi transformatsion kuch sifatida ham namoyon bo'layotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, rollar qayta taqsimlanishi va masofaviy oila modelining kengayishi zamonaviy oila tushunchasini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.[6]

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, struktur-funksional talqin oiladagi funksiyalar saqlanib qolishini, lekin ularning bajarilish shakli o'zgarishini asoslaydi. Bu qarash migratsiya tufayli iqtisodiy funksiya kuchayib, tarbiyaviy va nazorat funksiyalari bilvosita yoki masofaviy mexanizmlar orqali amalga oshirilishini izohlaydi. Biroq konflikt nazariyasi natijalari bu jarayonda tengsizlik, qaror qabul qilishdagi nomutanosiblik va gender rollari bo'yicha ziddiyatlar ham kuchayishini ko'rsatadi. Demak, migratsiya oilaviy moslashuv bilan birga ichki ijtimoiy taranglik ehtimolini ham oshiruvchi ikki tomonlama jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Simvolik interaksionizm nuqtai nazaridan olingan xulosalar migratsiya sharoitida oilaviy qadriyatlar kundalik muloqot vositalari, raqamli aloqa va ramziy qo'llab-quvvatlash shakllari orqali qayta ishlab chiqilishini ko'rsatadi. Bu esa oilaviy birdamlik faqat bir makonda birga yashash bilan belgilanmasligini, balki ma'no va aloqalarning uzluksizligi bilan ham o'lchanishini bildiradi. Transmilliylik yondashuvi bilan uyg'un holda bu holat chegaralararo ijtimoiy maydonda faoliyat yurituvchi "ko'p makonli oila" modelining shakllanayotganini tasdiqlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, migratsiya sharoitida qadriyatlar parchalanmaydi, balki gibril va moslashuvchan tus oladi.[7]

Shu bilan birga, muhokama natijalari mazkur yo‘nalishda empirik tadqiqotlarni kengaytirish zarurligini ham ko‘rsatadi. Nazariy yondashuvlar transformatsiya mexanizmlarini tushuntirib beradi, ammo ularning hududiy, madaniy va iqtisodiy kontekstlardagi farqlarini aniqlash uchun dala tadqiqotlari, so‘rovlar va uzoq muddatli kuzatuvlar talab etiladi. Kelgusida migratsiya intensiv bo‘lgan jamiyatlarda oilaviy barqarorlik, bolalar ijtimoiylashuvi va gender rollaridagi o‘zgarishlarni aralash metodlar asosida o‘rganish ushbu nazariy xulosalarni yanada mustahkamlashi mumkin. Shu jihatdan, migratsiya va oila transformatsiyasini o‘rganish ko‘p darajali va integrativ yondashuvni talab qiladigan dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval. Migratsiya sharoitida oila va oilaviy qadriyatlar transformatsiyasining asosiy yo‘nalishlari

Transformatsiya yo‘nalishi	Migratsiyadan oldingi holat	Migratsiya sharoitidagi o‘zgarish	Asosiy mexanizm	Ijtimoiy oqibat
Oilaviy tuzilma	Bir makonda yashovchi an‘anaviy oila	Fazoviy ajralgan yoki masofaviy oila modeli	Mehnat va ta‘lim migratsiyasi	Transmilliy va ko‘p makonli oila shakllanadi
Rollar taqsimoti	An‘anaviy gender rollari ustun	Rollar qayta taqsimlanadi, moslashuv kuchayadi	Iqtisodiy majburiyatlar o‘zgarishi	Qaror qabul qilish modeli yangilanadi
Tarbiya va nazorat	Bevosita kundalik nazorat	Masofaviy nazorat va bilvosita tarbiya	Raqamli aloqa va vositachilar	Ijtimoiylashuv shakli o‘zgaradi
Qadriyatlar tizimi	Barqaror an‘anaviy qadriyatlar	Gibrid va moslashuvchan qadriyatlar	Madaniy kontakt va moslashuv	Qadriyatlar sintezi yuz beradi
Iqtisodiy funksiya	Mahalliy daromad manbalari	Remittansga tayangan model	Pul o‘tkazmalari	Oila farovonligi oshadi, qaramlik ham ortishi mumkin
Muloqot shakli	Yuzma-yuz muloqot	Raqamli va masofaviy muloqot	Internet va mobil texnologiyalar	Ramziy yaqinlik saqlanadi.[8]

Xulosa. Migratsiya sharoitida oila va oilaviy qadriyatlar instituti transformatsiyasini izohlovchi sotsiologik yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy migratsiya jarayonlari oilaning ijtimoiy tabiatini tubdan o‘zgartirayotgan murakkab va ko‘p darajali omil hisoblanadi. Nazariy yondashuvlar natijalari migratsiya oilani faqat parchalanishga olib keluvchi hodisa emas, balki yangi sharoitlarga moslashuvchi va qayta tashkil topuvchi institut sifatida namoyon etishini ko‘rsatdi. Struktur-funksionalizm oilaviy funksiyalarning qayta taqsimlanishini, konflikt nazariyasi resurs va hokimiyat munosabatlaridagi siljishlarni,

simvolik interaksionizm kundalik ma'no va identitetning yangilanishini, transmilliylik yondashuvi esa chegaralararo oilaviy tizimlarning shakllanishini asoslab berdi.

Tadqiqot natijalari migratsiya ta'sirida oilaviy rollar, muloqot shakllari, tarbiya mexanizmlari va qadriyatlar iyerarxiyasi o'zgarishini, masofaviy va transmilliy oila modellari kengayayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlikning ortishi bilan bir qatorda, ijtimoiylashuv nazoratining zaiflashuvi va ichki munosabatlarda ziddiyat ehtimoli ham yuzaga kelishi mumkinligi aniqlandi. Demak, migratsiya oilaga bir vaqtning o'zida ham imkoniyat, ham ijtimoiy sinov omili sifatida ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, oila instituti migratsiya sharoitida yo'qolib ketmaydi, balki moslashuvchan, gibrid va ko'p makonli shaklga o'tadi. Bu jarayonni chuqurroq anglash uchun kelgusida empirik, hududiy va komparativ tadqiqotlarni kengaytirish zarur. Migratsiya va oila o'rtasidagi bog'liqlikni integrativ sotsiologik yondashuv asosida o'rganish ijtimoiy siyosat, oilani qo'llab-quvvatlash dasturlari va migratsiya boshqaruvi strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [S. A. Umarova, "Migrant oilalarda qadriyatlar o'zgarishining ijtimoiy-psixologik moslashuvga ta'siri," MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA, 2025.](#)
2. [S. S. Gazieva, "Scientific and theoretical basis of family migration," *Economics and Innovative Technologies*, vol. 12, no. 4, 2025.](#)
3. [B. B. Rabiyeu, "Oilalar farovonligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishda ayollar uy xizmati migratsiyasining o'rni," MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA, 2025.](#)
4. [J. I. Sadullayeva, "Tadqiqotlarda ayollar migratsiyasining oilaviy munosabatlarga ta'siri o'rganilganligi," MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA, 2025.](#)
5. [Z. Kadirova and S. Gaziyeu, "Xorijiy mamlakatlarda oilaviy migratsiya masalalari," *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 2024.](#)
6. [Ostanaqulov, Xojiakbar, and Saidaxon Atajonova. "O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING MODERNIZATSIYASI VA UNING ISTIQBOLLARI". TAFU. Vol. 5. Zenodo, December 28, 2024.](#)
7. [D. A. Turdialiyeva, "Mehnat migratsiyasi va uning oilaviy-sotsial oqibatlari," *Ustuvor islohotlar va zamonaviy ta'lim*, 2026.](#)
8. [M. B. Rahmonova and K. Umarova, "Zamonaviy jamiyatda oilaning o'rni va ahamiyati," *Synapses: Insights Across the Disciplines*, 2025.](#)
9. [N. Boshmonova, "Tashqi mehnat migrant oilalarida qadriyatlar o'zgarishining ijtimoiy-psixologik determinantlari," *Tadqiqotlar*, 2025.](#)
10. [Umarov M. & Abduhalimov E., "Oilaning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotga ta'siri," *Ustozlar Uchun*, 2025.](#)
11. [X. E. Elmurodov, "Oilada yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash muammolari," *Tadqiqotlar*, 2025.](#)
11. [H. Zlotnik, "Migration and the family: the female perspective," *Asian Pacific Migration Journal*, vol. 4, no. 2-3, pp. 253-271, 1995.](#)
12. [M. Szyszka, "Migration Family in Transnational Perspective," *Roczniki Teologiczne*, 2021.](#)

13. [E. Mussino, E. Kraus & N. Milewski, "Introduction to the Thematic Series: Use and consequences of family policies among migrants," *Genus*, vol. 79, Article 25, 2023.](#)
14. [Atajonova, Saidaxon va Xojiakbar Ostanaqulov. 2024. "Axborot Texnologiyalari Sohasida Etika Va Maxfiylik Masalalari." *Tadqiqot va amalga oshirish* 2 \(10\).](#)
15. [P. Akosah-Twumasi et al., "Prioritising Family Needs: A Grounded Theory of Acculturation for Sub-Saharan African Migrant Families in Australia," *Soc. Sci.*, vol. 9, no. 2, 2020.](#)

Kuchkarov Sobir

Samarkand State Pedagogical Institute

sobirqochqorov268@gmail.com

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 24th February 2026

**COMPOSITION, CLASSIFICATION AND SCIENTIFIC AND MUSEUM
SIGNIFICANCE OF THE ETHNOGRAPHIC COLLECTIONS OF THE
SAMARKAND STATE MUSEUM-RESERVE**

Annotation. This article analyzes the composition, classification and scientific and cultural significance of the ethnographic collections of the State Museum of the History of Culture of Uzbekistan, which is part of the Samarkand State Museum-Reserve. The collections of handicrafts, ceramics, pencil cases, carpets, leather goods, horse harness, metal, stone, musical instruments, textiles and embroidery were studied from the point of view of source studies and museology. The results of the study show that these collections are an important source for illuminating the material culture, craft traditions and the evolution of social life of Samarkand and adjacent regions.

Keywords: ethnographic collection; Samarkand Museum; material culture; crafts; museum found; ethnography of Uzbekistan.

**СОСТАВ, КЛАССИФИКАЦИЯ И НАУЧНО-МУЗЕЙНОЕ ЗНАЧЕНИЕ
ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ КОЛЛЕКЦИЙ САМАРКАНДСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА**

Аннотация. В данной статье анализируются состав, классификация и научно-культурное значение этнографических коллекций Государственного музея истории культуры Узбекистана, входящего в состав Самаркандского государственного музея-заповедника. Коллекции ремесел, керамики, пеналов, ковров, кожаных изделий, конской упряжи, металла, камня, музыкальных инструментов, текстиля и вышивки изучены с точки зрения источниковедения и музеологии. Результаты исследования показывают, что эти коллекции являются важным источником для освещения материальной культуры, ремесленных традиций и эволюции общественной жизни Самарканда и прилегающих регионов.

Ключевые слова: этнографическая коллекция; Самаркандский музей; материальная культура; ремесла; музейный фонд; этнография Узбекистана.

**SAMARQAND DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASI
ETNOGRAFIKKOLLEKSIYALARINING TARKIBI, TASNIFI VA ILMIY-MUZEY
AHAMIYATI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasiga qarashli O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi etnografik kolleksiyalarining tarkibi, tasnifi va ilmiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Ganchkorlik, sopolchilik, qalamdonlar, gilamlar, charm buyumlar, ot anjomlari, metall, tosh, musiqa asboblari, to'qimachilik hamda kashtachilikka oid kolleksiyalar manbashunoslik va muzeyshunoslik nuqtai-nazaridan o'rganildi. Tadqiqot natijalari ushbu kolleksiyalar Samarqand va unga tutash hududlar moddiy madaniyati, hunarmandchilik an'analari va ijtimoiy hayot evolyutsiyasini yoritishda muhim manba ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: etnografik kolleksiya; Samarqand muzeyi; moddiy madaniyat; hunarmandchilik; muzey fondi; O'zbekiston etnografiyasi.

Kirish. Etnografik kolleksiyalar muzey fondlarining muhim qismi bo'lib, xalqlarning kundalik hayoti, hunarmandchilik faoliyati va moddiy madaniyatini o'rganish uchun asosiy manba hisoblanadi. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibidagi muzeylar tizimi O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi madaniy merosini saqlash hamda tadqiq etishda muhim ilmiy markazdir.

Mazkur tizimda etnografik ashyolar namoyish etiladigan 12 ta muzey mavjud bo'lib, ulardan 5 tasida etnografik kolleksiyalar shakllangan. Ayniqsa, O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi fondi mintaqaning moddiy madaniyatini aks ettiruvchi boy to'plamga ega.

Tadqiqotning maqsadi – Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibidagi etnografik kolleksiyalarni tizimli tahlil qilish, ularning tarkibi, tasnifi va ilmiy-muzey ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Metodlar. Tadqiqotda muzeyshunoslik va etnografiya fanlariga xos tizimli-tasnifiy, tavsifiy hamda tarixiy-tahliliy usullar qo'llanildi. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi etnografiya fondi materiallari, inventar ro'yxatlari va kolleksiya tavsiflari o'rganildi.

Kolleksiyalar funksional vazifasi, materiali, ishlab chiqarish texnologiyasi va madaniy qo'llanish sohasi asosida guruhlashtirildi. Tahlilda ashyolar xronologiyasi, hududiy mansubligi, saqlanish holati va ko'rgazma salohiyati ham baholandi.

Natijalar. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi tarkibida jami 13 ta muzeylar faoliyat ko'rsatadi. Shundan faqatgina bitta muzey – Afrosiyobda etnografik ashyolar namoyish qilinmaydi. Qolgan barcha 12 ta muzeyda etnografiya bilan bog'liq ashyolar namoyish etiladi. Mazkur muzeylarning faqat 5 tasi etnografik ashyolar kolleksiyasiga egadir. Bular: O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi, Paxtachi tumani tarixi muzeyi, Kattaqo'rg'on shahar o'lkashunoslik muzeyi, Ishtixon tumani tarixi muzeyi va Ergash Jumanbulbul o'g'li memorial muzeylaridir.

O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyining etnografik kolleksiyasida aholining kundalik hayoti, iqtisodiy faoliyati va xalq hunarmandchiligining an'anaviy shakllarini aks ettiruvchi uy-ro'zg'or buyumlari, hunarmandchilik buyumlari va moddiy madaniyat namunalari to'plamlari mavjud. Ushbu to'plamlar mintaqaning moddiy merosini o'rganish uchun muhim tarixiy va madaniy manba hisoblanadi.

Ganchkorlik buyumlari kolleksiyasi [11.B-1-9]. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyining etnografik kolleksiyasida saqlanadigan alebastr buyumlari va me'moriy dekorativ elementlar kolleksiyasi Samarqand va uning atrofidagi an'anaviy me'morchilik, dekorativ-amaliy san'at va interyer dizaynining rivojlanishini aks ettiruvchi moddiy madaniyat artefaktlarining muhim majmuasini ifodalaydi.

Ushbu kolleksiya jami 133 ta muzey buyumini o'z ichiga oladi. To'plamning asosiy qismi quyidagi kirim raqamlari ostida jamlangan: KK-323; KK-390/2; KK-390/3; KK-390/6; KK-1347; KK-1358; KK-1819; KK-2815; KK-2880; KK-3283; KK-3747; KK-4817; KK-4932; KK-5001; KK-5455; KK-5791; KK-6134 va IKK-535; IKK-1464; IKK-1541; IKK-1581. Ashyolarning 17 donasi muzey xodimi A.K. Pisarchik tomonidan Samarqand shahri, Urguti-2 mahallasida yashagan Maxdixon qorining uyidan to'plangan va muzeyning boshqa shu kabi ashyolari bilan birgalikda ilmiy tadqiq etilgan (KK-1347; E-26/1-17) [1.B-53;20.B-254].

Kolleksiyada turli xil dekorativ panellar, plitkalar, ustunlar, panjaralar, gips parchalari, me'moriy detallar, bezakli qoliplar, majolika plitkalari, g'ishtlar, mozaika elementlari mavjud. Ranglangan va o'yma alebastr panellari (E-26/1-12) turar-joy hamda jamoat binolarining interyer dizayni an'analari aks ettirishda muhim o'rin tutadi.

Shohi Zinda va Bibixonim yodgorliklaridan olingan me'moriy bezak parchalari (KK-4932/15 a-g; KK-4932/16 a-b), shuningdek, kundal texnikasida ishlangan dekorativ elementlar namunalari (KK-4932/13) alohida ilmiy ahamiyatga ega. To'plamda, shuningdek, usta-hunarmand A. Kuliyevning asarlari (KK-5001/1-6) ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy ganch hunarmandchiligining rivojlanishini va uning an'anaviy badiiy shakllar bilan bog'liqligini namoyish etadi.

Vazifasi jihatidan bu buyumlar me'moriy inshootlar ichki va tashqi bezaklari, dekorativ kompozitsiyalar yaratish, xonalarni bezash va hunarmandchilik ishlab chiqarishda ishlatilgan. Naqsh qoliplari (E-26/37; E-26/43; E-26/44) dekorativ elementlarni ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlarini ko'rsatib berishi mumkin.

Kolleksiyadagi ashyolarning katta qismi qoniqli holatda va namoyish qilish uchun yaroqli. Biroq, bir qator buyumlarda yoriqlar va strukturaviy buzilish kabi shikastlanishlar mavjud. Alohida alebastr taxtalari (E-26/33-34) bo'laklar holida, ba'zi panellarning saqlanish holati qoniqarsiz (E-26/11; E-26/18; E-26/30) va panjaralar (E-26/45; E-26/47) qisman zararlangan. Ba'zi kundal namunalari zarhal rangini yo'qotgan (KK-4932/13). Ushbu ashyolar qo'shimcha ilmiy restavratsiya va profilaktik ishlov berishni talab qiladi.

Ushbu kolleksiya yuqori ko'rgazma salohiyatiga ega va Samarqandning me'moriy bezak an'analari, ganchkorlik san'atining rivojlanishi, turar-joy va jamoat binolarining interyer dizayniga bag'ishlangan tematik ko'rgazmalar yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan kolleksiyadan "Samarqanddagi ganchkorlik san'ati", "XIX asr an'anaviy uylarining me'moriy bezaklari" kabi tematik ko'rgazmalarni yaratish uchun foydalanish mumkin. Umuman olganda, ganchkorlik buyumlari to'plami Samarqandning ko'p asrlik qurilish va badiiy san'at an'alarini aks ettiradi, mahalliy hunarmandlarning yuqori mahoratini namoyish etadi.

Sopol buyumlar kolleksiyasi [18.B-1-116]. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi etnografik kolleksiyasida saqlanadigan sopol buyumlar kolleksiyasi O'zbekistonda kulolchilik va dekorativ-amaliy san'atning rivojlanishini aks ettiruvchi eng yirik kolleksiyalardan biridir. To'plamning umumiy soni 2458 ta bo'lib, shundan asosiy fond ashyolari 2228 ta, ilmiy-yordamchi fond ashyolari 227 ta va vaqtinchalik saqlash fondi ashyolari 3 donani tashkil etadi. Ushbu ashyolar bizga XIX asrdan boshlab hozirgi vaqtgacha sopol ishlab chiqarishda shakllar, bezak naqshlari va texnikalarning evolyutsiyasini kuzatish imkonini beradi.

Ashyolar XIX asr oxiridan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. To'plamda XIX asr oxiri va XX asr boshlariga oid Rishton sopol buyumlari namunalari (KK-3270/1,2; KK-3271), XX asr o'rtalariga oid Samarqand, Toshkent va G'ijduvon kulolchiligiga oid buyumlar (KK-2888/42; KK-2896/2; KK-2970/1; KK-3001/1), Shahrisabz sopolchilik buyumlari (IKK-749/1-7) va XXI asr boshlariga oid zamonaviy sopol buyumlar (KK-6134/6,10; IKK-1522/9-16) mavjud. To'plamning katta qismi 1960–1980-yillarga oid bo'lib, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining yuksak namunalari sifatida ajralib turadi.

Noyob va katta kolleksiyalardan biri usta Umar Jo'raqulov (KK-3079/3-25; KK-2888/42-47) to'plami bo'lib, hozirda Samarqand kulolchilik vakillarining barchasi uning shogirdlari hisoblanadi.

Vazifasiga ko'ra, ashyolar quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi:

– uy-ro'zg'or buyumlari: tovoqlar, piyolalar, laganlar, kosalar va boshqalar (KK-3001/1,3; KK-3079/1-7; KK-6213/13);

– suv va suyuq mahsulotlar uchun idishlar: ko'zalar, oftobalar, qozonlar, xurmacha (KK-2888/45; KK-3079/2; KK-6154/23);

– dekorativ buyumlar: vazalar, panellar va shamdonlar (KK-3995/1; KK-4000/1; KK-4932/3);

– ishlab chiqarish va yordamchi buyumlar: qoliplar, shtamplar, kulolchilik charxi qismlari (KK-2888/47; KK-1378/27).

To'plamda yetakchi sopol ishlab chiqarish markazlaridan Samarqand (KK-3079/4; KK-6134/7), Urgut (KK-3923/13; KK-6154/21), Rishton (KK-3001/1; KK-3253/1), G'ijduvon (KK-2896/2), Xiva va Xorazm (KK-4942/19-27) hamda Toshkent (KK-2970/1-4) buyumlari jamlangan. Bu bizga mahalliy maktablarning o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish imkonini beradi.

Buyumlarning aksariyati qoniqarli holatda. Biroq, ba'zi buyumlarda yoriqlar, yorilishlar belgilari mavjud (KK-3079/1,9). Fond hujjatlarida ayrim buyumlarning restavratsiyaga muhtojligi belgilari mavjud.

Ushbu to'plam yuqori ko'rgazma salohiyatiga ega. "Samarqand kulolchiligi", "O'zbekiston mintaqaviy kulolchilik maktablari", "XX asr O'zbekiston kulolchiligi" kabi tematik ko'rgazmalarni yaratish mumkin. Ko'rgazmalarda rekonstruksiya qilingan ustaxonalar va multimedia materiallaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Qoliplash, bo'yash va pishirish texnikasini namoyish etuvchi interaktiv hududning yaratilishi alohida qiziqish uyg'otadi.

O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyining kulolchilik kolleksiyasi xalq hunarmandchiligi va dekorativ-amaliy san'at tarixi bo'yicha keng qamrovli manba hisoblanadi. Mintaqaviy maktablarning xilma-xilligi va eksponatlarning yuqori badiiy darajasi uning ilmiy, madaniy va ko'rgazma ahamiyatini oshiradi.

Qalamdonlar va yozuv asboblari [19.B-1-13]. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi etnografik kolleksiyasida saqlanayotgan qalamdonlar va yozuv asboblari to'plami mintaqada yozuv an'analari, xattotlik san'ati va kitob madaniyatining rivojlanishini aks ettiruvchi qimmatli moddiy va ma'naviy ashyolardan iboratdir. Kolleksiyadagi ashyolarning umumiy soni 40 ta bo'lib, shundan 35 tasi asosiy fondga va 5 dona ashyo ilmiy-yordamchi fondga saqlanadi. Bu ashyolar savodxonlikning yuqori darajasi, ta'lim tizimining rivojlanganligi va an'anaviy jamiyatda o'ziga xos yozuv madaniyatining shakllanganligidan dalolat beradi. To'plamning xronologik ramkasi XIX asr – XX asr birinchi yarmi davri bilan belgilanadi.

Vazifasiga ko'ra, ushbu kolleksiyadagi buyumlar quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi: yozuv asboblarini saqlash uchun qalamdonlar (KK-301; KK-736; KK-2354; KK-3990/2; KK-5316/8), siyohli qalamdonlar (KK-765; KK-2357 a,b; KK-1582/4-5), yordamchi buyumlar (siyoh qoshiqlari – KK-738; qutilar – KK-1870/2-16 a,b). Bu tasnif savodxonlik madaniyatining murakkab tabiatini aks ettiradi, bu nafaqat yozuv asboblarini, balki ularni saqlash uchun maxsus idishlarni ham o'z ichiga olgan.

To'plamda turli materiallardan: suyak, yog'och, qamish, metall va boshqa materiallardan tayyorlangan buyumlar mavjud. Yuqori darajadagi mahorat bilan ishlangan suyak qalamlar (KK-35/2 b; KK-38/36; KK-195/1,2) alohida qiziqish uyg'otadi. Ba'zi qalamlar o'ymakorlik, gravyura va bezak elementlari bilan bezatilgan bo'lib, yozuv asboblarini ishlab chiqarishda badiiy an'analarning ham qo'llanilganligini ko'rsatadi. Buyumlarning aksariyati Samarqand va unga tutash hududlarning madaniy muhiti bilan bog'liq. Ular madrasalar, masjidlar, xususiy maktablar va uylarda ishlatilgan. To'plamdagi buyumlarning umumiy saqlanish holatini qoniqarli deb baholash mumkin. Biroq, ba'zi

buyumlarda ichki va tashqi yemirilishlar, kichik yoriqlar va dekorativ elementlarning yo'qolishi belgilari mavjud.

Qalamdonlar to'plami yuqori ko'rgazma salohiyatiga ega va yozma madaniyat hamda ta'lim tarixiga bag'ishlangan "Samarqandning yozuv va xattotlik an'analari", va "Sharq madaniyatida yozuv asboblari" kabi tematik ko'rgazmalar yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Ko'rgazmalarda xattot yoki madrasa talabasining ish joyini qayta tiklash, qalamdonlar, siyohdonlar va boshqa buyumlarni namoyish etish tavsiya qilinadi. Yozuv asboblari ishlab chiqarish va ulardan foydalanish jarayonini aks ettiruvchi multimedia materiallari ham yaxshi samara berishi mumkin. Xattotlik yozuvi namoyishlarini o'z ichiga olgan interaktiv hududlar tashrif buyuruvchilarni jalb qilishga va ko'rgazmaning ta'lim salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyidagi qalamdonlar va yozuv asboblari to'plami mintaqadagi ta'lim tarixi, yozma madaniyat va intellektual hayotni o'rganish hamda namoyish etish uchun muhim manba hisoblanadi.

Gilamlar va gilam mahsulotlari kolleksiyasi [12.B-1-176]. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyining etnografik kolleksiyasida saqlanayotgan gilamlar va gilam mahsulotlari kolleksiyasi nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyo hamda unga tutash mintaqalar xalqlarining gilam to'qish an'analari, badiiy xususiyatlari va kundalik madaniyatini aks ettiruvchi yirik to'plamlardan biridir. Kolleksiyadagi ashyolarning umumiy soni 470 tani tashkil etib, ularning asosiy qismi – 450 tasi asosiy fondga, 10 donasi ilmiy-yordamchi fondga va 10 donasi vaqtinchalik saqlash fondida jamlangan.

To'plam to'qimachilik ishlab chiqarish tarixi, bezak tizimlarining rivojlanishi, ramziylik hamda gilam san'atining mintaqaviy maktablarini o'rganish va namoyish etish uchun muhim manba hisoblanadi.

Ashyolarning yaratilishi XIX asr oxiridan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. To'plamda XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid ilk namunalar, jumladan, turkman xoli gilamlari (KK-6105/5-8; KK-6105/17; KK-6105/26), turkman ersari va yovmud gilamlari (KK-2223; KK-2257; KK-5883/5), shuningdek, 1930–1950-yillar yaratilgan buyumlar (KK-6105/11-15; KK-6105/20-24) ayniqsa diqqatga sazovordir.

Yana bir guruh gilam mahsulotlari XX asr oxiri va XXI asr boshlariga oid zamonaviy dizaynga ega hamda fabrikada tayyorlangan buyumlardan iboratdir (KK-6291/1-2; KK-4558/225-226; KK-6253/1-3).

Vazifasiga ko'ra, ushbu kolleksiyani uy-ro'zg'or yoki jamoat binolarida foydalanishga mo'ljallangan gilamlar (KK-2232; KK-2245; KK-3894; KK-5278/1), joynamoz gilamlar (KK-27/1; KK-2094; KK-6105/20), dekorativ gilamlar (KK-1257/1-4; KK-2814/4-9; KK-5451/1-3), xaltachalar, xurjunlar, to'rvalar (KK-2012; KK-2624; KK-3197/1-6; KK-5652/3-5), portret gilamlar (KK-3736/1-5; KK-5738/3; KK-5800/1) kabi asosiy guruhlarga bo'lish mumkin.

To'plam keng geografik qamrovi bilan ajralib turadi. Unda ushbu hududlardan buyumlar mavjud: Samarqand shahri va viloyati (KK-4165/5; KK-4165/19; KK-4165/41; KK-

6105/53), Nurota (KK-4380/1; KK-5139; KK-6105/4), Surxondaryo (KK-5443/1), Fargʻona vodiysi (KK-5874/1; KK-6105/30), Turkmaniston (Ersari, Yovmud, Tekin, Saryaki – KK-2223; KK-2257; KK-6105/7-14), Ozarbayjon (KK-5890; KK-6105/73), Eron, Afgʻoniston, Tunis, Xitoy, Vengriya (KK-4676/1-2; KK-4811/2; KK-6035/1-3; KK-5582/47). Bu esa keng qamrovli ekspozitsiya yaratish imkonini beradi.

Asarlarning badiiy xususiyatlari boy bezakli kompozitsiyalari, ramziy oʻsimlik va geometrik naqshlar hamda uygʻun rang kombinatsiyalari bilan ajralib turadi. Ashyolarning aksariyati qoniqarli holatda. Biroq, kolleksiyaning baʼzi ashyolarida yemirilishlar mavjud (KK-1821/2-3; KK-5652/1-2; KK-5858/9).

Kolleksiya yuqori koʻrgazma salohiyatiga ega boʻlib, uning vositasida “Oʻrta Osiyo gilam sanʼati”, “Turkman gilamlari: anʼanalar va ramziylik” kabi tematik koʻrgazmalarni tashkil etish mumkin. Ushbu kolleksiyadagi ashyolardan foydalanib, koʻchmanchilik hayotini aks ettiruvchi koʻrgazma ham qurish mumkin. Bunda gilam toʻqish va boʻyash texnikasini namoyish etuvchi interaktiv vositalar koʻrgazmaning pedagogik salohiyatini oshiradi.

Xullas, Oʻzbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyidagi gilamlar va gilam mahsulotlari toʻplami mintaqaning etnik-madaniy xilma-xilligini aks ettiruvchi noyob moddiy madaniyat ashyolari majmuasidir.

Terilar va teri mahsulotlari [17.B-1-14]. Ushbu kolleksiyada jami 39 dona ashyo boʻlib, ularning 37 donasi asosiy fondga, 2 donasi ilmiy yordamchi fondga roʻyxatga olingan. Muzey etnografik kolleksiyasida saqlanayotgan charm va teri buyumlari kolleksiyasi Oʻrta Osiyo xalqlarining iqtisodiy faoliyati, kundalik hayoti, savdosi va madaniyatini aks ettiruvchi qimmatli moddiy madaniyat buyumlari jamlanmasi hisoblanadi.

Toʻplamda, asosan, haqiqiy charmdan tayyorlangan turli xil sumkalar, hamyonlar, qutilar, juzgilar, kamarlar, idishlar va boshqa buyumlar mavjud. Toʻplam XIX asr oxiri va XX asr oʻrtalarigacha boʻlgan davrni qamrab oladi. Buyumlarning katta qismi XX asr boshlari va birinchi yarmiga toʻgʻri keladi. Bu esa Samarqand muzeyining 1920–1930-yillardagi faol ekspeditsiyalar va kolleksiyalar yigʻish faoliyatini baholash imkonini beradi. Ashyolarning eng qadimgilari – juzgilar boʻlib, ularning ayrimlarida 1252, 1272, 1276, 1329-hijriy yil sanalari aks etgan (KK-186; KK-2347; KK-3293/11 a,b; KK-2346; KK-3345).

Vazifasiga koʻra, kolleksiya buyumlarini bir nechta asosiy guruhlariga boʻlish mumkin. Bular: sumkalar va egar sumkalari (KK-5/11; KK-2658; KK-2815/5), hamyonlar (KK-720; KK-2821/43; KK-3518/12; KK-4165/107; KK-4476/13), kosa va dasturxon uchun gʻiloflar (KK-225; KK-2561/1; KK-2662; KK-2821/44; 5337/8), juzgilar hamda qoʻlyozmalar va kitoblar uchun futlyarlar (KK-186; KK-1485/3; KK-1580/2; KK-2335; KK-2346; KK-2347; KK-3668/18; KK-4656/24), uy-roʻzgʻor buyumlari (KK-785; KK-786; KK-2657), kamarlar (KK-3191/27; KK-4391/1 b), xaltalar (KK-5427/1; KK-5331/3) dan iboratdir. Buyumlarning aksariyati qoramol va mayda shoxli hayvonlar asl charmidan tayyorlangan. Baʼzi buyumlarda applikatsiya, boʻrtma naqshlar mavjud. Baʼzi buyumlarda charm bilan birga karton, mato va metall ham ishlatilgan (KK-1728; KK-3191/27).

Buyumlarning aksariyati Samarqand, Buxoro, Xorazm, Toshkent viloyatlari bilan bog'liq. 1920–1930-yillarda Buxoro, Xorazm va Toshkentda olib borilgan ekspeditsiyalar davomida bir qator charm ashyolar yig'ilgan (KK-5/11; KK-8/27; KK-38/4).

To'plamdagi buyumlarning saqlanish holati notekis. Buyumlarning katta qismida tabiiy ifloslanish va mexanik shikastlanish belgilari mavjud. Masalan, mavjud fond hujjatlarida egar sumkasi (KK-5/11) eskirgan va ifloslangan deb belgilangan, po'stak (KK-8/27) yirtilgan, soliq yig'uvchilar sumkasi (KK-38/4) ta'mirlangan deb ko'rsatilgan. Ba'zi buyumlarga konservatsiya choralari ko'rilgan. Biroq, bir qator buyumlar qo'shimcha tiklash va profilaktik parvarishni talab qiladi.

To'plamning katta qismi muzey xodimlari tomonidan 1920–1930-yillar oralig'idagi ekspeditsiyalar, shuningdek, boshqa muzeylar bilan almashinuvlar natijasida yig'ilgan. To'plam mintaqaning kundalik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishda muhim ahamiyatga egadir.

Charm va teri buyumlari kolleksiyasi yuqori ko'rgazma salohiyatiga ega va ular vositasida “Samarqandning charm buyumlari”, “1920–1930-yillarda Samarqand muzeyi ekspeditsiyalari va muzey kolleksiyalari” nomli tematik ko'rgazmalar tashkil etilishi mumkin.

Umuman olganda, O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyidagi charm va teri buyumlari kolleksiyasi mintaqaning iqtisodiy hamda ma'naviy madaniyatini o'rganish va namoyish etish uchun muhim manba hisoblanadi.

Matoga gul bosish qoliplari [15.B-1-7;1-5]. Muzeyning etnografik kolleksiyasida 244 ta matoga gul bosish qoliplari mavjud (KK-1; KK-41; KK-71; KK-130; KK-927; KK-1235; KK-1271; KK-1477; KK-1643; KK-1793; KK-2791; E-3; E-23; E-45; E-115). Bu buyumlar matoni badiiy qayta ishlashning an'anaviy vositasi bo'lib, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligida Rossiya imperiyasi istilosidan keyingi fabrika matolari kirib kelgunga qadar keng qo'llanilgan.

Kolleksiyadagi qoliplar, asosan, yog'ochdan tayyorlangan ixtisoslashgan shtamlardir. Relyefli bezak kompozitsiyalari ishchi yuzaga o'yilgan va keyin bo'yoqlar yordamida matoga o'tkazilgan.

Ot anjomlari [16.B-E-81;E-84]. Muzey etnografik kolleksiyasida saqlanadigan ot anjomlari to'plamidagi ashyolar soni 57 dona bo'lib, ularning barchasi asosiy fondga saqlanadi. Mazkur ashyolar mintaqa aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida otlarning muhim rol o'ynashidan, shuningdek, ot jabduqlari va jihozlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq hunarmandchilikning yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

To'plamdagi buyumlar asosan XIX asr oxiri – XX asr birinchi yarmiga oid bo'lib, an'anaviy turmush tarzi hamda otlardan kundalik hayotda va dehqonchilikda faol foydalanish bilan bog'liq. Buyumlarning eng qadimgisiga XIX asr oxirlariga oid uzangilar (KK-2830/3 a,b), shuningdek, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga oid Buxoro jabduqlari (KK-4693/1) kiradi. 1930-yillarga oid buyumlar qatoriga Samarqandda yasalgan jilovlar va ot bezaklari kiradi (KK-148/1-9; KK-157; KK-1564/1).

Vazifasiga ko'ra, kolleksiya buyumlarini jilovlar va jabduq elementlari (yugan, kuyushkun, bandigardon, no'xta – KK-5/1-2; KK-148/1-2; KK-4558/249; KK-4693/2), egarlar (KK-5/7-9; KK-157; KK-2596; KK-2597; KK-2598; KK-3148; KK-4558/248), uzangilar (KK-5/10 a,b; KK-148/11 a,b; KK-1763/1 a,b; KK-5204/3), ot ko'kragi va bo'yni bezaklari (peshband, tauki-gardon, qubbai-asf – KK-5/3-6; KK-148/3; KK-148/10), qamchilar va darralar (KK-127; KK-1175/4; KK-1566/1; KK-3370/1-2; KK-5204/2), jabduqgarlik dekorativ elementlari (KK-2815/9-10) kabi turlarga bo'lish mumkin.

To'plamdagi buyumlar charm, yog'och, metallardan tayyorlangan. Egarlar va jilovlar qo'lda tayyorlangan, bo'rtma va dekorativ qoplamalar charmdan qilingan. Uzangilar, asosan, mis va temirdan, ba'zan esa badiiy bezak bilan yasalgan (KK-1440/3 a,b).

Ushbu to'plam geografiyasi ancha keng bo'lib, Samarqand (KK-127; KK-148/1-9; KK-157; KK-1564/1; KK-3148), Buxoro (KK-5/1-6; KK-148/7; KK-4693/1-2), Toshkent (KK-5/9; KK-2598), Qashg'ar (KK-5/7), Tojikiston (KK-5/8) va Qoraqalpog'iston (KK-2596) hududlariga oid ashyolar jamlangan.

Buyumlarning aksariyati xalq hunarmandlarining anonim asarlari bo'lsada, kolleksiyada imzolangan buyumlar mavjud. Uddiboyev va Mirhoshim ustalarning buyumlari, ayniqsa, yuqori darajadagi professional hunarmandchilik va mahalliy an'analarni aks ettiruvchi qimmatli buyumlar hisoblanadi. Ot jabduqlarini yasash hunarmand oilalarida avloddan-avlodga o'tib kelgan.

To'plam buyumlarining umumiy saqlanish holatini qoniqarli deb baholasa bo'ladi. Aksariyat buyumlar o'zining strukturaviy yaxlitligini va asosiy dekorativ elementlarini saqlab qolgan. Biroq, ba'zilarida charm parchalarining yo'qolishi, metall qismlarning oksidlanishi va deformatsiyasi belgilari mavjud. Xullas deyarli barcha ashyolar profilaktik-tozalash va tiklashdan o'tishi kerak.

Ot anjomlari kolleksiyasidan "Samarqand an'anaviy madaniyatida otlarning o'rni", "O'tchilik va Markaziy Osiyoning ko'chmanchi an'analari" ko'rgazmalarini tashkil etish mumkin. "O'tchilik" so'zi qanchalik g'alati eshitilmasin, transport vositalari va traktorlar paydo bo'lguniga qadar asosiy vosita hisoblangan. Ko'rgazmalarda ot jihozlari bilan birga ot manikenlari, modellari va fotosuratlarini namoyish etilishi mumkin. Jabduqlardan foydalanishni namoyish etuvchi multimedia vositalari ham samarali bo'lishi mumkin. Egar yasash texnikasini namoyish etish samarali multimedia vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi ot anjomlari kolleksiyasi mintaqadagi an'anaviy transport, iqtisodiy faoliyat hamda harbiy madaniyatni o'rganish va namoyish etishda qimmatli manbadir. Buyumlarning xilma-xilligi, turli hududlarga oidligi va yaxshi saqlanib qolganligi, ushbu to'plamning yuqori ilmiy, madaniy va ko'rgazmalilik qiymatini belgilaydi.

Metall buyumlar [14.B-1-377]. Mazkur kolleksiya muzey etnografiya fondidagi eng katta kolleksiyalardan biri bo'lib, jami 1465 ta ashyo, shundan 1378 ta ashyo asosiy fondga, 77 ta ashyo ilmiy-yordamchi fondga va 10 dona ashyo vaqtinchalik saqlov fondida ro'yxatga olingan.

Kolleksiya keng xronologik XVII – XVIII asrlardan to XX asr ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va mintaqada an‘anaviy hunarmandchilik, kundalik hayot, savdo va texnologik taraqqiyotning rivojlanishini ko‘rsatib beradi.

To‘plamning eng qadimgi ashyolari XVII – XVIII asrlarga oid bo‘lib, ular Eron oftobasi (KK-714; KK-846/2), chilimlar (KK-2517), shamdonlar (KK-2485 a,b) dan iborat. Bu buyumlar metallga badiiy ishlov berishning yuqori darajasidan hamda Markaziy Osiyo bilan O‘rta Sharq o‘rtasidagi rivojlangan madaniy aloqalardan dalolat beradi.

Ushbu to‘plamning asosiy qismi XIX asr va XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. To‘plamda bu davrga oid dastsho‘ylar va obdastalar (KK-18/1; KK-1764/2; KK-2372), choy idishlari (choyjo‘sh – KK-1691/1-3; KK-2363-2367), la‘lilar (KK-1824/4; KK-2494/1,2), ko‘zalar va qumg‘onlar (KK-168; KK-2549; KK-3387/16) yig‘ilgan.

Sovetlar davrida fabrikada ishlab chiqarilgan metall buyumlar ham talaygina. Ularga 1970–1980-yillarga oid oftobalar va la‘lilar (KK-3704/1; KK-3731/1; KK-4457), suvenirlar (KK-3736/12; KK-6236/1-5), uy-ro‘zg‘or buyumlari (KK-4540/2; KK-4539/1) ni kiritish mumkin.

Metall buyumlar kolleksiyasi ashyolari funksiyasiga ko‘ra bir nechta asosiy guruhlariga bo‘lingan. Birinchi guruhga, suv uchun idishlar (oftobalar, dastsho‘ylar, obdastalar – KK-18/3; KK-164; KK-215; KK-3387/3) kiritilgan bo‘lib, bular an‘anaviy gigiyena madaniyati va kundalik hayotni aks ettirishda muhimdir. Ikkinchi guruhga, choy va dasturxonga oid buyumlar (choyjo‘shlar – KK-1691/1; KK-2194; KK-2486; kosalar va piyolalar – KK-2507; KK-3387/29) kiritilgan bo‘lib, bu guruh aholining XIX – XX asrlardagi maishiy hayotini yoritadi. Uchinchi guruhga, oshxona anjomlari kiritilgan bo‘lib, bular qozonlar, laganlar, tovoqlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, mis laganlar (KK-1584; KK-4558/143), qozonlar (KK-4263/4; KK-5323/5), tovoqlar (4554/2) shu guruh ashyolarining namunalaridir. To‘rtinchi guruhga, hunarmandchilik va uy-ro‘zg‘or asboblari kiritish mumkin. Bu guruhda temirchilar, misgarlar va zargarlar tomonidan ishlatiladigan asboblari (KK-44/8; KK-1697/1,2; KK-3387/40; KK-4542/4; KK-2574; KK-4154/5) jamlangan. Ularning ichida misgarlarning shtamplar to‘plami (KK-3387/54-60) alohida qiymatga ega. Beshinchi guruhga, o‘lchov asboblari kiritilgan bo‘lib, bular og‘irlikni o‘lchovchi toshlar (KK-38/23-31; KK-703/1-6), tarozilar (KK-3116) dan iborat. Bu to‘plam an‘anaviy o‘lchov tizimini ko‘rsatib bera oladi. Oltinchi guruhga, diniy va dekorativ buyumlar kiritildi. Bularga buddizmga oid haykalchalar (KK-1278/1), ikonalar (KK-6025/3; KK-6086) hamda diniy marosim shamdonlari (KK-4558/136) kiradi.

Muzey, asosan, O‘zbekiston madaniyati tarixini, shuningdek, Samarqand viloyati va tumanlari tarixini o‘rganadi hamda namoyish etadi. Ushbu kolleksiya, asosan, XX asrga oid buyumlardan tashkil topgan va O‘zbekistondagi boshqa din va millat vakillarining madaniyatini o‘rganishda foydali bo‘lishi mumkin.

Kolleksiyadagi ashyolarning geografiyasi ham keng. Unda kelib chiqishi Samarqand (KK-18/7; KK-3387/16; KK-4263/3), Buxoro (KK-18/1; KK-731; KK-740), Qo‘qon (KK-166; KK-2545), Xorazm (KK-129; KK-416), Rossiya (KK-3739/17; KK-4489/1), Eron (KK-714;

KK-1763/2), Hindiston (KK-181; KK-2535) va Polsha (KK-216/8-18) hududlari bilan bog'liq ashyolar jamlangan.

To'plamda muallifi anonim hunarmandchilik buyumlari ko'pchilikni tashkil etadi. Shu bilan birga ma'lum ustalar tomonidan ishlab chiqarilgan buyumlar ham mavjud. Jumladan, usta Tog'ay buyumlari (KK-3445/5), usta M. Mamadaliyev buyumlari (KK-3912/1), usta Kuliyevning hunarmandchilik asboblari (KK-4932/7) ana shular jumlasidandir.

Ushbu to'plamdagi buyumlarning aksariyati qoniqarli holatda. Biroq, ba'zi ashyolarda qismlarning yetishmasligi, buyumlar tanasida chuqurchalar mavjudligi (IKK-961/5) ularning ko'rgazma salohiyatini pasaytiradi. Aksariyat ashyolarda korroziya va ifloslanish izlari saqlanib qolgan.

Shunga qaramasdan, to'plam yuqori ko'rgazma salohiyatiga ega. Uning vositasida "Samarqandning an'anaviy oshxonasi", "Choy madaniyati", "An'anaviy misgarlar ustaxonasi", "Madaniyatlararo aloqalar" kabi tematik ko'rgazmalar tashkil etish mumkin.

Marmar va toshdan ishlangan buyumlar [13.B-1-28]. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyining marmar va toshdan ishlangan buyumlar kolleksiyasi etnografik kolleksiyada alohida o'rin tutadi hamda an'anaviy moddiy madaniyat, badiiy tosh o'ymakorligi, O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va maishiy hayotini o'rganish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Ularning umumiy soni 112 ta bo'lib, 82 tasi asosiy fondga, 18 donasi ilmiy yordamchi fondga, 12 donasi vaqtinchalik fondga saqlanadi.

Marmar buyumlarning katta qismi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga tegishli bo'lib, ularning bir qismi arabcha epigrafik yozuvlari va 1237, 1326, 1334-hijriy sanalari bo'lgan idishlardan (KK-10; KK-1870/2-3; KK-121/1; KK-3522) iborat. Bu buyumlar memorial va dekorativ tosh o'ymakorligi an'analari yoritadi.

Bir qism ashyolar XX asr o'rtalari va ikkinchi yarmida (1950–1980-yillarda) yaratilgan (KK-2991; KK-3021; KK-3027; KK-5402/1; KK-5402/2). Bu buyumlar sovetlar davrida an'anaviy shakllar saqlanib qolganligini va xalq tosh o'ymakorligi san'atining, asosan, esdalik sovg'alari ishlab chiqarishga moslashtirilganligini aks ettiradi.

Ushbu to'plamni vazifasiga ko'ra bir nechta asosiy guruhlariga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga, uy-ro'zg'or anjomlarini kiritish mumkin va bu guruhga tosh qozonlar va idishlar (KK-14/1-3; KK-555; KK-749; KK-753; KK-107; KK-122/1 a,b; KK-122/2 a,b; KK-2476/1,2) kiradi. Bu buyumlar uy sharoitida pishirish, suyuqliklarni saqlash va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash uchun ishlatilgan. Ikkinchi guruhga, yozuv va ofis anjomlarini kiritish mumkin (KK-194). Uchinchi guruhga, dekorativ va badiiy buyumlarni kiritish mumkin. Epigrafik va bezakli idishlar (KK-632; KK-713; KK-3315; KK-3570), Mirzo Ulug'bek tasviri tushirilgan idishlar (KK-3127; KK-3466), Alisher Navoiy tasviri tushirilgan idish (KK-3654), Abu Ali ibn Sino tasviri tushirilgan idish (KK-4827), qo'l shaklidagi shamdon (KK-2480), "Nurotalik cho'pon" byusti (KK-4387/2) shu guruhga mansub ashyolardir. To'rtinchi guruhga, me'moriy va yodgorlik elementlarini kiritish mumkin. Bu guruhda Nurotadan marmar plitalari (KK-2483), yozuvli plitalar parchalari (KK-4387/3; KK-5745), bezakli marmar plitalar (KK-4387/4,5) va suv chiqib ketadigan moslamalar ("tashnau"

– KK-4388/10; KK-5366/2) kabi buyumlar o‘rin olgan. Bu buyumlar mintaqaning me‘moriy an‘analari, jamoat binolari va yodgorliklari bilan bog‘liqdir. Beshinchi guruhga, marmar xom ashyo namunalarini (KK-3740/1-18; VKK-188/4-1-8) kiritish mumkin. Bularni konlar va toshni qayta ishlash texnologiyalarini ko‘rsatish uchun ishlatish mumkin.

To‘plamning katta qismi Samarqand va Nurota hududlariga to‘g‘ri keladi. Nurota marmar buyumlari (KK-121/1-2; KK-456; KK-5322/1-3), Samarqand marmar buyumlari (KK-5402/1-2; KK-4827), Ishtixon hududidan aniqlangan marmar buyumlar (KK-3127; KK-3466) mahalliy mahsulotlarga namuna bo‘la oladi. Shu bilan birga Eronga oid qozon va qadahlar (KK-749; KK-2478/1-2) ham bo‘lib, bu Samarqand viloyati va qo‘shni hududlar o‘rtasidagi savdo va madaniy aloqalardan dalolat beradi.

To‘plamda taniqli ustalarning asarlari ham mavjud. Masalan, usta Jamol Jo‘rayev (KK-3466), usta Erkin Abdullayev (KK-5322/1-3) asarlari professional tosh kesish san‘atining yuqori darajasini, an‘anaviy saqlanib qolgan texnologiyalarni va XX asrning ikkinchi yarmida ham an‘anaviy ustachilik maktablari saqlanib qolganligini ko‘rsatib berishi mumkin.

Ushbu to‘plamdagi buyumlarning aksariyati qoniqarli holatda. Biroq, mavjud fond hujjatlariga ko‘ra, ba‘zi buyumlarda qismlar yetishmasligi (KK-4932/14; KK-4932/17), eskirish va sirt shikastlanishi belgilari mavjud. Umuman olganda, kolleksiya tizimli kuzatish, profilaktik tozalash va konservatsiyani talab qiladi.

Marmar va toshdan ishlangan buyumlar kolleksiyasining ko‘rgazma salohiyati yuqori. Uning vositasida “Samarqandda tosh o‘ymakorligi san‘ati”, “Marmarda epigrafika”, “An‘anaviy turmushda tosh”, “Nurota marmari”, “Xotira va tasvir: toshdagi portret” (Ulug‘bek, Navoiy, Ibn Sino tasvirlari tushirilgan idishlar asosida) nomli tematik ko‘rgazmalar tashkil etish mumkin.

Turli maqsadlarda foydalanilgan, kelib chiqish va xronologiyaga ega ashyolar mavjudligi, shuningdek, ularga oid hujjatlar ushbu kolleksiyaning mintaqaning moddiy madaniyatini o‘rganish hamda samarali muzey ko‘rgazmalarini tashkil etish uchun muhim ilmiy asos deb hisoblash mumkinligini ko‘rsatadi.

Musiqqa asboblari. Kolleksiyadagi umumiy ashyolar soni 146 tani tashkil etadi. Shundan 121 tasi asosiy fondga, 23 tasi ilmiy-yordamchi fondga va 2 donasi vaqtinchalik fondga ro‘yxatga olingan. Muzey etnografiya fondi musiqqa asboblari kolleksiyasi xalq musiqqa madaniyati shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviylashuv jarayonlarini ko‘rsatib beruvchi muhim manba hisoblanadi. Ushbu kolleksiya turli davrlarga mansub, an‘anaviy va zamonaviy, cholg‘u asboblari o‘z ichiga olib, O‘zbekiston va yondosh hududlarning boy musiqiy merosini yoritib bera oladi.

Musiqqa asboblari tuzilishi va vazifasiga ko‘ra bir necha guruhlariga bo‘linadi. Birinchi guruhga, torli cholg‘u asboblari (dutorlar [5.B-5;B-7] – KK-854/1; KK-1859; KK-1864/3; tanburlar [8.B-7;B-8;B-17] – KK-1861/1; KK-2361; KK-4176/1; ruboblar [9.B-7;B-9] – KK-1861/2; KK-2675; KK-2789; g‘ijjaklar [7.B-7] – KK-1860/1; KK-1864/7); qo‘bizlar [10.B-9] – KK-2870; KK-2890; do‘mbiralar [2.B-18;B-21] – KK-4666/112; KK-5436 hamda ud [3.B-19] – KK-5078/1 kabi milliy cholg‘u asboblari kiritish mumkin. Mazkur asboblari yog‘och,

suyak, teri, metall bilan bezatilgan bo'lib, bir vaqtning o'zida mahalliy hunarmandchilik an'analarini ham yoritishda foydalanilishi mumkin. Ikkinchi guruhga, puflab chalinadigan cholg'u asboblari kiritish mumkin. Bularga, naylar (KK-13/64–13/67; 1860/2), karnaylar (KK-2492/1), surnaylar (KK-2492/2, KK-4012), fleyta (KK-4666/109), qo'shnay (KK-3825/4) kabi asboblarni kiritish mumkin. Ular, asosan, xalq marosimlari, bayramlar va jamoaviy tantanalarda ishlatilgan. Uchinchi guruhga, zarbli cholg'u asboblari kiritish mumkin. Bunda, nog'ora-barabanlar (KK-13/1,4), doira va doirachalar (KK-13/80–85; KK-4530/1-3), qo'shnog'ora (KK-3380/11-12) kabilar o'rin olgan. Ushbu asboblarni tayyorlashda yog'och, charm va metallardan foydalanilgan. To'rtinchi guruhga, mexanik cholg'u asboblari kiritish mumkin. Bunda, asosan, Yevropa o'ld zamonaviy musiqa an'analarini ko'rsatib beruvchi buyumlar mavjud. Bular, royallar (KK-3713/1; KK-4558/241), patifonlar (KK-3292; KK-4144; KK-5725), musiqa shkatulkalari (KK-4275/2; KK-4558/293), grammofon (KK-3435/23), akkordeon (VKK-277/2) musiqa asboblari hisoblanadi. Bu eksponatlar XX asr mobaynida mahalliy musiqiy muhitga texnik yangiliklarning kirib kelishini namoyish etishda foydalidir.

To'plam xronologik jihatdan XIX asr birinchi yarmidan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu holat kolleksiyaning rivojlanish bosqichlarini yoritishga yordam beradi.

Musiqa asboblari kolleksiyasi an'anaviy ijrochilik maktablari tarixini o'rganishda, xalq hunarmandchiligi va musiqa san'ati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda, madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, muzey fondidagi musiqa asboblari kolleksiyasi son jihatidan boy, tur jihatidan rang-barang va tarixiy jihatdan keng qamrovli hisoblanadi. U xalq musiqa madaniyatining rivojlanish bosqichlarini, an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlarning o'zaro uyg'unligini aks ettiradi.

To'quvchilikka oid ashyolar kolleksiyasi. Ushbu kolleksiyadagi umumiy ashyolar soni 158 ta bo'lib, shundan 140 tasi asosiy fondga, 18 donasi ilmiy yordamchi fondga ro'yxatga olingan. To'plamda to'qimachilik ishlab chiqarishining xom ashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlari mavjud. Ushbu ashyolar bizga xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonni tiklash imkonini beradi. O'z navbatida, kolleksiya ham ana shu jarayonni inobatga olgan holga guruhlashtirildi.

Birinchi guruhga, xom ashyoga oid buyumlar kiritildi. Bular, tabiiy ipak va ipakchilik mahsulotlari namunalari (KK-66; KK-71/26 a,b; KK-71/79; KK-1748/24) [4.B-2;B-3;B-7]. Ushbu buyumlar ishlab chiqarishning dastlabki bosqichini, pilladan ipak tolasini ajratib olish jarayonini tasvirlaydi. Ikkinchi guruhga, ip tayyorlash va yigirish bilan bog'liq ashyolarni kiritish mumkin. Bunga, ipak, paxta va aralash iplarning ko'plab namunalari kiritish mumkin. Yigirish uskunasi (KK-71/34), yigirish jarayonidagi ipak (KK-71/27), ipak tola (KK-71/28) kabi ashyolar ushbu guruhdagi asosiy buyumlardir. To'plam o'ralgan va o'ralmagan tolalarni, tabiiy va sintetik xom ashyolarni farqlash imkonini beradi. Uchinchi guruhga, paxta va fabrikada ishlab chiqarilgan tolalarni kiritish mumkin (KK-8/23; KK-41/38-42; KK-42/25-28; KK-71/112-115). Shuningdek, Samarqanddagi "Hujum" ayollar fabrikasi mahsulotlari

(IKK-970/1-12) an'anaviy hunarmandchilik ishlab chiqarishidan sanoat bosqichiga o'tishni aks ettiruvchi mahsulotlar sifatida alohida qiziqish uyg'otadi.

Xullas, to'plam to'liq ishlab chiqarish sikli: pilladan tayyor ipgacha bo'lgan jarayonni ko'rsatib bera oladi. Shundan kelib chiqib, ushbu kolleksiya vositasida "Pilladan matogacha: ipak mato ishlab chiqarish texnologiyasi" nomli tematik ko'rgazma tashkil etish mumkin.

Kashtado'zlar chizmalari. Ushbu noyob kolleksiya 1682 ta ashyoni qamrab oladi. Shundan, 1654 tasi asosiy fondga, 28 donasi ilmiy yordamchi fondga ro'yxatga olingan. Kolleksiya Samarqand va unga tutash hududlardagi badiiy kashtachilik tarixi bo'yicha noyob grafik manbalar majmuasi hisoblanadi. Ular 1930–1940-yillarda Samarqand muzeyi etnografi O.A. Suxareva rahbarligida professional chizmachilarning ayollaridan to'plangan.

To'plamning katta qismi matoga to'g'ridan-to'g'ri qo'llaniladigan naqshlar namunalari (KK-611; KK-1366/1-84; KK-1512/1-5; KK-1513/1-5; KK-1398; KK-1533; KK-1534; KK-1679) iborat [6.B-6;B-7]. Bir qism chizmalar qog'ozga chizdirilgan (KK-71/39; KK-1446/1-242; IKK-1153/1-22). Chizmalar ichida joynamoz, ro'yijo va bolinpo'sh uchun tayyorlangan maxsus naqshlar (KK-1513/3-5), yog'och o'ymakorligi bezaklari namunalari (IKK-414/1-3) ham mavjud.

To'plamning asosiy qismi 1930–1940-yillarda yig'ilgan. Biroq, bezaklarning o'zi XIX asr va XX asr boshlariga oid hamda ayol chizmachilar amaliyotida saqlanib qolgan avvalgi an'alarini aks ettiradi.

Kolleksiya asosan Samarqand va uning atrofidan to'plangan. Shu bilan birga Xiva (KK-1824/17-21) dan olib kelingan namunalar ham mavjud. Bu, kolleksiya yordamida, mahalliy bezak maktablarini qiyosiy tahlil qilish mumkin, demakdir.

Kolleksiyadagi ashyolar vositasida "Kashta chizmalari sirlari" ko'rgazmasini tashkil etish mumkin. Bunda, asosiy urg'u, kashtachilik chizma bilan boshlanishini namoyish etishga qaratiladi. Xullas, agar to'g'ri talqin qilinsa, ushbu kolleksiya Samarqand kashtachilik tarixi bo'yicha ilmiy ko'rgazmaning markaziy elementiga aylanishi mumkin.

Ushbu maqolada amalga oshirilgan tahlillar, muzey etnografik kolleksiyalariga Samarqand va unga tutash hududlardagi kundalik hayot tarixining yagona manbasi sifatida qarash imkonini beradi. Kolleksiyalarning xilma-xilligi – to'qimachilik, to'qish va kashtachilik naqshlaridan tortib, musiqa asboblari, chinni buyumlar, qurollar, soatlar, tosh va qog'oz buyumlargacha – XIX – XX asrlar davomida an'anaviy turmush tarzining o'zgarishining yaxlit manzarasini aks ettiradi.

Kolleksiyalar nafaqat buyumlarning maqsadini, balki ularning badiiy, estetik, ijtimoiy va ramziy ahamiyatini ham namoyish etadi. To'qimachilik to'plamlari va bezak dizaynlari to'plamlari mahalliy badiiy maktablar, mintaqaviy uslub xususiyatlari va an'alarining davomiyligini ko'rsatib beradi. Musiqa asboblari ijro madaniyatining evolyutsiyasini ochib beradi. Chinni buyumlar va uy-ro'zg'or buyumlari kundalik hayotdagi o'zgarishlarni, kundalik odob-axloq qoidalarini va sanoat ishlab chiqarishining kundalik hayotga ta'sirini namoyish etadi. Qurollar to'plami bizga harbiy va ovchilik madaniyatining turli jihatlarini,

shuningdek, qurollarni modernizatsiya qilish jarayonlarini kuzatish imkonini beradi. To'quvchilik ashyolari va aksessuarlari, shuningdek, kashtachilarning rasmlari alohida ilmiy qiymatga ega. Ular nafaqat yakuniy badiiy natijani, balki ishlab chiqarish jarayonini ham qayta tiklash imkonini beradi.

Muhokamalar. Natijalar, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi etnografik kolleksiyalari mintaqaning moddiy madaniyati tarixini kompleks yorituvchi tizimli manba ekanini ko'rsatadi. Kolleksiya nafaqat ashyolarning funksional vazifasini, balki, ularning badiiy, ijtimoiy va ramziy mazmunini ham ochib beradi.

To'qimachilik, kashtachilik naqshlari va hunarmandchilik buyumlari mahalliy badiiy maktablar hamda an'analar davomiyligini aks ettiradi. Musiqa asboblari ijro madaniyati evolyutsiyasini, metall va sopol buyumlar esa kundalik hayot hamda ishlab chiqarish jarayonlarini yoritadi.

Shuningdek, kolleksiyalar tarkibida an'anaviy hunarmandchilikdan sanoat ishlab chiqarishiga o'tish jarayonini aks ettiruvchi buyumlar ham mavjud. Bu esa XIX – XX asrlarda mintqa jamiyatining modernizatsiya jarayonlarini kuzatish imkonini beradi.

Shu jihatdan, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibidagi O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi etnografik kolleksiyalari moddiy madaniyat, iqtisodiy faoliyat va madaniyatlararo aloqalarni o'rganishda muhim ilmiy bazani tashkil etadi.

Xulosa. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibidagi O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi etnografik kolleksiyalari mintaqaning XIX – XX asrlar moddiy madaniyatini aks ettiruvchi boy va tizimli fond hisoblanadi.

Kolleksiya tarkibi hunarmandchilik, kundalik hayot, yozma va musiqa madaniyati hamda ishlab chiqarish an'alarining evolyutsiyasini yoritishga imkon beradi. Ularning xilma-xilligi hamda geografik qamrovi Samarqand va unga tutash hududlar tarixini kompleks o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, kolleksiyalar yuqori ko'rgazma salohiyatiga ega bo'lib, tematik ekspozitsiyalar orqali moddiy madaniyat merosini ommalashtirish va ta'lim-tarbiya faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ko'rib chiqilgan kolleksiyalar mintaqaning moddiy madaniyatini o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ular iqtisodiy tuzilma, hunarmandchilik an'analari, madaniyatlararo aloqalar va modernizatsiya jarayonlarini aks ettiradi.

Adabiyotlar:

1. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi 6-sonli kirim kitobi. 53-bet.
2. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi 18, 21-sonli kirim kitoblari.
3. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi 19-sonli kirim kitobi.
4. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi 2, 3, 7-sonli kirim kitoblari.

5. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 5, 7-sonli kirim kitoblari.
6. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 6, 7-sonli kirim kitoblari.
7. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 7-sonli kirim kitobi.
8. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 7, 8, 17-sonli kirim kitoblari.
9. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 7, 9-sonli kirim kitoblari.
10. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi 9-sonli kirim kitobi.
11. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ganchkorlik ashyolari kolleksiyasi inventar kitobi. E-26. 1-9 betlar.
12. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi gilam mahsulotlari kolleksiyasi inventar kitobi. E-90. 1-176 betlar.
13. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi marmar ashyolar kolleksiyasi inventar kitobi. 1-28 betlar.
14. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi metall buyumlar kolleksiyasi inventar kitobi. E-94. 1-377 betlar.
15. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi naboykalar kolleksiyasi inventar kitobi. E-23. 1-7 betlar; E-26. 1-5 betlar.
16. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ot anjomlari kolleksiyasi inventar kitoblari. E-81; E-84.
17. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi teri mahsulotlari kolleksiyasi inventar kitobi. E-56. 1-14 betlar.
18. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi yozuvga oid ashyolar kolleksiyasi inventar kitobi. E-88. 1-116 betlar.
19. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi yozuvga oid ashyolar kolleksiyasi inventar kitobi. E-37; E-38. 1-13 betlar.
20. Писарчик А.К. «Народная архитектура Самарканда». Душанбе, 1975. С.254.

Amriddinova Hilola Shamsiddin qizi

Researcher at Samarkand State Institute of Foreign Languages

email: xamriddinova@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0002-5062-7787/>

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 24th March 2026

GLOBALLASHUVNING MILLIY QADRIYATLARGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonining milliy qadriyatlarga ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Global axborot maydonidagi ta'sirlar, ommaviy madaniyat, texnologiya va kommunikatsiya vositalarining ommalashuvi natijasida yuzaga kelayotgan mafkuraviy o'zgarishlar milliy axloq, madaniyat, an'ana va urf-odatlarga qanday ta'sir ko'rsatayotgani o'rganiladi. Zo'ravonlik, pornografiya, yovuzlik va ma'naviy inqiroz singari manfiy holatlarning axborot oqimi orqali jamiyat ongiga singishi, yosh avlodning milliy qadriyatlardan uzoqlashishi bilan bog'liq tahdidlar ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar. Globallashuv, milliy qadriyatlar, ma'naviy inqiroz, axloqiy tarbiya, zo'ravonlik, pornografiya, yoshlar ongi, ommaviy madaniyat, madaniy identifikatsiya, milliy o'zlik, axborot xavfsizligi, ma'naviy immunitet, urf-odatlar.

ВЛИЯНИЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ

Аннотация. В статье анализируется влияние процесса глобализации на национальные ценности с социально-философской точки зрения. Рассматривается, как идеологические изменения, возникающие в глобальном информационном поле, распространение массовой культуры, технологий и средств коммуникации, влияют на национальную мораль, культуру, традиции и обычаи. Показаны угрозы, связанные с проникновением в сознание общества через информационный поток таких негативных явлений, как насилие, порнография, зло, духовный кризис, а также отчуждение молодого поколения от национальных ценностей.

Ключевые слова. Глобализация, национальные ценности, моральный кризис, моральное воспитание, насилие, порнография, молодежное сознание, массовая культура, культурная идентичность, национальная идентичность, информационная безопасность, моральный иммунитет, традиции.

THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON NATIONAL VALUES

Abstract. This article analyzes the impact of the globalization process on national values from a socio-philosophical perspective. It examines how ideological changes arising from the global information field, the spread of mass culture, technology, and communication media affect national morality, culture, traditions, and customs. The threats associated with the penetration of negative phenomena such as violence, pornography, evil, and spiritual crisis into the consciousness of society through the information flow, and the younger generation's alienation from national values, are shown.

Keywords. Globalization, national values, moral crisis, moral education, violence, pornography, youth consciousness, mass culture, cultural identity, national identity, information security, moral immunity, traditions.

Kirish. Hozirgi zamon dunyoda globallashuv jarayonini soʻzsiz qabul qilish mumkin. U nafaqat iqtisodiy sohada, balki madaniyat, siyosat, ijtimoiy munosabatlar va texnologiyalarda ham keskin oʻzgarishlarga olib kelmoqda. Globallashuv jarayoni orqali mamlakatlar oʻrtasidagi aloqalar kuchayadi, insonlar oʻrtasidagi maʼlumotlar almashinuvi va tajriba ayirboshlash tezlashadi. Bu jarayon yangiliklar va oʻzgarishlarni jahon miqyosida jadal tarqatadi, shu bilan birga mahalliy madaniy fazoning ham shakllanishiga taʼsir koʻrsatadi.

Biroq globallashuvning milliy qadriyatlarga taʼsiri murakkab va koʻp qirralidir. Milliy qadriyatlar — bu millatning tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan maʼnaviy va madaniy boyliklardir. Ular millatning oʻzlik va identifikatsiyasini saqlashda, jamiyatning birligi va barqarorligini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega. Globallashuv jarayonida esa bu qadriyatlar turli xorijiy omillar taʼsirida oʻzgarishi yoki hatto yoʻqolishi mumkin. SHuning uchun bu masala ijtimoiy falsafiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilinishi talab etiladi.

Ijtimoiy falsafada globallashuv va milliy qadriyatlar oʻrtasidagi munosabat inson jamiyatining rivojlanishining murakkab mexanizmlari sifatida qaraladi. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, individuallik va umumiylik, milliy anʼanalar va global tendensiyalar oʻrtasidagi muvozanatni saqlash zarurligi taʼkidlanadi. SHuningdek, bu jarayonlarda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, millatlarning madaniy merosini asrash va rivojlantirish masalalariga alohida eʼtibor qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili va metadologiya. Globallashuvning universallashtuvi — bu jarayonning jahon miqyosida barcha sohalarga, barcha ijtimoiy tizimlarga taʼsir qilishi va ularda muvozanatni yaratishga boʻlgan intilishidir. Bu gʻoyani tushinishda bir necha muhim falsafiy nazariyalar va mutaxassislar fikrlari asosiy oʻrin tutadi. Xususan, nemis falsafachisi Ulrix Bek oʻz asarlarida globallashuvni universallik nuqtai nazaridan tahlil qiladi va uni bir nechta yoʻnalishlarda tushuntirishga harakat qiladi.

Ulrix Bekning fikricha, globallashuvning universallashtuvi bu jarayonning ijtimoiy va madaniy jihatlarini qamrab olishga intilgan holatdir. Universallashtuv — bu bir vaqtning oʻzida globallashuvning barcha sohalarda (iqtisod, madaniyat, siyosat, axborot) oʻzaro bogʻliq va umumiy prinsiplarga tayangan holda rivojlanishini anglatadi.

Fridrix Nitsshe Evropaning "birinchi nigilisti" sifatida tanilgan boʻlib, u barcha anʼanaviy qadriyatlarni qayta baholash, ularni tanqid qilish va hatto rad etish tarafdori edi. Uning fikricha, gʻarb sivilizatsiyasi yaratgan barcha narsalar — axloq, din, madaniyat kabi qadriyatlar asosan shunday qayta qarashga muhtoj edi. Nitsshening bu gʻoyasi globallashuv jarayonida qadriyatlarning qayta shakllanishi va ularning universallikka intilishi haqida muhim gʻoyalarni taqdim etadi.[1.B.15]

Gotxold Lessing esa universalizm tarafdori boʻlib, inson huquqlari, tinchlik va umuminsoniy qadriyatlarni targʻib qilgan falsafachidir. Biroq u ham umumiy tamoyillar va qadriyatlarga nisbatan biroz relyativizm — yaʼni nisbiylik yoki nisbatan qarashni qoʻllab-quvvatlagan. Uning fikriga koʻra, ijtimoiy va madaniy voqelikni toʻliq bilish imkonsizligi, inson aqli va idrokidagi cheklovlar uning universallik tamoyillarini toʻliq va absolyut ravishda qabul qilishini cheklaydi. SHuning uchun uning nazariyasida universallik va relyativizm oʻrtasidagi muvozanat muhim ahamiyatga ega.

Globallashuvni universal hodisa sifatida qarash — bu jarayonning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy barcha sohalarga taʼsir etishini tan olishdir. Universallik gʻoyasi globallashuvning barqarorlik va shakllanish shartlarini belgilaydi, yaʼni uni ijtimoiy voqelik sifatida qabul qilish va unga muvofiq jamiyatni rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, universallik ijtimoiy

hayotda turlicha namoyon bo‘ladi va har bir jamiyatda, har bir madaniyatda uning o‘ziga xos ko‘rinishlari mavjud.

Bu jihatlarni yaxshiroq tushunish uchun mashhur sotsiolog Talkott Parsonsning ijtimoiy tizimlar haqidagi nazariyasiga murojaat qilish mumkin. Parsonsga ko‘ra, har qanday ijtimoiy tizimda barqarorlikni saqlash uchun to‘rtta asosiy va oltita muvaqqat yoki o‘zgaruvchan jihatlar mavjud.

Barqarorlik jihatlariga quyidagilar kiradi:

1. Kommunikatsiya tizimi — insonlar o‘rtasidagi axborot almashish va muloqot jarayoni jamiyatning barqarorligini ta‘minlaydi.
2. Qarindoshlik tizimi — jamiyatdagi oilaviy va irsiy aloqalar, ularning ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni va ahamiyati.
3. Din shakllari — ma‘naviy va axloqiy normalarni saqlovchi ijtimoiy institut sifatida dinning ahamiyati.
4. Texnologiyalar — jamiyatning iqtisodiy va madaniy rivojlanishini ta‘minlovchi amaliy vositalar.

SHu bilan birga, jamiyatning tashkil etilishi va rivojlanishi uchun muvaqqat (bekor bo‘lishga moyil) jihatlar ham mavjud:

5. Stratifikatsiya — jamiyatdagi ijtimoiy to‘plamlar va ularning darajalari.
6. Madaniy legitimlashish — madaniyat orqali ijtimoiy normalar va qoidalarining qonuniylikka ega bo‘lishi.
7. Byurokratiya — jamiyatni boshqarishning rasmiy va tizimli shakllari.
8. Pul va bozor kompleksi — iqtisodiy munosabatlarning asosi.
9. Umumlashtirilgan normalar tizimi — ijtimoiy qoidalar va ularning jamiyatdagi umumiy qabul qilinishi.
10. Demokratik uyushmalar tizimi — fuqarolik jamiyati va uning institutlari.[2.B.584]

P.L.Berger va S.P.Xantington, Xitoy, Tayvan, Hindiston, Janubiy Arab Respublikasi, CHili kabi mamlakatlardagi globallashuv jarayonlarini o‘rganishganida amerikacha yashash tarzi, kiyinish, ovqatlanish, ommaviy axborotlar va saytlardan, internetdan foydalanish bilan birga milliy madaniyat uyg‘unlashayotganini kuzatishgan. Ular hind yoki xitoylikning hech qanday e‘tirozsiz, yov qarashsiz G‘arbona qadriyatlardan foydalanayotganini bildirashadi.[3.B.19]. Demak, an‘anaviy jamiyatlar chetdan, g‘arbdan keladigan innovatsiyalarni, yangiliklarni rad etaverishmas ekan, balki ulardan bahramand bo‘lishga intilishlar ekan.

Muhokama. Globallashuv — bu nafaqat iqtisodiy va siyosiy jarayon, balki ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy sohalarga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatayotgan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Jamiyatda asrlar davomida shakllangan falsafiy, axloqiy, diniy, estetik, ilmiy va huquqiy qadriyatlar global ta‘sirlar sharoitida yangi mazmun va ifoda topmoqda. Bu qadriyatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro ta‘siri, munosabati va moslashuv darajasi jamiyat ma‘naviyatining yuksalishi yoki tanazzulini belgilab beradi.

Falsafiy nuqtai nazardan qaranganda, mazkur qadriyatlar o‘rtasidagi aloqadorlikning tabiati va xarakteri muhim ahamiyatga ega. Masalan, axloqiy qadriyatlar diniy ta‘limotlar bilan, estetik g‘oyalar falsafiy qarashlar bilan, huquqiy normalar esa jamiyatning tarixiy va ilmiy tajribalari bilan chambarchas bog‘liq. Ularning o‘zaro ta‘siri jamiyat ma‘naviy yuzini belgilab beradi va xalqning axloqiy ideallari, hayotga, Vatanga, insonga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi.

Alohida olingan har bir davlat va jamiyat o‘zining ma‘naviy taraqqiyotini, milliy qadriyatlarini asrab-avaylash va rivojlantirishni o‘z strategik manfaatlari darajasida belgilaydi. Bu jarayonda milliy manfaatlar, tarixiy meros, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanishi zarur bo‘lgan ma‘naviy tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviyatni rivojlantirishda ta'lim va tarbiyaning roli beqiyosdir. Ta'lim — bilim berish bilan birga, jamiyatning ma'naviy yuzini, kelajak avlodning dunyoqarashi, axloqiy va estetik qadriyatlarini shakllantiruvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Tarbiya esa insonni voyaga etkazish, uning qalbida yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliyotdir. SHu bois, globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatni asrab-avaylash va uning mazmunini boyitish, avvalo ta'lim va tarbiya tizimi orqali amalga oshirilishi lozim.

Globallashuvning ta'siri, avvalo, jamiyatda asrlar davomida shakllangan falsafiy, axloqiy, diniy, estetik, ilmiy va huquqiy qadriyatlarga taalluqlidir. Ushbu qadriyatlar insonning dunyoqarashi, ongi, hayot tarzi va ijtimoiy munosabatlarini belgilab beruvchi muhim ma'naviy poydevor hisoblanadi. Ular o'zaro bog'liq holda jamiyat ma'naviyatini shakllantiradi va uning yo'nalishini belgilaydi. Globallashuv jarayonida bu qadriyatlarning tarkibiy tuzilishi, mazmuni va ijtimoiy ahamiyati qayta baholanishiga to'g'ri keladi.

Shu bilan birga, globallashuv ma'lum ma'noda milliy madaniyat va qadriyatlarni rivojlantirish, ularni boshqa xalqlarga tanitish, dunyoviy bilimlar va tajribalarni o'zlashtirish imkoniyatini ham yaratadi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari orqali milliy madaniy boyliklarni keng jamoatchilikka etkazish, yosh avlod ongida faxr va hissiyot uyg'otish imkoni paydo bo'lmoqda. Bunday jarayonlar orqali jahon madaniyatining xilma-xilligi saqlanadi va umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlik yuzaga keladi.

Biroq globallashuvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlari ham mavjud. Xususan, ommaviy madaniyatning bir xillashuvi (gomogenizatsiyasi) orqali milliy an'analar, urf-odatlar, muqaddas qarashlar o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. YAshash tarzi, kiyinish madaniyati, so'zlashuv uslubi, hatto oilaviy munosabatlar ham global tendensiyalarga moslashgan holda o'zgarib boradi. Bu esa jamiyatda ma'naviy bo'shliq, o'zlikni yo'qotish, qadriyatlar ierarxiyasining buzilishi kabi holatlarni keltirib chiqaradi. [4.B.206]

Globallashuvning inson ongiga ta'siri eng avvalo yosh avlod orasida seziladi. Zamonaviy axborot oqimi, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan g'arbcha turmush tarzi, ko'r-ko'rona erkinlik, moddiy boylikka intilish kabi g'oyalar milliy qadriyatlarga zid ravishda shakllanadi. Bu esa yoshlar ma'naviyatining zaiflashuviga, oilaviy munosabatlarning bo'shashuviga, umumiy axloqiy normalarning qadrsizlanishiga sabab bo'ladi.

Ma'naviyat esa xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi va ma'rifiy qadriyatlarini ifoda etuvchi murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, u muayyan millatning o'ziga xosligini belgilaydi. U xalqning falsafasi, dini, tili, san'ati, urf-odati va axloqiy qarashlari bilan chambarchas bog'liq. SHu sababli har qanday millat o'zining ma'naviy boyliklarini asrab-avaylashi, uni yangi avlod ongiga singdirishi zarur. Bu jarayonda ta'lim va tarbiya tizimi muhim o'rin tutadi. Ta'lim faqat bilim berish emas, balki ma'naviy yuksalishni ta'minlovchi muhim vosita sifatida qaralishi lozim. Tarbiya esa inson qalbida milliy g'urur, mas'uliyat, vatanparvarlik, odamiylik va mehr-oqibat tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Natijalar. Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Qadriyatlar kishilarning turli sohalaridagi, avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmui bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. So'ngra asta-sekin sub'ekt faolligining orta borishi oqibatida nisbiy mustaqqil soha tarzida amal qila boshlaydi. Tabiat va jamiyat hodisalari inson faoliyati natijasida qadriyat sirasiga kiritiladi. Insonning manfaatlari, ehtiyojlarini qondira olmagan, orzu-istaklari, ideallariga mos kelmaydigan tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyat deb baholash noo'rindir. Masalan, tabiatdagi qazilma boyliklar inson ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatila boshlangandan keyingina qadriyatga aylangan. SHungacha ularni boyliklar deb hisoblashimiz lozim.[5.B.8]

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari orqali butun dunyo internet orqali bog'langan. Afsuski, bu erkinlik barcha holatda ma'rifat va bilim tarqatish uchun emas, balki zo'ravonlik, yovuzlik va yoshlar ongiga salbiy ta'sir qiluvchi pornografik, shunchaki shikast etkazuvchi kontentlar tarqalishi uchun ham vosita bo'lmoqda. Bu kontentlar inson qadri, oila muqaddasligi, ayol sha'ni, yoshlar ongi va milliy madaniyatga zid holatlarni targ'ib qilmoqda.

Zo'ravonlik va yovuzlikni targ'ib qiluvchi video va kinofilmlar, o'yinlar va ommaviy media yoshlar ongida hushyorlikni emas, balki tajovuzkorlikni shakllantirishi mumkin. Ular muammolarni muloqot yoki axloqiy yo'llar bilan hal etish o'rniga, kuch ishlatish, qasd olish, adovat bilan javob berish kabi zararli munosabat modellarini o'rgatadi. Bu esa yoshlarda o'ziga xos agressivlikni kuchaytiradi, ko'chadagi janjallar, oilaviy nizolar, maktabdagi zo'ravonlik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. [6.B.8]

Ayniqsa, pornografik kontentning ommaviy ravishda tarqalishi milliy va diniy qadriyatlarimizga qattiq ziddir. Chunki u inson ongidagi hayo, iffat, sharm-hayo kabi eng nozik ma'naviy tuyg'ularni zaiflashtiradi. Ayol va erkak o'rtasidagi muqaddas munosabatlar tijoratga aylantiriladi, inson jismi esa tovar sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa faqat shaxsiy emas, balki umumjamiyat ma'naviyatiga ham jiddiy zarar etkazadi.

Milliy axloqiy qadriyatlarimiz — uzoq tarixga, Islom ta'limoti va xalqona urf-odatlariga suyangan muqaddas me'yorlar majmuasidir. Bizning jamiyatimizda iffatlilik, hayo, muhabbat, oilaviy muqaddaslik kabi qadriyatlar ustuvor hisoblanadi. Ayol insonga e'tibor, bolalarga muhabbat, inson sha'niga hurmat — biz uchun faqat axloqiy talab emas, balki ma'naviy burch hamdir.

Globalashuv orqali kirib kelayotgan bunday manfiy ko'rinishlar esa milliy madaniyatni izdan chiqarishi, jamiyatda ma'naviy inqiroz yuzaga keltirishi mumkin. Agar yoshlar ongida vatanparvarlik, burch, hayo, mas'uliyat, oilaga sadoqat kabi tushunchalar emas, balki zo'ravonlik, shafqatsizlik, nafsga xizmat qilishga asoslangan tarbiya ustuvor bo'lsa, bu kelajak uchun xatarli signaldir.

Bunday holatda jamiyatning, ayniqsa ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va oilalarning mas'uliyati katta. Ta'lim mazmuni faqat bilim berish emas, balki axloqiy tarbiyani ham qamrab olishi kerak. Internet tarbiya vositasi emas, balki faqat axborot vositasi ekanini anglatish zarur. Ota-onalar farzandlari bilan ma'naviy muloqot o'rnatishi, qanday kontent ko'rayotgani, qanday dunyoqarashga ega bo'layotgani bilan muntazam qiziqib borishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, globalashuv — bu ikki qirrali jarayon bo'lib, u inson hayotida jadal taraqqiyot, axborot almashuvi, fan-texnika rivoji, madaniyatlar o'zaro ta'siri va umuminsoniy hamkorlikni ta'minlaydigan kuchli omildir. Biroq shu bilan birga, globalashuv axloqiy inqiroz, ma'naviy bo'shliq va milliy qadriyatlarning inkor qilinishiga ham olib kelishi mumkin. Bu jarayonda dunyo bo'ylab tarqalgan axborotlar ichida nafaqat foydali bilimlar va ilmiy yutuqlar, balki zo'ravonlik, yovuzlik, pornografiya, shafqatsizlik va hurmatsizlikni targ'ib etuvchi vizual kontentlar ham mavjud bo'lib, ular ko'p hollarda yoshlar ongiga singib borishda va ularning dunyoqarashini shakllantirishda xavfli ta'sir ko'rsatadi.

Bunday targ'ibotlar milliy va diniy qadriyatlarimizga, jamiyatimizning ma'naviy tayanchlariga ochiqdan-ochiq zid keladi. Ata-onaga hurmat, hayo va iffat, vatanparvarlik, insonparvarlik, oila muqaddasligi, ayol sha'niga ehtirom — bu xalqimizning yuzlab yillar davomida shakllantirgan axloqiy me'yorlaridir. Ushbu qadriyatlar bugungi kunda turli madaniy ta'sirlar va axborot xurujlari ostida buzilish xavfi ostida qolmoqda. Internetdagi senzurasiz axborot oqimi, ommaviy media va ijtimoiy tarmoqlardagi shubhali kontentlar bu buzilish jarayonini tezlashtirmoqda.

Shu sababdan, jamiyatning ma'naviy sog'lomligi uchun globalashuv ta'siriga faqatgina texnik yoki iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki axloqiy-falsafiy jihatdan ham yondashish zarur. Milliy axloqiy asoslarimiz — bizning madaniy o'zligimiz, ma'naviy immunitetimiz va ruhiy

barqarorligimizni ta'minlovchi qudratli poydevordir. Agar bu asoslar zaiflashsa, jamiyatning ichki birligi, dunyoqarashi va ijtimoiy tartibi izdan chiqishi mumkin.

Yosh avlod ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy immunitetni shakllantirish — bu global ta'sirlarga qarshi eng kuchli va samarali himoya hisoblanadi. Ma'naviy immunitet — bu yoshlarning yomonni yaxshidan ajrata olishi, axloqiy mustahkamlikka ega bo'lishi, nafsga emas, aql va vijdonga quloq tutishi, internet va mediani ongli ravishda filtrlay olishi, o'zini va Vatanini himoya qilish qobiliyatini anglatadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Soros Dj. O globalizatsii. – M.: «EKSMO», 2004.S.15.
2. Rossiyskaya sotsiologicheskaya ensiklopediya.-Moskva: Norma-infra. M.1998.S.584.
3. Mnogolikaya globalizatsiya. Kulturnoe raznoobrazie v sovremennom mire. Pod red. P.Bergera, S.Xantingtona. - Moskva. ASPEKT-PRESS, 2004.
4. Ziyomuhamedov B. Sog'lom ola shaxsiyatini shakllantirish haqida.-Toshkent: Tafakkur qanoti, 2014,-206-207b.
5. Ochildiev A. Globallashuv va ma'naviy-g'oyaviy tahdidlar// globallashuv. Ommaviy madaniyat. Milliy – g'oya. – Toshkent: 2009.8b.
6. Xalilova Sh. Oila nomli davlat sirlari. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.-8b.
7. **David Held, Henrietta L. L. McGrew** – *Global Transformations: Politics, Economics and Culture* (2000)
8. Асланов Д., Маназаров С. (2020). *Globallashuv jarayonining mazmuni va ko'lami*. Chirchiq davlat pedagogika instituti. Academic Research in Educational Sciences, Volume 1, Issue 3. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804.
9. Ratlend P.Globalizatsiya i postkommunizm//Mirovaya ekonomika i mejdunarodnye otnosheniya,2002№4-S.15-16
10. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari:iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar.T.: Ma'naviyat,2006,5-6 b.

Алиев Гофир Қуватович

Ўзбекистон маҳаллалар уюшмаси Навоий вилояти бошқармаси бошлиғи

AlievGofir1959@gmail.com

UDK 321.7:316.344.42

Received 4th December 2025, Accepted 12th January 2026, Online 24th March 2026

ЎЗБЕКИСТОНДА БОШҚАРУВ ЭЛИТАСИ ДЕМОКРАТЛАШУВИНИНГ ИЖТИМОЙ АСОСЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасида бошқарув элитасининг демократлашуви жараёни илмий-сиёсий нуқтаи назардан таҳлил қилинади. Тадқиқотда бошқарув элитаси тушунчасининг назарий асослари, унинг шаклланишида ижтимоий омиллар, хусусан, ижтимоий мобиллик, таълим тизими, фуқаролик жамияти институтлари ва жамоатчилик назоратининг ўрни ёритиб берилган. Шунингдек, мамлакатда олиб борилаётган ислохотлар доирасида бошқарув элитасини янгилаш ва очиқликни таъминлашга қаратилган механизмлар таҳлил қилинган. Мақолада Ўзбекистонда бошқарув элитаси демократлашувининг қисқа, ўрта ва узоқ муддатли истиқболлари, мавжуд муаммолар ва чекловлар илмий жиҳатдан асослаб берилган. Тадқиқот натижалари давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш ва кадрлар сиёсатини такомиллаштиришда амалий аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: бошқарув элитаси, демократлашув, ижтимоий асослар, фуқаролик жамияти, давлат бошқаруви.

СОЦИАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЕМОКРАТИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ЭЛИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье с научно-политической точки зрения анализируется процесс демократизации управленческой элиты в Республике Узбекистан. В исследовании рассматриваются теоретические основы понятия управленческой элиты, а также освещается роль социальных факторов в её формировании, в частности социальной мобильности, системы образования, институтов гражданского общества и общественного контроля. Кроме того, анализируются механизмы обновления управленческой элиты и обеспечения открытости в рамках проводимых в стране реформ. В статье научно обоснованы краткосрочные, среднесрочные и долгосрочные перспективы демократизации управленческой элиты в Узбекистане, а также существующие проблемы и ограничения. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования системы государственного управления и кадровой политики.

Ключевые слова: управленческая элита, демократизация, социальные основы, гражданское общество, государственное управление.

**SOCIAL FOUNDATIONS AND PROSPECTS OF THE DEMOCRATIZATION
OF THE GOVERNING ELITE IN UZBEKISTAN**

Abstract. This article analyzes the process of democratization of the governing elite in the Republic of Uzbekistan from a scientific and political perspective. The study examines the theoretical foundations of the concept of the governing elite and highlights the role of social factors in its formation, particularly social mobility, the education system, civil society institutions, and public oversight. It also analyzes the mechanisms aimed at renewing the governing elite and ensuring transparency within the framework of the reforms being carried out in the country. The article scientifically substantiates the short-, medium-, and long-term prospects of the democratization of the governing elite in Uzbekistan, as well as the existing problems and limitations. The results of the research have practical significance for improving the system of public administration and developing personnel policy.

Keywords: governing elite, democratization, social foundations, civil society, public administration.

КИРИШ

Глобаллашув, рақамли трансформация ва ижтимоий онгнинг ўсиши шароитида давлат бошқаруви тизимларининг самарадорлиги кўп жиҳатдан бошқарув элитасининг сифати, очиқлиги ва жамият олдидаги жавобгарлиги билан белгиланмоқда. Замонавий сиёсий жараёнлар шуни кўрсатмоқдаки, давлат институтларини демократлаштириш фақат ҳукукий ислохотлар билан чекланиб қолмасдан, балки ҳокимиятни амалга оширувчи элита таркибининг янгиланиши ва ижтимоий асосларининг кенгайиши орқали таъминланади.

Ўзбекистон Республикаси мустақиллик йилларида давлатчилик ва бошқарув тизимини шакллантиришнинг ўзига хос моделини яратди. Айниқса, сўнгги йилларда амалга оширилаётган кенг қўламли сиёсий-ҳукукий ва маъмурий ислохотлар доирасида "халқ давлат органларига эмас, давлат органлари халққа хизмат қилиши керак" тамойили устувор ғоя сифатида илгари сурилмоқда. Бу эса бошқарув элитасининг фаолияти, унинг жамият билан муносабатлари ва қарор қабул қилиш механизмига янгича ёндашувни тақозо этмоқда.

Бошқарув элитаси демократлашуви масаласи Ўзбекистон учун нафақат назарий, балки амалий аҳамиятга ҳам эга. Чунки элитанинг ёпиқлиги, кадрлар танловида шаффофликнинг етарли эмаслиги ёки ижтимоий вакилликнинг чекланганлиги ислохотлар самарадорлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Шу боис мазкур масалани ижтимоий омиллар нуқтаи назаридан тадқиқ этиш давлат бошқарувини такомиллаштиришда муҳим илмий вазифа ҳисобланади.

Мақоланинг мақсади — Ўзбекистонда бошқарув элитаси демократлашувининг ижтимоий асосларини аниқлаш, ушбу жараёнга таъсир этувчи омилларни илмий таҳлил қилиш ҳамда унинг ривожланиш истиқболларини баҳолашдан иборат. Тадқиқот объекти сифатида Ўзбекистон Республикасининг давлат бошқаруви тизими танланган бўлиб, предмети эса бошқарув элитасининг шаклланиши ва демократлашуви жараёнлари ташкил этади. Тадқиқотда институционал ва қиёсий-сиёсий таҳлил, мантикий умумлаштириш ҳамда тизимли ёндашув усулларидан фойдаланилган.

Сиёсий фанларда элита назарияси В.Парето, Г.Моска, Р.Михельс каби олимлар ишларида чуқур асослаб берилган. Уларнинг ёндашувларига кўра, ҳар қандай жамиятда ҳокимият ва қарор қабул қилиш чекланган гуруҳ қўлида жамланади. Замонавий демократик назарияларда

эса элита мавжудлиги инкор этилмайди, балки унинг очиклиги, алмашувчанлиги ва жамоатчилик олдида ҳисобдорлиги асосий мезон сифатида белгиланади.

Ўзбекистон шароитида элита назарияларини қўллаш миллий давлатчилик анъаналари, совет давридан мерос бўлиб қолган бошқарув услублари ҳамда мустақил тараққиёт даври ислохотлари ўзаро уйғунлигини ҳисобга олишни талаб қилади.

Сиёсий фанларда "бошқарув элитаси" деганда давлат ҳокимияти ва бошқарув қарорларини қабул қилишда ҳал қилувчи таъсирга эга бўлган сиёсий, маъмурий ва интеллектуал гуруҳлар тушунилади. Демократлашув эса элита таркибининг очиклиги, меритократик тамойиллар асосида шаклланиши, жамоатчилик назорати ва ҳисобдорликнинг кучайиши билан ифодаланади.

Ўзбекистон шароитида бошқарув элитаси демократлашуви куйидаги белгилар орқали намоён бўлади:

- кадрлар танловида шаффофлик ва рақобат муҳитининг кучайиши;
- профессионализм ва билимга асосланган меритократик ёндашув;
- давлат хизматчилари фаолиятида жамоатчилик билан мулоқотнинг кенгайиши;
- фуқаролик жамияти институтлари таъсирининг ортиши.

Бошқарув элитаси демократлашуви жамиятдаги чуқур ижтимоий ўзгаришлар билан бевосита боғлиқ бўлиб, унинг муваффақияти айнан шу ижтимоий асосларнинг барқарорлиги ва ривожланганлик даражасига боғлиқ. Ўзбекистон шароитида мазкур жараён қатор ўзаро боғлиқ ижтимоий омиллар таъсирида кечмоқда.

Сўнгги йилларда Ўзбекистон жамиятида ижтимоий таркибнинг ўзгариши, ўрта синф улушининг ўсиши ҳамда янги профессионал гуруҳларнинг шаклланиши кузатилмоқда. Бу жараёнлар бошқарув элитаси таркибига ҳам бевосита таъсир кўрсатиб, унинг анъанавий маъмурий гуруҳлар билан чекланиб қолмасдан, иқтисодчилар, ҳуқуқшунослар, менежерлар ва рақамли технологиялар соҳаси мутахассислари ҳисобига кенгайишига замин яратмоқда. Элита таркибининг ижтимоий хилма-хиллиги қарор қабул қилиш жараёнида турли манфаатлар ва қарашларни ҳисобга олиш имкониятини оширади.

Ижтимоий мобилликнинг ошиши бошқарув элитаси демократлашувининг муҳим кўрсаткичи ҳисобланади. Давлат хизматида қабул қилишда билим, касбий компетенция ва амалий тажрибага асосланган ёндашувнинг кучайиши меритократик тамойилларни қарор топтиришга хизмат қилмоқда. Ўзбекистонда очик танловлар, кадрлар захирасини шакллантириш ҳамда хизмат поғоналари бўйлаб ўсиш механизмларининг такомиллашуви элита янгиланишининг ижтимоий базасини кенгайтirmoқда.

Таълим тизими бошқарув элитасини шакллантирувчи асосий ижтимоий институт сифатида намоён бўлади. Олий таълим муассасалари, давлат бошқаруви академиялари ва хорижий таълим дастурлари орқали тайёрланаётган мутахассислар замонавий бошқарув маданияти ва демократик кадриятларни ўзлаштирмоқда. Бу эса элитанинг интеллектуал салоҳиятини ошириш билан бирга, қарор қабул қилишда таҳлилий ёндашув ва жавобгарлик ҳиссини кучайтиради.

Фуқаролик жамияти институтлари — нодавлат нотижорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари ва жамоатчилик кенгашлари — бошқарув элитаси демократлашувининг ижтимоий назорат механизми сифатида фаолият кўрсатмоқда. Уларнинг фаоллиги давлат органлари қарорларининг очик муҳокама қилиниши, манфаатдор томонлар иштирокининг таъминланиши ва ҳисобдорликнинг ошишига олиб келади.

Жамиятда сиёсий маданият ва фуқаролик онгининг юксалиши бошқарув элитасига бўлган талабларни сифат жиҳатидан ўзгартиради. Фуқароларнинг ҳуқуқий билимларининг ортиши, ижтимоий фаолликнинг кучайиши элитадан очиклик, самарадорлик ва адолатли бошқарувни

талаб қилишга олиб келмоқда. Бу эса элита демократлашувининг ижтимоий муҳитини мустаҳкамлайди.

Қисқа муддатли даврда давлат бошқаруви тизимида кадрлар сиёсатида шаффофликни таъминлаш, очиқ танловлар ва рақобат механизмларини кенг жорий этиш устувор аҳамият касб этади. Рақамли платформалар орқали давлат хизматчилари фаолиятини баҳолаш демократлашувни институционал жиҳатдан мустаҳкамлайди.

Ўрта ва узоқ муддатли истиқболда эса бошқарув элитаси таркибида ижтимоий хилма-хилликнинг ошиши, хотин-қизлар ва ёшлар улушининг кўпайиши, ҳудудий манфаатлар мувозанатининг таъминланиши кутилмоқда. Бу эса элита қарорларининг ижтимоий адолат ва инклюзивлик тамойилларига мослашувини таъминлайди.

Амалдаги ислохотлар тенденциялари Ўзбекистонда бошқарув элитаси демократлашуви босқичма-босқич, эволюцион характерга эга эканини кўрсатади. Яқин ва ўрта муддатли истиқболда қуйидаги йўналишлар устувор аҳамият касб этиши мумкин:

- давлат хизматини профессионаллаштириш ва рақамлаштириш;
- кадрлар захирасини очиқ танлов асосида шакллантириш;
- маҳаллий бошқарув органларида сайланувчанлик ва ҳисобдорликни ошириш;
- сиёсий маданият ва ҳуқуқий онгининг юксалиши.

Шу билан бирга, демократлашув жараёнида анъанавий бошқарув услублари, бюрократик қаршилик ва институционал инерция каби муаммолар сақланиб қолиши мумкин. Бу эса ислохотларни изчил ва тизимли амалга оширишни талаб қилади.

Бошқарув элитаси демократлашуви жараёнида қатор объектив ва субъектив муаммолар мавжуд. Жумладан, институционал инерция, кадрлар тайинлашда формализм, маҳаллийчилик ва норасмий тармоқларнинг таъсири демократлашув суръатини секинлаштириши мумкин. Шунингдек, фуқаролик жамияти институтларининг айрим ҳолларда етарли даражада ривожланмагани ҳам элита устидан жамоатчилик назоратини чеклайди.

ХУЛОСА

Ўтказилган илмий таҳлил шуни кўрсатадики, Ўзбекистонда бошқарув элитаси демократлашуви жамиятнинг умумий ижтимоий ривожланиш тенденциялари билан узвий боғлиқ бўлиб, у босқичма-босқич ва эволюцион характер касб этмоқда. Мазкур жараён фақат давлат бошқаруви тизимидаги институционал ислохотлар билан чекланиб қолмасдан, балки элита таркибининг ижтимоий янгиланиши, унинг жамият билан алоқаларининг мустаҳкамланиши орқали амалга ошмоқда.

Тадқиқот натижаларига кўра, бошқарув элитаси демократлашувининг асосий ижтимоий пойдеворини ижтимоий мобиллик, таълим тизимининг ривож, фуқаролик жамияти институтларининг фаоллиги ҳамда сиёсий маданиятнинг юксалиши ташкил этади. Аҳолининг турли ижтимоий қатламлари вакиллариининг давлат бошқаруви тизимида жалб этилиши элита қарорларининг ижтимоий манфаатларга мослигини таъминлашга хизмат қилади.

Шу билан бирга, мақолада аниқланганидек, бошқарув элитаси демократлашуви жараёнида қатор муаммо ва чекловлар мавжуд. Жумладан, институционал инерция, бюрократик тўсиқлар, норасмий муносабатлар таъсири ҳамда жамоатчилик назорати механизмларининг етарлича самарали эмаслиги ушбу жараён суръатини чеклаб қўйиши мумкин. Бу ҳолат элитани шакллантириш ва янгилаш сиёсатини янада тизимли ва очиқ олиб боришни тақозо этади.

Истиқбол нуқтаи назаридан, Ўзбекистонда бошқарув элитаси демократлашуви давлат хизматини профессионаллаштириш, рақамлаштириш ва меритократик тамойилларни изчил жорий этиш орқали янада чуқурлашиши мумкин. Айниқса, кадрлар захирасини очиқ танлов

асосида шакллантириш, маҳаллий бошқарув органларида ҳисобдорликни ошириш ҳамда фуқаролик жамияти билан институционал ҳамкорликни кучайтириш муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Янги Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси тўғрисида»ги Фармони. — Тошкент, 2022.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик — ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. — Тошкент, 2017.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008.
5. Парето В. Избранные труды по социологии. — Москва: Политиздат, 1992.
6. Моска Г. Правящий класс. — Москва: Республика, 1994.
7. Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах. — Москва: Прогресс-Традиция, 2004.
8. Ибрагимов Б. Ўзбекистонда давлат бошқаруви ва сиёсий модернизация масалалари. — Тошкент: Академия, 2019.

Karimova Makhfuza Vakhobovna

Acting professor at
the Uzbek National Institute of Musical Arts
named after Yunus Rajabi

Received 4th January 2026, Accepted 12th February 2026, Online 24th March 2026

REGARDING PROGRAMMATIC ISSUES IN SOLO MAQOM SINGING

Abstract. Shashmaqom series, folk songs, classical works created by composers were selected in harmony with each other based on the approved, current 1st-year curriculum of the discipline. In addition, 1st-year students can learn to perform Shashmaqoms, Khorezm, Fergana-Tashkent maqoms paths, folk songs, “big” songs, Uzbek classical composition in the classes of other teachers.

Keywords: Shashmaqom, folk song, composer, classical work, harmony.

MAQOM YAKKA XONANDALIGIDA DASTURIY MUAMMOLAR BORASIDA

Annotatsiya. Shashmaqom turkumlari, xalq ashulalari, bastakorlar yaratgan mumtoz asarlar fanning tasdiqlangan, joriyga kiritilgan 1-kurs o‘quv dasturi asosida o‘zaro uyg‘un tanlangan. Bundan tashqari 1-kurs talabalari boshqa ustozlar sinfida ham Shashmaqom turkumlari, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, xalq ashulalari, katta ashulalardan va O‘zbek mumtoz bastakorlik ijodiyoti namunalaridan ijro qilishni o‘rganishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: Shashmaqom, xalq ashulasi, bastakor, mumtoz asar, uyg‘unlik.

К ВОПРОСУ О ПРОГРАММНЫХ ПРОБЛЕМАХ В СОЛЬНОМ ПЕНИИ МАКОМА

Аннотация: Шашмакомы, народные песни, классические произведения композиторов подобраны в гармонии друг с другом на основе утверждённой действующей учебной программы 1-го курса по данной дисциплине. Кроме того, студенты 1-го курса могут научиться исполнять циклы Шашмакома, хорезмские, фергано-ташкентские макомы, народные песни, «большие» песни, узбекские классические музыки на занятиях других преподавателей.

Ключевые слова: Шашмаком, классическое произведение, композитор, народная песня, гармония.

Introduction. As we all know, the art of maqom exists in the musical heritage of many Eastern peoples and forms the foundation of national music. Maqoms are cyclic musical complexes created in a specific order, representing a distinct, polished form of compositional creativity. In a broad sense, maqoms are an encyclopedia of folk music. Specifically, Shashmaqom has found its full expression in a number of aspects based on the metrical characteristics, melodies, circle rhythms, and rules of connecting poetry with folk song paths characteristic of Uzbek and Tajik music. As our esteemed President Sh.M. Mirziyoyev noted, "If we want to know and learn real, true art, first of all we must

know and learn the art of classical maqom. If we want to elevate art and culture, first of all we must elevate the art of classical maqom. We must mobilize all our capabilities so that the melodies of maqom, the spirit and philosophy of maqom, deeply take root in the heart of every person, first and foremost in the minds and hearts of our growing young generation." [1]

The Uzbek art of maqom has a history spanning a thousand years. Shashmaqom, Khorezm maqoms, and Fergana-Tashkent maqoms are distinguished by their unique status and performance styles. The era, time, and social reality have significantly influenced their development and refinement over the centuries.

The establishment of the Uzbek National Maqom Art Center in our capital, which is currently operating effectively, is a continuation of these momentous events. The art of maqom, an invaluable artistic encyclopedia for us, has for centuries and hundreds of years expressed the spirit of the nation, its sorrows and aspirations, at the highest levels.

Maqom bestows tranquility, peace, spiritual purity, and balance upon hearts. Its miraculous nature is evident when even foreigners who do not understand the Uzbek language at all listen to this ancient heritage of ours with enchantment and rapt attention.

Maqom is an invaluable spiritual heritage of our people. This art has traversed a long path of development, and many artists and composers have contributed to its gradual evolution. It encapsulates the most subtle melodies of human experiences. Therefore, to feel and understand maqom, a certain preparation is necessary. For this, a person must love music from a young age and connect their spiritual development with it. Given the current need for specialized literature and textbooks in the pedagogy of maqom performance, we have decided to undertake this article.

Literature Review. The great attention paid to maqom singing in recent years remains one of the important factors in elevating musical culture in our country to a new level. "The main goal of our conference, which brings together representatives from different continents and countries in this beautiful place, is to cherish this unique wealth like the apple of our eye, to let the world benefit from it, and to pass it down to future generations intact" [2]. "We must work on widely promoting the art of maqom, the unique heritage of our people, not only in our country but throughout the world, and if necessary, organizing maqom competitions on an international scale" [3]. The establishment of the Uzbek National Maqom Art Center in our capital, now operating successfully, is a continuation of these great endeavors. The art of maqom, an invaluable artistic encyclopedia for us, has for centuries expressed the human spirit, its sorrows, and noble aspirations at the highest levels.

The noble efforts initiated by our President to preserve our national maqoms like the apple of our eye and transmit them intact to the youth are a vivid expression of the enormous attention and care being given to the development of our national maqom art. This document [3] has proven extremely significant for the in-depth study of Uzbek maqom art, elevating unique performance schools and traditions to a new level, creating and enriching its "golden fund," and enhancing its international prestige and widespread promotion. The boundless attention shown towards the development of national maqom art inspires creators and instills creative joy. The vast and unique musical heritage of the Uzbek people – the Shashmaqom cycles – combined with our classical poetry, forms an example of exceedingly beautiful art, which the world looks upon with admiration.

Like every field of knowledge has its own history and stages of formation and development, the art of maqom also has a rich history spanning several centuries. Maqom is a mature and unique genre of oral professional music, created by composers during the Middle Ages. Maqom is a melody that has seeped from the being of our people.

Ghiyasuddin, the author of the encyclopedia "Ghiyas ul-Lughat," defines it as follows: "Maqom – pardai surudro go'yand", i.e. as maqoms are called the mode (pitch) of melody and song" [4]. It is known from ancient musical sources that maqoms have historical-theoretical and practical aspects.

Their theoretical issues were explained in treatises by great scholars such as Kindi, Farabi, Khwarazmi, Ibn Sina, Urmawi, Shirazi, Maraghi, Jami, and Husayni, who lived and worked in the 9th-15th centuries.

The practical mastery of the song cycles within Shashmaqom, the ancient, multifaceted, and rich musical heritage of the Uzbek people, is an important task. The Uzbek National Maqom Art Center is conducting consistent activities to acquaint the younger generation with this knowledge and to more fully satisfy their needs.

The Center has published numerous literary works related to music history and creativity. That is one aspect. On the other hand, in higher musical education institutions, deeply teaching and instilling not only the practical but also the musical-theoretical laws of maqoms during the lesson process is gaining urgent importance today. To achieve this goal, there is a need to provide undergraduate students with new curricula, manuals, and textbooks. As the maqom expert, esteemed master Iskhaq Rajabov noted, as a result, "Previously abstract and problematic issues find their solution, the long history and numerous rules of maqoms become clear; thanks to such researches, maqoms stand tall, creating some ground for subsequent investigations" [5].

Research Methodology.

Before starting practical lessons with a student admitted to the "Solo Maqom Singing" direction, the professor-teacher must test their musical literacy, performance skills, level of capability, and performance abilities. It is also advisable to check, through conversation and practically, their understanding of maqom art, the basic theory of Uzbek national maqom art, the singer's musical thinking, note-reading skills, and creative interests. Of course, students' performance skills, capabilities, and abilities vary. This process is important for establishing healthy creative communication with this student in the future.

The professor-teacher informs the student of the creative program that must be mastered during the relevant course and semester at each undergraduate stage, according to the approved science curriculum of the higher education institution. The requirements for mastering the selected works are explained: listening to recordings of Uzbek folk songs and examples of composer works with a level of complexity corresponding to the selected Shashmaqom cycle works for the relevant semester, demonstrating them through direct live performance, and mastering them. Providing the student with relevant information and creative instructions on thoroughly mastering the theoretical-practical issues of maqom singers' performance is important for achieving high results. After this, the professor-teacher, together with the student, selects the performance program according to the science curriculum.

Analysis and Results. The issue of creating a perfect performance interpretation of the cycle work to be performed is an important task. The creative growth of a 1st-year student can be observed from how effectively their concert-performance practice is organized. During their studies, the student has the opportunity to improve their qualifications by performing creative works, created based on the knowledge and skills acquired in their specialty class, in exams, competitions, concerts, and Republican and International competitions-festivals.

The knowledge that a student must master in the 1st semester of the 1st year is defined in the curriculum as follows:

- General information about the discipline of Maqom Singing;
- The art of performance;
- Understanding of Uzbek maqom art (maqomot);
- Studying and mastering performance traditions specific to regions;
- Performing cyclic works;
- Acquiring knowledge about vocal performance;

- Mastering and forming performance skills.

The knowledge that a student must master in the 2nd semester of the 1st year is defined in the curriculum as follows:

- Acquiring knowledge about vocal performance;
- Mastering and forming performance skills;
- Developing performance mastery;
- Working on methods of pure performance of musical works;
- Independently analyzing and studying artistic works;
- Working on the skill of sight-reading from notation;
- Perfecting performance skills;
- Developing stage performance and special concert skills.

According to the requirement defined in the curriculum, the cyclic works, folk songs, and examples of Uzbek classical composer works to be learned during the 1st and 2nd semesters of the 1st year are planned in consultation with the teacher, taking into account the student's capabilities.

Conclusion and Recommendations.

The classical works are selected according to the approved and implemented curriculum of the discipline. The Department of "Maqom Singing" at the Uzbek National Institute of Musical Arts named after Yunus Rajabi also has a set of requirements formed over the years and defined course by course. 1st-year students in other teachers' classes can learn to perform from the Shashmaqom cycles, Khorezm maqoms, Fergana-Tashkent maqom paths, folk songs, one of the "Katta ashula" (Great Song) forms, and examples of Uzbek classical composer works. In terms of difficulty level, they must, of course, correspond to the requirements of higher education and the capabilities of each student. The works whose notation is provided in the textbook are presented only as an exemplary program. During the 1st year educational process of the "Maqom Singing" specialty, to master performance skills at a new level, it is first necessary to form a creative program, which is done at the beginning of the academic year. As an example, taking into account the talent of a particular student, we can create a "Student's Individual Plan". For a student with average creative knowledge and skills, a specific creative program is recommended for the 1st academic year. For example:

Example of a 1st semester of a creative program:

- 1) From the Shashmaqom cycle works:

"Mughulchayi Navo" or musical works related to valleys and regions – from the Fergana-Tashkent maqom paths, e.g., "Qalandar" (optional), "Hojiniyoz I-V"; also, from the Khorezm Six and a Half Maqoms, it could be the Naqsh, Suvori, and Ufori sections of all maqoms.

- 2) From folk songs:

Perform one of "Ayrilmasun," "Dilxiroj," etc. It is also possible to perform one from "Katta ashula," Khorezm suvorisi, or Savt suvorisi.

- 3) One of the works of Uzbek classical composers:

"Ey sabo," "Sarparda," "O'Imasun," etc.

Example of a 2nd semester of a creative program:

- 1) From the Shashmaqom cycle works:

"Savti kalon" or musical works related to valleys and regions, e.g., from the Fergana-Tashkent maqom paths – "Bayot I-V"; also, from the Khorezm Six and a Half Maqoms, it could be the Naqsh, Suvori, and Ufori sections of all maqoms.

- 2) From folk songs:

Perform one of "Girya I," etc. It is also possible to perform one from "Katta ashula," Khorezm suvorisi, or Savt suvorisi.

3) One of the works of Uzbek classical composers:

"Nazzora qil," "Qoshi yosinmu deyin" (optional), etc.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. Shaxrisabz 2018-yil 6-sentyabr, Xalq so'zi. 7-sentyabr 2018-yil.
2. Same source.
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror. Xalq so'zi. 18-noyabr 2017-yil.
4. Matyoqubov O. Maqomot. T.Musiqa. 2004. 18-b.
5. Rajabov, I. Maqomlar.T. San'at. 2006. 41-b.

Халикова Наргиза Эркиновна

Докторант Бухарского государственного университета

Научная сотрудница Бухарского государственного музея-заповедника

Email: xalikovanargiza7@gmail.com

Received 4th January 2026, Accepted 12th February 2026, Online 24th March 2026

ФАЛЕРИСТИЧЕСКАЯ КОЛЛЕКЦИЯ БУХАРСКОГО МУЗЕЯ: ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И ИЗУЧЕНИЕ

Аннотация: в статье рассматривается фалеристическая коллекция Бухарский государственный музей-заповедник, включающая ордена и медали различных исторических периодов. Анализируются этапы формирования фонда, его состав и научное значение. Особое внимание уделяется роли наградных знаков как исторического источника, отражающего социально-политические процессы региона.

Ключевые слова: фалеристика, ордена, медали, музейные коллекции, Бухара, исторический источник.

BUXORO MUZEYINING FALERISTIK TO'PLAMASI: SHAKLLANISH VA O'QISH TARIXI

Annotatsiya: maqolada turli tarixiy davrlarning ordenlari va medallarini o'z ichiga olgan Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasiidagi faleristik kolleksiya ko'rib chiqiladi. Fondni shakllantirish bosqichlari, uning tarkibi va ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi. Mukofot belgilarining mintaqaning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini aks ettiruvchi tarixiy manba sifatida roliga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: faleristika, ordenlar, medallar, muzey kolleksiyalari, Buxoro, tarixiy manba.

PHALERISTIC COLLECTION OF THE BUKHARA MUSEUM: HISTORY OF FORMATION AND STUDY

Abstract: The article examines the phaleristics collection of the Bukhara State Museum-Reserve, which includes orders and medals from various historical periods. The stages of the collection's formation, its composition, and scientific significance are analyzed. Special attention is given to the role of awards as a historical source that reflects the socio-political processes in the region.

Keywords: phaleristics, orders, medals, museum collections, Bukhara, historical source.

Вступление (Introduction)

Бухарский эмират, существовавший с 1785 по 1920 год на территории современного Узбекистана, был важным центром культуры, науки и политики в Центральной Азии. Несмотря на его относительно ограниченную территорию и ресурсы, эмират обладал разнообразной символикой, включая ордена и медали, которые играли ключевую роль в государственной и социальной жизни.

Ордена и медали в Бухарском эмирате использовались для награждения представителей правящей элиты, высокопоставленных чиновников, военных и тех, кто внес значительный вклад в развитие государства. Их задача заключалась не только в поощрении личных заслуг, но и в укреплении государственной власти и демонстрации приверженности правителю — эмиру. Эти награды символизировали не только социальное положение, но и верность исламу, а также традиционным устоям бухарской власти.

Анализ и Результаты (Analysis and Results)

Система наград была установлена, вероятно, в XIX веке, когда Бухара находилась под сильным влиянием Российской империи и активно взаимодействовала с российскими военными и дипломатическими структурами. Первым из них был орден Благородной Бухары, учреждённый в 1881 году эмиром Музаффар-ад-Дином¹. Орден Благородной Бухары имел только звезду, а орденского знака у него не было. В литературе орден Благородной Бухары чаще всего и упоминается как «звезда» (иногда даже как «орден Восходящей звезды Бухары»), так как основой этой и последующих бухарских наград часто становились русские или персидские звезды. Из них извлекали центральный медальон, а вместо него приваривали кружок, покрытый эмалью (чаще всего синей и зеленой) с надписью арабской вязью («Награда столицы Благородной Бухары») и датой начала правления эмира. Новую награду сразу же послали в Россию «белому царю». В 1882 году орден Благородной Бухары имели уже некоторые офицеры бухарской армии, но награждать русских эмир воздерживался опасаясь недовольства духовенства. В 1885 году эмир Абдалахад вступил на трон, начиная с его правления орденом Благородной Бухары начали широко награждать представителей русской администрации.

Орден Благородной Бухары имел 8 степеней: три — золотых, три — серебряных и два наивысших класса — золотая звезда с бриллиантами и золотая звезда с алмазами. Орденские звезды каждой степени различались размером центрального медальона и орнаментом, который в нем размещался. Иногда была позолочена только середина медальона, а лучи звезды были серебряными².

В 1898 году в Бухарском эмирате была учреждена самая высокая награда — Искандер Салис (Солнце Александра), установленная в память о русском императоре Александре III. Эта награда предназначалась исключительно для награждения наиболее высокопоставленных русских. Знаки ордена Солнце Александра науке долгое время не были известны, но по

¹ [Беседы о фалеристике. И.В.Всеволодов. М. «Вече» 2009г. 239стр]

² [Юнина Н. А.100 великих наград. М.: «Вече», 2003 стр 116]

предположению И. Спасского, который опирается в своих исследованиях на фотографию эмира, орденскую звезду носили на правой стороне груди.

И. Можейко в своей книге приводит уже более подробные сведения. Орден Солнце Александра выполнялся из чистого золота в виде звезды с восемью короткими лучами, покрытыми эмалью с орнаментом. В середине располагался круг, в центре которого помещались 4 бриллианта, расположенные в виде треугольника, означающего букву «А». Под ней в маленьком кружочке располагалась арабская цифра «III», окруженная бриллиантами. Вокруг шла надпись: «Орден Искандер Салис столичного города Благородной Бухары». Золотая застежка к ордену тоже была сделана в виде треугольника, окруженного орнаментом из эмали, орденская лента была темно-красного цвета с белой полосой посередине.³

Одним из наиболее известных орденов был орден **"Нишан-и-Назар"**, который символизировал личное признание заслуг перед эмиратом. Он часто вручался высокопоставленным лицам, как внутри страны, так и за ее пределами. Орден представлял собой награду в виде медали с изображением эмирского герба и текста на арабском языке.

Другим известным орденом был **"Нишан-и-Шараф"**, учрежденный для награждения высоких чиновников и военных, которые отличились в службе и проявили храбрость в боевых действиях. Этот орден отличался изысканным дизайном и сложной чеканкой, которая отразила мастерство бухарских ювелиров.

Так же в государстве имелись медали. Медали Бухарского эмирата были менее многочисленными, чем ордена, но не менее значимыми. В фонде Бухарского государственного музея встречается медаль Бухарского эмирата, медаль круглая, покрыта с синей и голубой эмалью. Дата написанная на медали «1303» подтверждает что медаль времен Абдулахад-хана. На ней также написано надпись «Бухоро и Шариф» - это награда 1 степени «За усердие». Медали чаще всего вручались за достижения в культурной и экономической жизни эмирата. Некоторые медали были связаны с важными событиями в истории Бухары, такими как годовщины правления эмиров или важные дипломатические соглашения. Одной из самых известных медалей была "Медаль за заслуги в развитии экономики", которая вручалась людям, способствовавшим развитию торговли, сельского хозяйства и ремесел в эмирате. Эти медали имели значительное символическое значение, показывая, что граждане Бухарского эмирата ценились не только за военные достижения, но и за вклад в мирное развитие общества.

Заключения и Рекомендации (Conclusions and Recommendations)

Ордена и медали служили важным инструментом для укрепления статуса эмира и поддержания лояльности среди высокопоставленных чиновников и военных. Награды также играли роль в дипломатических отношениях. Во время правления эмира Сейид Алимхана, когда Бухара активно взаимодействовала с Российской империей, медали и ордена использовались как средство укрепления двусторонних отношений. Эмир и его ближайшее окружение часто награждали представителей российской дипломатии и армии, что служило

³ [Там же]

признаком взаимного уважения и признания. Ордена и медали Бухарского эмирата стали важным элементом не только символики и государственной структуры, но и частью культурного наследия региона. Они отражают сложные отношения, которые существовали между Бухарой, её правителями и внешним миром, особенно в контексте взаимоотношений с Российской империей и другими государствами. Эти награды сохраняют значительное историческое и культурное значение для изучения истории Бухарского эмирата и Центральной Азии в целом.

Список используемой литературы (Reference)

1. Архив Бухарского государственного музея-заповедника. — Фонд нумизматики.
2. Бартольд, В. В. Сочинения. История культурной жизни Туркестана. — М.: Наука, 1963. — 760 с.
3. Дуров, В. А. Русские награды XVIII — начала XX века. — М.: Просвещение, 1997. — 256 с.
4. Искандаров, Б. И. Из истории Бухарского эмирата. — М.: Изд-во АН СССР, 1958. — 240 с.
5. Ионина, Н. А. 100 великих наград. — М.: Вече, 2003. — 432 с.
6. Книга поступления Бухарского государственного музея-заповедника. — КП № 2; КП № 3; КП № 4.
7. Кузнецов, А. А. Награды: энциклопедический справочник. — М.: Эксмо, 2005. — 320 с.
8. Семёнов, А. А. Очерк истории Бухарского ханства. — Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1954. — 180 с.
9. Спасский, И. Г. Иностранные и русские ордена до 1917 года. — СПб.: Искусство, 1990. — 196 с.
10. Сухарева, О. А. Бухара XIX — начала XX века (позднефеодальный город и его население). — М.: Наука, 1966. — 327 с.

Begmatova Oydina Xolmuratovna

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot
instituti tayanch doktoranti

Received 4th January 2026, Accepted 12th February 2026, Online 31th March 2026

JIZZAX VOHASINING ETNOGRAFIK VA MADANIY-TARIXIY XUSUSIYATLARI

Annotasiya. Mazkur maqolada Jizzax vohasining etnografik va madaniy-tarixiy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Huduning geografik joylashuvi, Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi uning tarixiy taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgani yoritilgan. Shuningdek, maqolada vohadagi qadimgi shaharlar, sug‘orma dehqonchilik an‘analari, etnik tarkib, urf-odatlar, milliy kiyimlar va xalq amaliy san’ati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Manbalar asosida Jizzax vohasining madaniy merosi va uning bugungi kungacha saqlanib qolgan jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Jizzax vohasi, etnografiya, madaniy meros, Ustrushona, Buyuk Ipak yo‘li, dehqonchilik, urf-odatlar, hunarmandchilik, milliy kiyimlar, tarixiy manbalar.

ЭТНОГРАФИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОАЗИСА ДЖИЗАК

Аннотация: В данной статье анализируется этнографические и культурно-исторические особенности Джизакского оазиса. Освещается влияние географического положения региона, расположенного на перекрёстке Великого шелкового пути, на его историческое развитие. Также приведены сведения о древних городах, традициях ирригационного земледелия, этническом составе населения, обычаях, национальной одежде и народных ремёслах. На основе исторических источников раскрывается культурное наследие региона и его сохранение в современности.

Ключевые слова: Джизакский оазис, этнография, культурное наследие, Уструшана, Великий шелковый путь, земледелие, традиции, ремесла, национальная одежда, исторические источники.

ETHNOGRAPHIC AND CULTURAL-HISTORICAL FEATURES OF THE JIZAKH OASIS

Abstract: This article analyzes the ethnographic and cultural-historical features of the Jizzakh oasis. It highlights the impact of the region’s geographical location at the crossroads of the Great Silk Road on its historical development. The study also provides information about ancient cities, irrigation-based agriculture, ethnic composition, customs and traditions, national clothing, and traditional crafts. Based on historical sources, the cultural heritage of the region and its preservation up to the present day are discussed.

Keywords: Jizzakh oasis, ethnography, cultural heritage, Ustrushana, Great Silk Road, agriculture, traditions, crafts, national clothing, historical sources

Kirish (Introduction). O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan Jizzax vohasi boy tarixiy meros, o‘ziga xos etnografik an‘analar va ko‘p asrlik madaniy qadriyatlar bilan ajralib turadi. Ushbu hudud qadimdan turli xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar kesishgan nuqta bo‘lib xizmat qilgan. Shu bois Jizzax vohasi nafaqat geografik, balki etnografik va madaniy jihatdan ham alohida ahamiyatga ega. Vohada shakllangan urf-odatlar, turmush tarzi, xalq amaliy san‘ati va tarixiy yodgorliklar uning boy madaniy merosini namoyon etadi.

Tarixiy manbalarda Jizzax hududi turli davrlarda turli nomlar bilan tilga olinadi. Ushbu hududda qadimgi qishloqlar, qal‘alar va shahar xarobalari saqlanib qolgan bo‘lib, ular vohaning boy tarixidan dalolat beradi. Ayniqsa o‘rta asrlarda Jizzax Samarqand va Toshkent o‘rtasidagi muhim strategik nuqta sifatida ahamiyat kasb etgan.

O‘zbekistonning qadim va boy tarixga ega bo‘lgan tarixiy shaharlaridan biri hisoblangan Jizzax Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi, hududning qulay tabiiy-geografik joylashuvi bu yerda uzoq yillar mobaynida aholi yashab kelishi uchun qulay muhit yaratgan.

“Jizzax” atamasining kelib chiqishi va ma‘nosi haqida olimlar tomonidan turli fikrlar bildirilgan. “Dizak” nomining kelib chiqishi etimologiyasiga keladigan bo‘lsak, bu qadimiy nom hisoblanadi. Professor To‘ra Nafasov “Dizak” so‘zining lug‘aviy ma‘nosini izohlab: “Jizzax” nomining tovush shakli – “Dizak” ekanligini yozadi. O‘rta Osiyoda “Dizak” degan qal‘a, qishloq va shaharchalar juda ko‘p uchraydi. ...“Dizak” - yasama so‘z. Yasalishiga asos bo‘lgan so‘z-diz, so‘g‘d tilida diz -qal‘a. “Diz” so‘ziga kichik ma‘nosini ifodalovchi -ak qo‘shimchasi qo‘shilib, “Dizak” so‘zi yasalgan. “Dizak” - kichik qal‘a, qo‘rg‘on yoki qo‘rg‘oncha ma‘nosini anglatadi deb yozadi[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Jizzax O‘rta Osiyodan o‘tgan bir necha qadimgi karvon yo‘lining tutashgan joyida vujudga kelgan. Yozma manbalarda ilk bor arab geograf olimlari va sayyohlaridan Ibn Xavqal va Muqaddasiylarning asarlarida Ustrushonaning Faknon viloyatidagi shahar deb tilga olinadi[2].

Ibn Xavqal o‘zining “Kitob Surat Al-Ard” (Yerning surati kitobi) yoki “Kitob al – masolik va-l mamolik (Yo‘llar va mamlakatlar haqida kitob) asarida Movarounnahr, jumladan Jizzax haqida qimmatli ma‘lumotlar yozib qoldirgan. Xususan, asarning Movarounnahr qismi XXXVII (Ushrusana) bobida shahar va uning xo‘jaligi va joylashuvi haqida quyidagicha bayon qiladi. “Ushrusana – bu (bir) viloyatning nomi xuddi as-Sug‘d ham viloyat nomi bo‘lganidek. (Lekin) unda bu nomli shahar yo‘q. Uni har tomondan Movarounnahrning (boshqa) viloyatlari o‘rab turadi: sharqdan Farg‘ona va Fomirning bir qismi, g‘arbdan Samarqand hududlari, shimoldan ash-Shosh va Farg‘onaning (boshqa) qismi, janubdan esa Kesh, as-Sag‘oniyon, Shumon, Voshjird va ar-Roshtning ba‘zi hududlari tutashgan[3].

Yunon tarixchilarining ma‘lumotlariga ko‘ra mil.av. IV asrdayoq Ushrusonada sun‘iy sug‘orishga asoslangan zirotchilik va shahar hayoti rivojlangan. Ilk o‘rta asrlarda ushbu hududda eng yirik shaharlar joylashgan bo‘lib, yunoncha nomi bilan mashhur bo‘lgan Kiropol shular jumlasidandir. Iskandar tarixchilari Kiropoldan tashqari Aleksandr va Sirdaryo oralig‘ida yana 5 ta shaharni eslatib o‘tishgan, biroq birgina Gaza nomigina qayd etilgan. Yunon tarixchilari, Iskandar qo‘shini va Ustrushonaliklar o‘rtasidagi jangni ta‘riflar ekan, o‘lka aholisini jasorati haqida alohida qayd qilib o‘tishgan.

Qadimgi davrda Ustrushona So‘g‘diyona tarkibiga kirgan. Biroq Ustrushona aholisini so‘g‘d tilida muloqot qilgan deb aytish qiyin. Ustrushona aholisining asosiy qismi eron tilida so‘zlashgan. Xitoyning mashhur qo‘lyozmalarida Keshdan Toshkentgacha (Shi) yashagan aholi so‘g‘d tilida so‘zlashgan degan ma‘lumotlar Ustrushona aholisi to‘liq so‘g‘d tilida muloqot qiladi deyishga asos bo‘lmaydi. Bu shuni ko‘rsatadiki ilk o‘rta asr Ustrushona aholisining ma‘lum qismi so‘g‘d tilini tushungan va bu tildan boshqa millat vakillari bilan muloqot qilish uchun foydalangan deyish mumkin.

Xitoy qaydnomalaridan yana shu narsa ma'lumki, Ushrushonadan o'tgan Buyuk ipak yo'lining Uzoq sharqni O'rta va Yaqin sharq bilan bog'laydigan qismi so'g'dlar qo'liga o'tganligi, Ushrushona o'sha paytda jahon savdosiga tortilganligi va o'lka chegaralangan hayot tarzida yashamaganligidan dalolat beradi[4].

Uning eng katta shahri ushrusanaliklar tilida Bunjikat deb ataladi. Unga (quyidagi) shaharlar (qarashli): Arsubonikat, Kurkat, G'azaq, Fag'kat, Sobot, Zomin, Dizak, Nujkat va Xarqona. Bular (Ushrushana)ning shaharlaridir.

Hukmdorlar yashaydigan bosh shahar Bunjikatdir. Bu shahardagi erkak aholining (soni) taxminan o'n ming kishini tashkil etadi. Binolari paxsa va yog'ochdan (qurilgan). Unda atrofi devor bilan o'ralgan madina (bor). Rabad atrofida ham devor (bor), ularning orqasidan ham boshqa devor (o'tgan). Ichki madinaning ikkita darvozasi bor: ulardan biri Bob al-A'lo, ikkinchisi Bob al-Madina deb ataladi. Ichki madinada jome masjidi va kuhandiz (joylashgan). Hukumat saroyi rabadda, amirga qarashli yerda (joylashgan).

Ichki madinada katta ariq oqib o'tgan bo'lib unda tegirmonlar (joylashgan). Qamoqxona madinadagi kuhandizda, jome masjidi esa kuhandizdan tashqarida. Bozorlar ichki madinada ham, rabadda ham (bor). Rabad devori bir farsaxga yaqin (maydon)ni o'z ichiga olib, uylar, bog'lar, ekinzorlar va dalalarni o'rab turadi. Devor ichida joylashgan hamma narsalar shaharniki, devor tashqarisidagilar esa rustoqniki hisoblanadi. (Rabad)ning to'rtta darvozasi bor: ulardan biri Bob Zomin, (qolganlari) Bob Marasmanda, Bob Nujkat va Bob Qahlobod.

Bu shahardan oltita ariq oqib o'tgan bo'lib ulardan biri Sorin deb ataladi va madinaga oqib o'tadi. Boshqalari Abarjan, Yamojan, Sankjan, Ruyjan va Satinakjan deb ataladi. Ularning hammasi bir manbadan va bir buloqdan boshlanadi. (Ular) o'nta tegirmonni harakatga keltiradi. Shahardan suv manbaigacha (masofa) yarim farsaxdan kamroq...

...Bugun Ushrushanada kema yursa bo'ladigan daryo ham, ko'l ham yo'q, lekin uning ekinzorlari, yaylovlari va qishloqlari obod, hosildor va (turli-tuman) mahsulotlarga boy. Bu shaharlarning har birida katta rustoq (bor). Shaharlari mavjud bo'lmagan rustoqlar quyidagilardir: Bashog'ar, Masxo, Barg'ar, Fartong'om, Mink, Baskan va Isbikat[3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Jizzax vohasi qadimdan muhim savdo va madaniy aloqalar markazi hisoblangan. U Buyuk Ipak yo'li tarmoqlaridan biri ustida joylashgani sababli turli xalqlar va madaniyatlar ta'sirida rivojlangan. Arxeologik tadqiqotlar vohada ilk shahar madaniyati va dehqonchilik an'analari ancha erta davrlarda shakllanganini ko'rsatadi.

Ibn Xavqal Movarounnahr va uning shaharlarini kezar ekan hududdagi har bir jihat uni hayratlantiradi. U mamlakatni yashilliklarga burkanganligi, tog' va yaylovlari, ularga qanday ishlov berilganligini yozar ekan hayratini bekitmaydi. Hududda o'sadigan gullar, rayhon va daraxtlarni ta'riflar ekan, gullarni hech kimga tegishli emasligi va ular mavsum oxiriga qadar barq urib turishi haqida yozadi. Asar Movarounnahrning geografiyasi, tuzilishi, ko'llari va daryolari haqidagi ma'lumotlarni ham qamrab olishga harakat qiladi, bu esa o'z navbatida o'sha davrda mintaqada sun'iy sug'orishga asoslangan ziroatchilikni ta'riflash bilan bir qatorda, ushbu soha naqadar yuksak rivojlanganligidan dalolat beradi.

Butun islom dunyosining X asrdagi ko'rinishi va izohli xaritalari bayon etilgan Ibn Xavqalning "Kitob sur'at al-ard" kitobida Ushrushana-Jizzax, o'ziga xos joy egallagan va muallif Movarounnahr hududi va aholisi haqida "Movarounnahr o'zining mavqeiga ko'ra olamning eng hosildor, gullab-yashnagan va ne'matlarga boy iqlimlaridan (biri)dir. Uning ahli xayrli ishlarga rag'bat bildiradilar va kim ularga (yordam so'rab) murojaat qilsa, o'zlarining bor kuchlari, matonat va jasoratlari, (aholisining) ko'pligi va (xizmatga) tayyorligi, asbob-uskunolari va chorvalari, mardliklari va qurol-yarog'lari, bilimu-diyonatini ishga solib, (qo'llaridan kelgancha) oliyjanoblik, samimiylik va sahiylik bilan javob beradilar" degan iboralarni yozib qoldirgan[3].

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida ham Jizzax haqida ko'plab ma'lumotlar bergan, xususan, "Farg'ona, Xo'jand, O'ratepakim, asl bularning otlari kitoblarda Ushrushnadir va Ushrush ham bitirlar, qoldilar", deb yozib qoldirgan[5].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jizzax vohasining aholisi asrlar davomida turli etnik guruhlar aralashuvi natijasida shakllangan. Bu yerda o'zbeklarning turli urug' va qabilalari, shuningdek boshqa xalq vakillari ham yashab kelgan. Ularning o'zaro madaniy aloqalari natijasida o'ziga xos etnografik muhit yuzaga kelgan.

Vohadagi an'anaviy turmush tarzi dehqonchilik va chorvachilik bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Aholi yerga ishlov berish, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Ayniqsa kulolchilik, to'qimachilik, gilamdo'zlik va temirchilik kabi hunarlar keng tarqalgan.

Jizzax vohasi aholisining asosiy mashg'uloti sug'orma dehqonchilikka asoslangan ziroatchilik va chorvachilik hisoblangan. O'lkaning mehnatkash xalqi yil fasllarining ma'lum paytlarida yerga ishlov berishib, mo'l-ko'l hosil olishgan. Xususan, ilk o'rta asrlarda usturushonaliklar asosan bug'doy, arpa, sholi, kunjut, sulii, tarvuz, qovun, qovoq, uzum, o'rik, olma, shaftoli, yong'oq kabi dehqonchilik va poliz mahsulotlarini yetishtirishgan. Ushbu mahsulotlarni yetishtirishda albatta yaxshi rejalashtirilgan sug'orma dehqonchilik zarur bo'lgan. Ayniqsa arab muarrixlari tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlarda Movorounnahr, xususan Jizzaxda yerga ishlov berish san'at darajasiga chiqqanligini ko'rishimiz mumkin. O'lkada dehqonchilik bu qadar rivojlanishi uchun sun'iy sug'orish tarmoqlari juda katta rol o'ynagan.

Mil.av. I asr oxirlarida yashagan Yunon tarixchi va geografi Strabon o'zining "Geografiya" asarida, xitoy yilnomachisi Sima Szyan "Tarixiy yilnomalar" asarida, Kvint Kursiy Ruf "Buyuk Iskandar tarixi" asarida, Arrian o'z asarlarida ham yurtimizda istiqomat qilgan aholi va uning madaniyati, o'lkada yuz bergan tarixiy voqealar bilan bir qatorda mil.av. III asrda Usturushonada sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni o'qish mumkin. Yurtimizga sayohat qilgan bir qator arab va ajam sayyohlari asarida ham ushbu hududda dehqonchilik va bog'dorchilik haqida to'xtalib o'tishgan[6].

Jizzax vohasi aholisining milliy kiyimlari ham etnografik jihatdan qiziqarlidir. Erkaklar an'anaviy chopon, do'ppi va belbog' kiygan bo'lsa, ayollar rang-barang ko'ylaklar, kamzullar va milliy taqinchoqlar bilan bezangan liboslardan foydalangan. Bu kiyimlarda mahalliy naqsh va bezaklar muhim o'rin tutadi.

Jizzax vohasida xalq og'zaki ijodi, bayram va marosimlar muhim ahamiyatga ega. To'y marosimlari, beshik to'yi, sunnat to'yi kabi an'analari asrlar davomida shakllangan va bugungi kunda ham saqlanib kelmoqda. Ushbu marosimlarda milliy musiqa, raqs va xalq o'yinlari muhim o'rin tutadi.

Navro'z bayrami, hosil bayramlari va boshqa xalqona tadbirlar ham voha aholisining madaniy hayotida katta ahamiyatga ega. Bunday bayramlar odamlarni birlashtirib, avlodlararo aloqada o'tib kelayotgan an'analarni saqlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations). Jizzax vohasi o'zining boy tarixi, xilma-xil etnografik an'analari va madaniy merosi bilan O'zbekistonning muhim madaniy hududlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, hunarmandchilik an'analari va xalq madaniyati hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Vohaning etnografik va madaniy-tarixiy xususiyatlarini o'rganish nafaqat milliy merosni asrash, balki uni kelgusi avlodlarga yetkazishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Haydarov X, Usmonov Q. Jizzax tarixi. T.: - "O'qituvchi". 2009 y. 288 b.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jild. 2006 y. 712 b.
3. Ibn Xavqal. "Kitob sur'at al-ard". T.: - O'z.mil.ensiklopediyasi. 2011 y. 400 bet.
4. Смирнова О.И. Археологические разведки города Усрушане в 1950 г. Москва. Издательство Академии наук СССР. 1953 г. Стр. 230
5. Bobur Z.M. Boburnoma. T.: Yangi asr avlodi. 2024 y. 560 bet.
6. Xaydarov X. Jizzax viloyati tarixi. Jizzax. Mehnat. 1996 y. 235 bet.
7. "Yevroosiyo xalqlari madaniy merosi: zamonaviy tadqiqotlar, muammo va o'rganish usullari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2-qism). – Jizzax, 2022. – 318 b.
8. "Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2023. – 521 b.

Ubaydullayev Maxmudjon Akhmadjonovich

Teacher, Namangan State University

Received 4th January 2026, Accepted 12th February 2026, Online 31th March 2026

AMALIY SAN'AT DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: NAZARIY-PEDAGOGIK TAHLIL

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida amaliy san'at darslari orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish masalasi nazariy-pedagogik jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Amaliy san'at fanining milliy madaniyat va ma'naviy merosni ta'lim jarayoniga integratsiyalashdagi o'rni, uning tarbiyaviy, estetik hamda ijtimoiy funksiyalari ilmiy adabiyotlar asosida yoritiladi.

Tadqiqotda amaliy san'atning shaxs kamolotiga ta'siri, xususan, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, estetik tafakkur va madaniy ongni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari konseptual yondashuv asosida tahlil etiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida amaliy san'at darslarining pedagogik ahamiyati nazariy jihatdan asoslanib, mazkur yo'nalishda ilmiy xulosalar va umumlashtirilgan qarashlar ilgari suriladi.

Maqolada keltirilgan nazariy tahlillar amaliy san'at ta'limini milliy madaniyat bilan uzviy bog'liq holda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni shakllantirishning samarali pedagogik modeli uchun konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: amaliy san'at, milliy qadriyatlar, estetik tarbiya, pedagogik tizim, madaniy meros, nazariy tahlil.

FORMING NATIONAL VALUES AMONG STUDENTS THROUGH APPLIED ARTS CLASSES: A THEORETICAL AND PEDAGOGICAL ANALYSIS

Annotation: This article provides an in-depth theoretical and pedagogical analysis of the issue of forming national values among students through applied arts classes in general secondary schools. The role of applied arts as an educational discipline in integrating national culture and spiritual heritage into the teaching and learning process is examined, with particular attention paid to its educational, aesthetic, and social functions based on relevant scholarly literature.

The study analyzes the impact of applied arts on personal development, especially its didactic potential in fostering national identity awareness, aesthetic thinking, and cultural consciousness among students through a conceptual approach. In addition, the pedagogical significance of applied arts classes in the process of forming national values is theoretically substantiated, and a number of scientific conclusions and generalized perspectives are proposed in this regard.

The theoretical analyses presented in the article demonstrate the necessity of organizing applied arts education in close connection with national culture and serve as a conceptual foundation for developing an effective pedagogical model for forming national values within the educational process.

Keywords: applied arts, national values, aesthetic education, pedagogical system, cultural heritage, theoretical analysis.

**ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ
ПОСРЕДСТВОМ ЗАНЯТИЙ ПО ПРИКЛАДНОМУ ИСКУССТВУ: ТЕОРЕТИКО-
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ**

Аннотация: В данной статье с теоретико-педагогической точки зрения проводится углублённый анализ проблемы формирования национальных ценностей у учащихся общеобразовательных школ посредством занятий по прикладному искусству. На основе научной литературы раскрывается роль предмета «Прикладное искусство» в интеграции национальной культуры и духовного наследия в образовательный процесс, а также его воспитательные, эстетические и социальные функции.

В исследовании с позиций концептуального подхода анализируются дидактические возможности прикладного искусства в развитии личности, в частности в формировании у учащихся национального самосознания, эстетического мышления и культурного сознания. Кроме того, теоретически обосновывается педагогическая значимость занятий по прикладному искусству в процессе формирования национальных ценностей, выдвигаются научные выводы и обобщённые положения по данному направлению.

Приведённые в статье теоретические анализы свидетельствуют о необходимости организации обучения прикладному искусству в неразрывной связи с национальной культурой и служат концептуальной основой для разработки эффективной педагогической модели формирования национальных ценностей в образовательно-воспитательном процессе.

Ключевые слова: прикладное искусство, национальные ценности, эстетическое воспитание, педагогическая система, культурное наследие, теоретический анализ.

Kirish / Introduction

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ma'naviy-axloqiy, estetik va madaniy kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda milliy madaniyat, tarixiy meros va qadriyatlarni asrab-avaylash hamda yosh avlod ongiga singdirish masalasi ta'lim mazmunining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu jarayonda ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki milliy tarbiya va madaniy uzviylikni ta'minlovchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

Milliy qadriyatlar xalqning ko'p asrlik tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari, estetik qarashlari va ma'naviy dunyosini o'zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. Ularni yosh avlod ongida shakllantirish esa uzluksiz, tizimli va ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvni talab etadi [1]. Shu nuqtayi nazardan, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar mazmunini milliy madaniyat bilan uyg'unlashtirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaralmoqda.

Mazkur jarayonda amaliy san'at fanlari alohida o'rin tutadi. Chunki amaliy san'at xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini, estetik didini, milliy tafakkurini badiiy shaklda ifodalovchi ta'limiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Naqqoshlik, kashtachilik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi kabi amaliy san'at turlari milliy ramzlar, naqshlar va bezaklar orqali xalqning dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiradi. Ushbu jihat amaliy san'at darslarini milliy qadriyatlarni shakllantirishning samarali pedagogik vositasiga aylantiradi.

Pedagogik nazariya nuqtayi nazaridan qaralganda, amaliy san'at darslari o'quvchilarning bilish faoliyati bilan bir qatorda ularning hissiy-idrokiiy va ijodiy faoliyatini ham faollashtiradi. Bu esa milliy qadriyatlarning faqat axborot sifatida emas, balki shaxsiy tajriba va ichki ehtiyoj sifatida

shakllanishiga imkon yaratadi. Shu sababli, amaliy san'at ta'limi ta'lim va tarbiya integratsiyasini ta'minlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida talqin etilishi mumkin.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, amaliy san'at darslarining milliy qadriyatlarni shakllantirishdagi imkoniyatlari yetarli darajada tizimli va konseptual jihatdan o'rganilmagan. Ko'plab tadqiqotlarda amaliy san'at asosan ijodiy yoki texnik ko'nikmalarni rivojlantirish vositasi sifatida talqin qilinadi, uning milliy-tarbiyaviy salohiyati esa ikkinchi darajaga surib qo'yiladi. Bu holat mazkur yo'nalishda nazariy-pedagogik tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi[2].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi amaliy san'at darslari orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslarini aniqlash, ushbu jarayonning didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari amaliy san'at ta'limini milliy madaniyat bilan uzviy bog'liq holda tashkil etishning konseptual asoslarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Metodologiya / Methods

Mazkur tadqiqot nazariy-pedagogik xarakterga ega bo'lib, unda amaliy tajriba-sinov ishlari emas, balki ilmiy manbalar va konseptual yondashuvlar asosida tahlil olib borildi. Tadqiqotning metodologik asosi ta'lim va tarbiya integratsiyasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, madaniyatshunoslik yondashuvi hamda estetik tarbiya nazariyalariga tayangan holda belgilandi.

Tadqiqot jarayonida pedagogika, san'atshunoslik, madaniyatshunoslik va estetik tarbiya sohalariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda o'rganildi. Amaliy san'at va milliy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mazkur fanlararo yondashuv asosida tahlil qilindi [3]. Ushbu yondashuv milliy madaniyatni ta'lim jarayonining mazmuniy asosi sifatida talqin etishga imkon yaratdi.

Nazariy tahlil jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **tizimli tahlil metodi**, ya'ni amaliy san'at ta'limini pedagogik tizimning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish;
- **konseptual tahlil metodi**, milliy qadriyatlar tushunchasining mazmuniy va strukturaviy jihatlarini aniqlash;
- **taqqoshlama tahlil**, turli pedagogik qarashlar va ilmiy yondashuvlarni o'zaro solishtirish orqali umumiy va farqli jihatlarni aniqlash;
- **mantiqiy umumlashtirish**, olingan nazariy qarashlarni yagona ilmiy xulosaga keltirish;
- **interpretativ tahlil**, amaliy san'atning tarbiyaviy va estetik funksiyalarini pedagogik nuqtayi nazardan sharhlash.

Tadqiqotda milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni shaxs rivojining kognitiv (bilish), affektiv (hissiy-idrokiy) va faoliyat (amaliy) komponentlari birligi asosida tahlil qilindi. Ushbu yondashuv amaliy san'at darslarining o'quvchi shaxsiga ko'rsatadigan kompleks ta'sirini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

Shuningdek, amaliy san'at ta'limi milliy madaniyatni uzatish va davom ettirish mexanizmi sifatida qaralib, uning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etildi [4]. Tadqiqot davomida ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar bilan boyitishning nazariy modellari o'rganildi va umumlashtirildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar amaliy san'at darslari orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini nazariy jihatdan asoslash, mazkur yo'nalishda yaxlit pedagogik konsepsiyani ishlab chiqish imkonini berdi.

Nazariy tahlil natijalari / Results

Nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, amaliy san'at darslari o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda ko'p qirrali va tizimli pedagogik funksiyalarni bajaradi. Ushbu funksiyalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, shaxs kamolotining kognitiv, affektiv va faoliyatga yo'naltirilgan komponentlarini qamrab oladi.

Birinchidan, amaliy san'at milliy madaniyatni vizual va amaliy shaklda aks ettiruvchi samarali ta'limiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Milliy naqshlar, bezaklar, ranglar va ramzlar orqali o'quvchilar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va estetik qarashlari bilan bevosita tanishadi [5]. Ushbu jarayonda milliy qadriyatlar abstrakt tushuncha sifatida emas, balki aniq badiiy obrazlar orqali idrok etiladi. Natijada o'quvchilarda milliy madaniyatga nisbatan ongli munosabat va qiziqish shakllanadi.

Ikkinchidan, amaliy san'at darslari o'quvchilarda estetik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Estetik idrok va badiiy didning shakllanishi milliy qadriyatlarning chuqur va barqaror o'zlashtirilishida muhim omil hisoblanadi [6]. O'quvchilar milliy san'at namunalarini tahlil qilish va idrok etish jarayonida ularning badiiy mazmuni hamda ramziy ma'nosini anglay boshlaydi. Bu esa milliy san'at asarlarini qadrlash, ularni asrash va davom ettirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Uchinchidan, amaliy san'at tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan integrativ fan sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu fan doirasida bilish faoliyati, hissiy-idrokiy tajriba va amaliy ijodiy faoliyat o'zaro uyg'unlashadi. Bunday integratsiya milliy qadriyatlarning o'quvchi shaxsida shunchaki bilim sifatida emas, balki shaxsiy tajriba va ichki e'tiqod darajasida shakllanishiga imkon yaratadi [7]. Natijada milliy qadriyatlar o'quvchining shaxsiy dunyoqarashi va madaniy ongining ajralmas qismiga aylanadi.

Umuman olganda, nazariy tahlil natijalari amaliy san'at darslari milliy qadriyatlarni shakllantirishda yuqori pedagogik salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Amaliy san'at ta'limi o'quvchilarning estetik, ma'naviy va madaniy rivojlanishini ta'minlovchi muhim ta'limiy-tarbiyaviy mexanizm sifatida talqin etilishi mumkin.

Muhokama / Discussion

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni faqat nazariy ma'lumotlarni yetkazish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Ushbu jarayon shaxsning ichki ehtiyojlari, hissiy-idrokiy tajribasi hamda madaniy ongini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Mazkur nuqtayi nazardan qaralganda, amaliy san'at darslari milliy qadriyatlarni o'quvchi shaxsiga singdirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Nazariy jihatdan tahlil qilinganda, amaliy san'at ta'limi ta'lim va tarbiya jarayonlarining uzviy integratsiyasini ta'minlaydi [8]. Bu integratsiya o'quvchilarda milliy qadriyatlarni kognitiv (bilish), affektiv (hissiy-idrokiy) va faoliyatga yo'naltirilgan komponentlar birligi asosida shakllantirish imkonini beradi. Natijada milliy qadriyatlar o'quvchi ongida faqat bilim sifatida emas, balki shaxsiy e'tiqod va madaniy pozitsiya darajasida mustahkamlanadi [9].

Shuningdek, amaliy san'at darslari shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan hamohang bo'lib, o'quvchilarning individual qiziqishlari, ijodiy imkoniyatlari va estetik ehtiyojlarini hisobga olishga xizmat qiladi [10]. Bu esa milliy madaniyatni o'zlashtirish jarayonining tabiiy va barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda milliy san'atga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirib, madaniy merosni saqlash va davom ettirishga bo'lgan mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Umuman olganda, amaliy san'at darslari orqali milliy qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan nazariy yondashuv ta'lim tizimida milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi barqaror pedagogik modelni shakllantirish imkonini beradi. Ushbu model ta'lim

